

O“ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI  
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI

KONCHILIK FAKULTETI  
“KONCHILIK ISHI” KAFEDRASI



## OCHIQ KONCHILIK ISHLARI

fanidan

## O’QUV-USLUBIY MAJMUA

O“ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI  
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI  
KONCHILIK FAKULTETI  
“KONCHILIK ISHI” KAFEDRASI

**«TASDIQLAYMAN»**

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

\_\_\_\_\_ N. A. Abduazizov

«\_\_\_» 2022 yil

## **KONCHILIK ISHI ASOSLARI**

**fanidan**

## **O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

NAVOIY - 2022 y

—Konchilik ishi asoslari|| fanidan o\_quv - uslubiy majmua 5311600 –  
—Konchilik ishi|| bakalavriat yo\_nalishi bo\_yicha. O\_zbekiston respublikasi oliy va  
o\_rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022 yil fan dasturi asosida tuzilgan.

**Tuzuvchilar:**

**“Konchilik ishi”**

**kafedrasi katta o“qituvchisi**

**Xakimov Sh.I.**

**“Konchilik ishi”**

**kafedrasi assistenti**

**A. X. Toshnazarov**

**«Konchilik ishi»**

**kafedrasi mudiri**

**A. B. Tuxtashev**

**Konchilik fakulteti dekani**

**I.T. Mislibaev**

**O,,quv-uslubiy kengash kotibasi:**

**M.J. Normatova**

**O,,quv-uslubiy bo,,lim boshlig,,i:**

**I.A.Karimov**

## **MUNDARIJA.**

FAN BO‘YICHA MA‘RUZALAR.....	5
AMALIY MASHG_ ULOTLARNI BAJARISH UCHUN USLUBIY QO_llanma.....	85
KURS ISHINI BAJARISH BO_yicha uslubiy ko_rsatma .....	145
FANING NAMUNAVIY O_quv dasturi.....	172
FANING ISHCHI O_quv dasturi... .....	180
FANING TEST SAVOLLARI... .....	191
BAHOLASH ME‘ZONI.....	208
ADABIYOTLAR RO‘YHATI.....	227

## MA“RUZA №1

### ***Mavzu: Kirish. Konchilik sanoati va konchilik korxonalari.***

***Reja:***

1. Er osti konlari haqida tushuncha.
2. Konchilik sanoati korxonalarida kon qazish ishlarining o\_ziga xos xususiyatlari.
3. Foydali qazilmalarning qazib olishning usullari.

***Dars maqsadi:*** talabalarda konchilik sanoati, konchilk korxonalari va ular oldida turgan zamonaviy muammolar haqida asosiy tushunchalar, foydali qazilmalarni qazib olish usullari haqida nazariy bilim va ko\_nikmalarni shakllantirish.

***Mavzu bo,,yicha tayanch iboralar:*** foydali qazilmalar, xom ashyo, yoqilg\_i, rudnik, shaxta, karer, priysk, promisel.

**Foydali qazilma deb**, yer qobig‘ida mavjud bo‘lgan tabiiy mineral moddalarni hozirgi davr texnikaviy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida yer ostidan ajratib olib, sanoatda foydalanish maqsadga muvofiq kelgan turlariga aytildi.

**Foydali qazilma koni deb**, yer qa‘rida foydali minerallarni va birikmalarni tabiiy to‘plangan joyiga aytildi.

Foydali qazilmalarni qazib olish deganda ularni yer qobig‘idan chiqarib olish tushuniladi. Tabiatda foydali qazilmalar **qattiq, suyuq** va **gazsimon** ko‘rinishlarda uchraydi.

Konchilik ishi insoniyat faoliyatining asosiy ko\_rinishlaridan biri bo\_lib, hayot darajasi va sivilizatsiyaning o\_sishini ta‘minlaydi. Kon ishlari sanoat ishlab chiqarishning etakchi tarmog\_i sifatida konlarni razvedka qilish, ularni qazib chiqarish, qazib olingan xom ashyni dastlabki qayta ishlash, konchilik korxonalari qurish va turli vazifalarni bajarishga mo\_ljallangan er osti inshootlarni barpo etish kabi ishlarni o\_z ichiga oladi.

—Konchilik ishi asoslari|| fani —Konchilik ishi|| yo\_nalishi bo\_yicha bakalavr tayyorlashda o\_qitiladigan dastlabki fanlardan biri hisoblanadi. Foydali qazilma konlarini er osti, ochiq, geotexnologik va boshqa usullarda qazib chiqarish tamoyillarini o\_zlashtrish ushbu fanning vazifasi hisoblanadi.

—Konchilik ishi asoslari||ni gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy va umumtexnika fanlari bo\_yicha bilimlar asosida o\_rganiladi. Ulardan eng asosiyları: geologiya, kon ishlari tarixi, chizma geometriya, ekologiya, hayot xavfsizligi va boshqalar. O\_z navbatida, —Kon ishi asoslari||, umumtexnika va mutaxassislik fanlarini o\_rganish uchun baza vazifasini o\_taydi.

Foydali qazilma boyliklariga xo\_jalik, qurilish, sanoat va ilmiy maqsadlar uchun qazib olinadigan va xom ashyo holida yoki qayta ishlangandan so\_ng ishlatiladigan barcha turdag‘ tog‘ jinslari kiradi. Foydali qazilmalar qurilish va sanoatning asosi hisoblanib, mamlakat iqtisodiyotida katta o\_rin egallaydi. Uni xom-ashyo sifatida qazib olish va qayta ishlash miqyosi esa davlatning ishlab chiqarish saviyasini, boyligi va iqtisodiy rivojlanishini belgilaydi.

Konchilik sanoati kon ishlari tarkibini tashkil qiluvchi bo\_g\_in sifatida foydali qazilma konlarini qazib olish va dastlabki boyitish ishlarini amalga oshiradi. Konchilik sanoati mamlakat xalq xo\_jaligiga yoqilg\_i (ko\_mir, yonuvchi slanetslar, torf, neft, tabiiy gaz), qora, rangli va radioaktiv metallar rudalari, kon-kimyo xom ashyolar, qurilish materiallari va boshqa xom ashyolarini etkazib beradi.

Konchilik sanoatining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyoti va mudofaa quvvati hamda mustaqilligining mustahkamlashda katta ahamiyatga egadir. O\_zbekiston Respublikasi konchilik sanoati rivojlangan mamlakatlar qatorida etakchi o\_rinlarda turadi.

Hozirgi vaqtida respublikada konchilik sanoatining quyidagi tarmoqlari mavjud bo\_lib, ular yuqori sur'atlarda rivojlanib bormoqda:

- yoqilg\_i qazib chiqarish (ko\_mir, yonuvchi slanetslar, neft, tabiiy gaz, uran);
- rangli metallurgiya (oltin, kumush, miss, rux, qo\_rg\_oshin, volfram va boshqalar);
- kon-kimyo xom ashyosi qazib chiqarish (appatit, fosforit va turli mineral tuzlar);
- tabiiy qurilish materiallari qazib chiqarish (granit, marmar, tuf, ohaktosh, shag\_al, qum, soz tuproq va boshqalar).

Hozirgi vaqtida O\_zbekiston Respublikasi hududida 2800 ga yaqin turli foydali qazilma konlari topilgan. Ulardan 850 dan ko\_prog\_i to\_la razvedka qilingan va 400 ga yaqini ishlatilmoqda. Biroq shuni aytish kerakki, ishlatilayotgan konlarning qariyb 80-85% tabiiy qurilish materiallari konlariga to\_g\_ri keladi. Bu konlarni qazib olayotgan korxonalarining ishlab chiqarish quvvati juda kichik bo\_lib, kon massasi bo\_yicha unumdorligi 25-50 ming tonna (yoki kub metr) ni tashkil qiladi. SHu bilan bir qatorda o\_rta va katta ishlab chiqarish quvvatiga ega bo\_lgan konchilik korxonalar ham respublika iqtisodiyotida muhim o\_rin tutadi. Ularga Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Navoiy kong\_metallurgiya kombinati, O\_zbekiston —Ko\_mir aksionerlik jamiyati, shuningdek, ko\_plab neft va tabiiy gazni qazib chiqaruvchi korxonalar misol bo\_la oladi.

Konchilik sanoati korxonalarida kon qazish ishlarining o\_ziga xos xususiyatlari mavjud, ularning asosiyları quyidagilar:

- foydali qazilma konlarini o\_zlashtirish atrof muhitga bevosita ta'sir ko\_rsatib qator ekologik muammolar kelib chiqishiga sabab bo\_ladi;
- ish joylarini doimo surilib turishi kon qazish ishlarini mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish va tashkil qilishga alohida talablar qo\_yadi;
- qazish ishlarini tobora chuqurlashib borishi natijasida kon-geologik sharoitlarni murakkablashib borishi, gazodinamik xodisalarning sodir bo\_lish ehtimolligi, shaxta (rudnik) atmosferasi haroratini ko\_tarilishi kabi omillarning mavjudligi. Bularning hammasi kon ishlarining murakkab va xavfli bo\_lishiga olib keladi.

Foydali qazilmalarni qazib olishning quyidagi usullari mavjud: *Yer osti, ochiq, geotexnologik, skvajina va aralash* usullar. Foydali qazilmalarni qazib olishni konchilik korxonalarini amalga oshiradi.

Konchilik korxonasi – konlarni razvedka qilish, qazib chiqarish va boyitish ishlarini bajaruvchi mustaqil ishlab chiqarish birligi. Foydali qazilmalarni qazib olib, dastlabki boyitish ishlarini bajaruvchi korxonalar qazib chiqaruvchi korxonalar deyiladi. Qazib chiqaruvchi korxonalariga *shaxta*, *rudnik*, *karyer* (razrez) kabi korxonalar kiradi.

**Shaxta** – foydali qazilmalarni (asosan, ko‘mirni) Yer osti usulida qazib chiqaruvchi konchilik korxonasi.

**Rudnik** – asosan metall rudalari, kon-kimyoiy xom ashyo va qurilish materiallarini yer osti usulida qazib chiqaruvchi konchilik korxonasi.

**Karyer** – foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib chiqaruvchi konchilik korxonasi.

**Razrez** – ko‘mir qazuvchi karer.


**Priysk** – qimmatbaho metallarga ega bo‘lgan sochma konlarni qazib chiqaruvchi konchilik korxonasi.

**Promisel** – suyuq va gazsimon foydali qazilmalarni qazib chiqaruvchi konchilik korxonasi (neft promiseli).

Konni ochish, qazishga tayyorlash va bevosita foydali qazilmani qazib olish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlar majmuini konni qazib chiqarish deyiladi.

Bu ishlar konni qazib chiqarishning bo‘g‘inlari hisoblanadi. Masalan, dastlab konni ochish ishlari, so‘ng konni bir qismini qazishga tayyorlash ishlari va bevosita foydali qazilmani qazish ishlari birin-ketin bajariladi.

Konlarni yer osti usulida qazib chiqarish uchun Yer osti kon lahimlari to‘rini barpo etish zarur(1.1-rasm).




1.1-rasm. Ko‘mir shaxtasi sxemasi:

1,2,12 – vertikal lahimlar; 3,4,5,10,11 – gorizontal lahimlar; 6,7,8,9 – qiya lahimlar; 13 – nasos kamerasi; 14 – qazish kavjoyi.

Kondan qazib olingan foydali qazilma ushbu lahimlar orqali tashilib Yer yuziga chiqarib beriladi. Qattiq foydali qazilmalarni qazib chiqarishda, dastlab uning bir qismini massivdan ajratib olish (buzish) lozimdir. Ko‘mir konlarini qazib chiqarishda massivni buzish, asosan, mexanik usulda, ruda konlarida esa, - portlatish usulida amalga oshiriladi.

Konlarni ochiq usulda qazib chiqarishda barcha kon ishlari Yer yuzida turib ochiq kon lahimlari orqali bajariladi (1.2-rasm).



#### 1.2-rasm Konlarni ochiq usulda qazish sxemasi:

1-ekskavator; 2-avtoag'dargich; 3-buldozer; 4-burg'ulash stanogi;  
5- gorizontlar; 6-porlatilgan massa; 7-foydali qazilma yotqizig'i; 8-skvajinalar; 9-tushish transheyasi; 10-qoplama jins ag'darmasi.

Ochiq kon korxonalarida kon yotqiziqlarining yotish sharoitlariga ko'ra, nafaqat foydali qazilma, katta hajmda puch (foydasiz) kon jinslari ham qazib olinadi. Bu jinslar foydali qazilma yotqizig'i ustida joylashganligi sababli ularni qoplama jinslar yoki ochish jinslari deb yuritiladi.

Kon jinslarini qazishga tayyorlash, qazish-yuklash, yuklarini tashish va foydasiz kon jinslari ag'darmasini hosil qilish ishlari ochiq kon ishlaringin asosiy ishlab chiqarish jarayonlari hisoblanadi.

Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib chiqarish Yer osti usuliga nisbatan qator afzallilik va kamchiliklarga ega.

#### *Asosiy afzalliklari:*

-ishlab chiqarish jarayonlarini yuqori darajada mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish imkoniyati mayjudligi tufayli, mehnat unumдорligi yuqori va kon qazish ishlari xarajatlari kam bo'lishi ta'minlanadi;

-mehnat qilish sharoitlari qulay va nisbatan xavfsizroq bo'ladi;

-korxona qurilishi uchun sarflanadigan solishtirma kapital mablag' (ishlab chiqarish quvvatining bir birligiga to'g'ri keladigan kapital mablag') kichik bo'ladi;

-foydali qazilmani mumkin qadar to'laroq qazib olishga imkoniyat yaratiladi.

### ***Asosiy kamchiliklari:***

- ayrim hollarda ochiq kon ishlarining ob-havoga bog‘liqligi;
- katta Yer maydonlarini qishloq ho‘jalik oborotidan vaqtincha chiqarilishi;  
Yer qa‘rida suv balansining buzilishi.

Foydali qazilmalarni geotexnologik usullarda qazib chiqarish Yer yuzidan yoki kon lahimlaridan foydali qazilma yotqizig‘igacha skvajina o‘tib, u orqali foydali qazilmaga mexanik, fizik yoki kimyoviy ta‘sir ko‘rsatib, uni harakatlanuvchi holatga keltirish va skvajinalar orqali Yer yuziga chiqarib olishga asoslangan.

Hozirgi vaqtida, konchilik amaliyotida oltingugurni eritish, ko‘mirni Yer ostida yonuvchi gazga aylantirish va rangli metallarni Yer ostida bakteriya – kimyoviy ta‘sir etib, tanlab eritishga asoslangan geotexnologik qazish usullari qo‘llanilmoqda. Biroq, ularni hajmi juda kichik bo‘lsada, iqtisodiy va ekologik nuqtai nazaridan istiqbolli usullar hisoblanadi.

-Foydali qazilmalarni skvajina usulida qazib chiqarish, asosan, neft va gaz konlarida, shuningdek, Yer osti suvlarini qazishda keng qo‘llanadi.

## MA“RUZA №2

**Mavzu: Kon jinslari va foydali qazilmalar to„g,,risida asosiy ma“lumotlar.**

**Reja:**

1. Kon jinslarning geologik turlari.
2. Kon jinslarning kattiqligi bo\_yicha turlari
3. Foydali qazilmalarning yotish elementlari bo\_yicha klassifikatsiyalanishi.
4. Buzilgan tog\_jinslari bog\_liqlik darajasi

**Mavzu bo,,yicha tayanch iboralar:** Kon jinslarning geologik turlari, kon jinslarning qattiqligi bo\_yicha turlari, foydali qazilmalarning yotish elementlari bo\_yicha klassifikatsiyalanishi, buzilgan tog\_jinslari bog\_liqlik darajasi.

Yer qobig‘i, yoki litosfera – bu yuqoridaan gidrosfera va atmosfera bilan, ostidan esa mantiya bilan chegaralangan, qalinligi 15-70 km ga teng Erning o‘rab olgan tosh qobiq bo‘lib, turli jinslardan tashkil topgan. Kon jinslari o‘z navbatida **tub** va **ustama** jinslarga ajraladi.

Tub jinslar – hosil bo‘lgan joylaridan qo‘zg‘almagan va buzilmagan (parchalanmagan) jinslar.

Ustama jinslar - tub jinslarning buzilishidan (parchalanib – maydalanishidan) hosil bo‘lgan yumshoq cho‘kindi jinslar. Tub jinslar asosan issiqlik, sovuqlik va suv oqimi ta‘sirida emiriladi. Tub jinslar emirilishi natijasida hosil bo‘lgan jins zarrachalari o‘z o‘rnida qolgan yoki shamol va suv oqimi ta‘sirida ma‘lum masofaga ko‘chgan bo‘lishi mumkin.

Tub jinslar hosil bo‘lishiga nisbatan **magmatik, cho‘kindi** va **metamorfik** guruhlarga bo‘linadi.

Magmatik jinslar erib turgan magmaningsovushidan hosil bo‘lgan bo‘lib, ularga granit, sienit, diorit, gabbro, diobaz, bazalt va shu kabi boshqa qattiq kon jinslari kiradi.

Cho‘kindi jinslar asosan yog‘ingarchilik natijasida suv tarkibidagi jins zarrachalarining cho‘kishi, shuningdek, muzliklar harakati natijasida hosil bo‘lgan jinslar bo‘lib, ularga ko‘mir, argellit, alevrolit, qumtosh, ohaktosh, gillar kabi jinslar kiradi.

Metamorfik jinslar – magmatik va cho‘kindi jinslarning Yer ostida bosim va harorat ta‘sirida o‘zgargan ko‘rinishi bo‘lib, ularga asosan kvarsitlar va marmarlar misol bo‘ladi. Yer qobig‘ining o‘rganilishi mumkin bo‘lgan yuqori qismi (16-20 km chuqurlikgacha), asosan magmatik jinslardan tashkil topgan (95 %), metamorfik jinslar 4 %ni, cho‘kindi jinslar esa 1 %ni tashkil qiladi.

Kon jinslari bitta yoki bir necha mineral zarrachalaridan tashkil topgan bo‘ladi.

Yer qobig‘i yoki uning ustida sodir bo‘lgan fizik-ximik hodisalar oqibatida hosil bo‘lgan tabiiy kimyoviy birikmalar mineral deb ataladi.

Kon jinslari va minerallar, agar ulardan tabiiy holda yoki qayta ishlashdan so‘ng foydalanish mumkin bo‘lsa, foydali qazilma deyiladi. Tabiatda foydali qazilmalar qattik, suyuq va gazsimon ko‘rinishlarga ega bo‘ladi.

Foydali qazilma yotqizig‘ini o‘rab olgan jinslar puch (foydasiz) jinslar deyiladi. Kon jinslarini foydali qazilma va puch jinslarga ajratish nisbiy hisoblanadi.

Yer qobig‘ida tabiiy ravishda to‘plangan va ma‘lum hajmga ega bo‘lgan foydali qazilma – foydali qazilma koni deb ataladi. Konlar ham **tub** va **sochma** ko‘rinishda bo‘ladi.

Tub konlar – o‘zлari hosil bo‘lgan joydan qo‘zg‘almagan konlar. Sochma konlar – tub konlarning fizik emirilishi natijasida maydalaniб o‘z joyida qolgan yoki ma‘lum masofaga shamol va suv oqimi orqali tarqalgan konlar. Agar sochma konlar maydalangan joyida qolgan bo‘lsa, bunday konlarni **elyuvial sochma konlar**, tub konga nisbatan ma‘lum masofaga tarqalgan bo‘lsa – **delyuvial sochma konlar** deb yuritiladi.

Qazib olinayotgan foydali qazilmaga nisbatan konlarni ruda va noruda konlariga ajratiladi. Tarkibida turli metallar, kimyo sanoati uchun kerakli bo‘lgan minerallar (foydali komponentlar) bo‘lgan foydali qazilma konlari – ruda konlari deyiladi. Ko‘mir, neft, tabiiy gaz, tabiiy qurilish materiallari konlari esa noruda konlari hisoblanadi.

### **Qoyali va yarim qoyali, mustahkam, yumshoq va buzilgan tog,, jinslari.**

Qazib olishda barcha tog\_ jinslarini umumiyl holda quyidagi guruhlarga bo\_ linadi:

1. Qoyali va yarim qoyali tog\_ jinslar (ularning tabiiy holatida);
2. Buzilgan tog\_ jinslari (birinchi guruhdagi tog\_ jinslarining tabiiy yoki biror bir kuch ta‘siri natijasida o\_zgargan holatda);
3. Mustahkam, yumshoq (bog\_ lanuvchan) va sochiluvchan tog\_ jinslari.

**1. Qoyali tog,, jinslariga** metamorfik tog\_ jinslari, shuningdek ba‘zi cho\_kindi tog\_ jinslari kiradi. Ularga kvarsit, granit, bazalt, gabbro, mustahkam izvestnyak va boshqalar taalluqlidir. Qattiqlik koeffitsienti –  $f=5'10$  dan  $15'20$  gacha. Qoyali tog\_ jinslari portlatish yuli bilan yumshatib qazib olinadi.

**Yarim qoyali tog,, jinslariga** metamorfik tog\_ jinslari, asosan tub cho\_kindi tog\_ jinslari kiradi. Ularga gil va qum gilli slanetslar, mergel (ohakgil), gips, tosh tuzi, toshko\_mir va boshqalar misol bo\_la oladi. Qattiqlik koeffitsienti  $f=1,5'5$ . YArim qoyali tog\_ jinslarini qazib olishda dastlabki yumshatish talab etiladi.

Tog\_ jinslari geologiyasi va fizikasidan ma‘lumki, massiv 3 tartibli yoriqlikka ega. Birinchi ikki tartibdagи yoriqlar massivni yirik elementlarga bo\_ladi. Uchinchi tartibdagи yoriqlar buyicha massivda qoyali va yarim qoyali tog\_ jinslari 5 kategoriya bo\_ linadi.

### **Massivning yoriqlar buyicha klassifikatsiyalanishi quyidagi jadvalda keltirilgan:**

Tog_ jinslarining yoriqlilik kategoriyasi	Massivning yoriqlilik (bloklilik) darajasi.	Solishtirma yoriqlilik,m <sup>1</sup>
I	O_ta yoriqlili (mayda blokli)	>10
II	Ko_p yoriqlili (o_rta blokli)	2-10
III	O_rta yoriqlili (yirik blokli)	1-2
IV	Mayda yoriqlili (juda yirik blokli)	1-0,65
V	Amalda monolit (o_ta yirik blokli)	< 0,65

**Mustahkam tog,, jinslari** qattik gil, bo\_r, toshko\_mirlarni o\_z ichiga oladi. Qattiklik koeffitsienti  $f=0,8'1,5$ . Ular massivda 10-20 m balandlikda qiyalikni 60-70° burchakkacha saqlab turadi. Mustahkam tog\_ jinslari qazib olish uchun etarli darajada kuch bo\_lganda ( $0,3-0,4$  MPa dan kam bo\_lmaganda) dastlabki yumshatmasdan kon mashinalari yordamida qazib olish mumkin. Aks holda esa, qazib olishdan oldin yumshatish zarur bo\_ladi.

**Yumshoq tog,, jinslari** qumli gil, yumshoq ko\_mir va boshqalardan iboratdir. Qattiklik koeffitsienti  $f=0,6'0,8$ . Bu turdag'i tog\_ jinslarini oldindan yumshatmasdan barcha ko\_rinishdaga qazib olish mashinalari yordamida qazib olish oson. Ular 7-15 m balandlikda qiyalik burchagi 50-60° gacha saqlab tura oladi.

**Sochiluvchan tog,, jinslari** ga bir jinsli qumlar taaluqlidir. Ularning sochilmalarda va massivdagi qiyalik burchagi ichki ishqalanish burchagidan ( $v=19-37^\circ$ ) oshmasligi kerak. Qumlarda qazib olish ishlari bir muncha kam, ya'ni bir jinsli silliqlangan bulaklar orasidagi bog\_liqlik kuchi amalda mavjud emas. Faqtgina zinch joylashgan turli jinsli qumlarda bulaklari orasidagi  $0,3-0,5$  kgf/sm<sup>2</sup> dan oshmagan bog\_lanish mavjud. Qumlarning siljishiga qarshiligi dinamik ta'sirda keskin kamyadi.

Portlash, mexanik buzish, maydalash yoki tabiat kuchlari (qulash, nurash va boshqalar) ta'siri natijasida qoyali va yarim qoyali tog\_ jinslari buzilgan xolatga o\_tadi va oddiy texnik vositalar bilan tashish va yuklash uchun qulay buladi.

**Buzilgan tog,, jinslari** bo\_lqidagi bog\_liklik darajasi, bo\_lakligi va mustahkamligi bo\_yicha tog\_ jinslarining maydalashgacha bo\_lgan mustahkamligidan farq qiladi. Tog\_ jinslari bog\_liqligi qo\_shilgan bo\_laklarni orasidagi aloqalar tavsifini oydinlashtiradi. Bog\_liqlik darajasi birinchi navbatda buzilgan jinslarni yumshanuvchanligiga hamda ishqalanish Ke (tabiiy bog\_lilik tavsifi), ilashish K3 (mexanik buzish tavsifidagi bog\_liqlik) koeffitsientlari va jinslarning ichki ishqalanish burchagi p kattaliklari bilan ko\_rsatiladigan bo\_laklikka bog\_liq.

#### ***Buzilgan tog,, jinslari bog,,liqlik darajasi bo,,yicha kategoriyaga bo,,linadi:***

**I kategoriya** - sochiluvchan buzilgan tog\_ jinslari. Bo\_laklar orasidagi ko\_p qavat oralqlar soni bilan tavsiflanadi, lekin alohida bo\_laklar siqilishi va ular orasida ilashish bo\_lishi mumkin. Jinslar sochiluvchan bo\_ladi va tug\_ri ko\_rinishli qiyalik hosil qiladi. YUmshanuvchanlik koeffitsenti  $K_p=1,4-1,65$  oralig\_ida, ba'zida undan ham katta bo\_ladi.

**II kategoriya** - bog\_liqli sochiluvchan buzilgan tog\_ jinslari. Aloida tabiiy bo\_lmalar va bo\_laklar orasidagi katta bo\_lmagani oralqlar (bo\_shliqlik) soni bilan tavsiflanadi. Yumshanuvchanlik koeffitsenti  $K_p=1,2—1,3$ .

**III kategoriya** —bog\_liqli buzilgan jinslar. Bir-biri bilan to\_liq ajralmagan, massivning tabiiy yoriqligi ko\_rinishda bo\_ladi. Yumshanuvchanlik koeffitsenti  $K_p=1,03—0,05$ , ba'zida  $1,05-1,1$ . Pog\_onalar tik qiyalikka ega.

***Bo,,laklikni bo,,lakning o,,rtacha chiziqli o,,lchami bo,,yicha topiladi. Buzilgan jinslar bo,,lakligi bo,,yicha beshta kategoriyaga bo,,linadi.***

**I kategoriya** —juda ham mayda buzilgan jinslar eng katta bo\_lagi o\_lchamlari 0,4'0,6 mm gacha; dcp 0,1.

**II kategoriya** —mayda buzilgan jinslar, bo\_laklar o\_lchami 0,6'1,0 m.gacha; d<sub>cp</sub> = 0,5'0,25.

**III kategoriya** —o\_rtacha buzilgan jinslar, bo\_laklar o\_lchami 1,0 —1,4 m.gacha: d<sub>cp</sub> = 0,25' 0,35 m.

**IV kategoriya** - katta buzilgan jinslar. Eng katta bo\_lagi o\_lchami 1,5'2,0 m. d<sub>cp</sub>— 0,4'0,6 m.

**V kategoriya** —eng katta buzilgan jinslar tarkibidagi alohida bo\_laklar o\_lchami 2,5'3,0 m va undan ham katta bo\_ladi: d<sub>cp</sub> = 0,7'0,9 m.

Juda ham mayda, mayda va o\_rtacha buzilgan sochiluvchan jinslar uchun yumshanuvchanlik maksimal koeffitsenti chegaralangan va u asosan 1,5 dan oshmaydi.

Portlatish usuli bilan buzilgan jinslar tegishli holda juda ham katta, katta, o\_rtacha, mayda va eng mayda portlatilgan jinslar deb aytildi. Mexanik yumshatish (yumshatgichlarda) natijasida olingan, bo\_laklari kattaligi 0,2 metrdan katta bo\_lmagan mayda buzilgan jinslar, *maydalangan jinslar*, 0,1m dan katta bo\_lmaganlarini esa *kichik qilib maydalangan jinslar* deb aytildi. Juda xam maydalangan jinslarga bo\_lakchalar kattaligi 70, 40, 20, 10 mm ni tashkil etadigan qirrali shag\_alli mayda shag\_al kiradi.

Qazib olishning texnologik sharoitlari bo\_yicha ruxsat etilganidan katta o\_lchamiga ega jinsli bo\_laklar ***noo,lchamli*** deb aytildi. Ular qo\_shimcha maydalanishi kerak. Noo\_lchamli bo\_laklar o\_lchami va chiqishi nisbiy tushuncha bo\_lib, tashuvchi va yuklovchi vositalarning quvvati bilan aniqlanadi. Ruxsat etilgan bo\_lak o\_lchami qancha katta bo\_lsa, bir xil sifatli portlashdan noo\_lchamli bo\_lakning chiqishi shuncha kam bo\_ladi.

## MA“RUZA №3

### **Mavzu: Foydali qazilma konlarining shakllari va yotish elementlari.**

**Reja:**

1. Foydali qazilmalar shakllari.
2. Qatlamlar, Er tomir, shtok, linza va shu kabi nogeometrik shaklga ega bo‘lgan foydali qazilma konlari.
3. Ruda konlarining xarakteristikasi.

**Mavzu bo,,yicha tayanch iboralar:** Foydali qazilmalar shakllari, qatlamlar, er tomir, shtok, linza va shu kabi nogeometrik shaklga ega bo‘lgan foydali qazilma konlari, ruda konlarining xarakteristikasi.

Qattiq foydali qazilma konlari Yer qobig‘ida joylashish bo‘yicha to‘g‘ri va noto‘g‘ri shaklli konlarga ajratiladi.

To‘g‘ri shaklli konlarni qatlamli va qatlamsimon ko‘rinishga ega bo‘lgan konlar tashkil qiladi

Yer qobig‘ida keng tarqalgan, plitasimon ko‘rinishga ega bo‘lgan, har ikki tomonidan bir-biriga deyarli parallel tekisliklar bilan chegaralangan foydali qazilma yotqizig‘i —qatlam deb ataladi. Ikki jins qatlamini bir- biri bilan ustma-ust tutashish tekisligi qatlamlanish tekisligi deyiladi.


Foydali qazilma qatlami tepasiga joylashgan jins qatlami qatlamning shifti yoki —osilma yoni deyiladi.

Qatlam ostidagi jinslar esa – qatlam asosi (zamini) yoki —yotishl yoni deyiladi.

Qatlamlar oddiy (bir tarkibli) va murakkab (ko‘p tarkibli) bo‘lishi mumkin. Ch o‘kindi jinslar tarkibida hosil bo‘lgan foydali qazilma konlari, asosan, to‘g‘ri shaklli konlar hisoblanadi (ko‘mir, yonuvchi slanetslar, mineral tuzlar, gips, marganets va boshqa foydali qazilma konlari).

Bir necha qatlamlar Yer qobig‘ida o‘zaro parallel va bir-biriga yaqin joylashgan bo‘lsa, ularni qatlamlar dastasi (svitasi) deb ataladi.


Yer tomir, shtok, linza va shu kabi nogeometrik shaklga ega bo‘lgan foydali qazilma konlari noto‘g‘ri shaklli konlar hisoblanadi Odatda, ruda konlari noto‘g‘ri shaklli konlardir.



4.1-rasm. Qatlam tuzilishi:  
a-sodda; b-murakkab

Yer qobig‘idagi darzlarni to‘ldirgan mineral moddalar **yertomir** deyiladi. Yertomirlar oddiy va murakkab bo‘lishi mumkin. Yer qobig‘idagi bo‘shliqlar mineral moddalar bilan to‘lgan bo‘lsa, bunday konlar, odatda, shtok, in va linza shakliga ega bo‘ladilar. Bu shakldagi konlar bir-biridan shakl va o‘lchamlari orqali farqlanadi va odatda, temir, mis, polimetall konlari shunday shakllarda uchraydi.

Qatlamlarning Yer qobig‘ida joylashish holati ularning yotish elementlari orqali aniqlanadi. Qatlamning cho‘ziqligi, og‘ishi, og‘ish burchagi, qalinligi uning asosiy elementlari xisoblanadi



4.2. rasm.  
Ruda tanalarining yotish shakllari:  
a-yertomir; b-shtok; c-linzalar; d-insimon.

Qatlamning uzunligi (uzunlik bo‘yicha o‘lchami) qatlam cho‘ziqligi deyiladi.

Qatlamning gorizontal tekislik bilan kesishish chizig‘i – cho‘ziqlik chizig‘i deyiladi.

Qatlam tekisligida cho‘ziqlik chizig‘iga tik yotgan chiziq og‘ish chizig‘i, ushbu chiziqning yo‘nalishi esa qatlam og‘ishi deyiladi. Og‘ish chizig‘i bilan gorizontal tekislik o‘rtasida hosil bo‘lgan burchak qatlam og‘ish burchagi deb yuritiladi. Foydali qazilmalarni yotish shakllari va qazib olish usullariga nisbatan qatlamlarni gorizontal, qiyaroq,



4.3-rasm. Qatlamning yotish elementlari.

qiya, o‘ta qiya va tik guruhlarga ajratiladi (4.1 jadval).

*4.1-jadval*

#### **Foydali qazilma yotqiziqlarini og“ish burchagi bo“yicha tasnifi**

Og‘ish burchagi buyicha qatlam ko‘rinishi (tipi).	Og‘ish burchagi, gradus		
	Ko‘mir qatlamlari		Ruda konlari
	Yer osti usulida qazish	Ochiq usuldaQazish	
Gorizontal	0-3	0	0
Qiyaroq(yotiq)	3-18	10gacha	25 gacha
Qiya	19-35	10-30	25-45
O‘ta qiya	36-55	-	-
Tik	56-90	31-90	46-90

Tasnifdagи tafovutlar qatlam va foydali qazilma yotqiziqlarini qazib olish usuli va texnologiyasiga bog‘liqdir.

Foydali qazilma qatlami (yotqizig‘ining) qalinligi deganda, qatlamni chegaralovchi tekisliklar orasiga tik o‘tkazilgan chiziq uzunligi tushuniladi. Bunday qalinlik ( $m$ ) haqiqiy qalinlik deyiladi. Qatlam shifti bilan asosi o‘rtasidagi gorizontal chiziq bo‘yicha masofa qatlamning gorizontal qalinligi ( $m_g$ ), vertikal chiziq bo‘yicha masofasi esa, vertikal qalinlik ( $m_v$ ) deyiladi.

Qatlam qalinligi ko‘pincha o‘zgaruvchan bo‘ladi, ya‘ni bir joyda qalin bo‘lsa, ikkinchi joyda yupqaroq, uchinchi joyda esa, yanada yupqaroq bo‘lishi mumkin. Shu sababli konchilik amaliyotida o‘rtacha qalinlik ( $m_{o‘r}$ ) atamasidan foydalaniildi.

Ko‘mir qatlamlari va ruda yotqiziqlarining qalinlik bo‘yicha tasnifi 4.2 jadvalda keltirilgan.

*4.2- jadval.*

#### **Foydali qazilma yotqiziqlarining qalinlik bo“yicha tasnifi**

Qalinlik bo‘yicha qatlam (yotqiziqlaruning qalinlik bo‘yicha tasnifi)	Qalinlik, m			Ruda konlari	
	Ko‘mir qatlamlari		Ochiq usulda qazib olishda		
	Yer osti usulida qazishda	Gorizontal va yotiq	Qiya va o‘ta qiya		
Juda yupqa	0,7gacha	-	-	0,6 gacha	
Juda kichik qalinlik	-	3-5gacha	15-20 gacha	-	
Yupqa	0,71-1,2	-	-	0,6-2	
Kichik qalinlik	-	6-20	25-75	-	
O‘rtacha qalinlik	1,21-3,5	20-40	75-100	2-5	
Qalin	>3,5	-	-	5-20	
Juda qalin	-	-	-	>20	
Katta qalinlik	-	>40	>100	-	

Foydali qazilma yotqiziqlarining yotish elementlari o‘ta o‘zgaruvchan bo‘lib, ko‘mir konlarida ular ruda konlariga nisbatan sezilarli darajada kamroq o‘zgaradi, ruda konlarida esa, yotish elementlari keng miqyosda o‘zgaradi.

**Mavzu: Ruda va yondosh jinslarning fizik-mexanik tavsifi.**

**Reja:**

1. Ruda va yondosh jinslarning barcha fizik-mexanik xususiyatlari.
2. Kon jinslari massivini turg‘unligi.
3. Rudaning tuzulishi.
4. Rudani konditsion bo‘lagi.
5. Zichlanish va oksidlanish. Namlik sig‘imi

**Mavzu bo,,yicha tayanch iboralar:** ruda va yondosh jinslarning barcha fizik-mexanik xususiyatlari, kon jinslari massivini turg‘unligi, rudaning tuzulishi, rudaning konditsion bo‘lagi, zichlanish va oksidlanish, namlik sig‘imi.

ruda va yondosh jinslarning barcha fizik-mexanik xususiyatlaridan qattiqlik va turg‘unlik qazib olish tizimini va qazish texnologiyasini tanlashga ko‘proq ta‘sir ko‘rsatadi.

Kon jinslarini mahkamligini aniqlash uchun ko‘pgina fizik-mexanik xususiyatlarni birgalikda aniqlash talab etiladi bular: ruda va yondosh jinslarning qattiqligi, yopishqoqligi, darzliligi, qavat-qavatliligi, oralarida boshqa jinslar aralashib qolganligi va qatlamchalar mavjudligidir. Jinslarni bu xususiyatlari qazib olish tizimini, mashina va asboblarni tanlashda, konchilik mashinalarini ish unumdarligini va konchi ishchilarini mehnat unumdarligi ko‘rsatkichlarini belgilashda, materiallar sarflanishi va qazilmani tannarxini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Kon jinslari qattiqlik koeffitsientini birinchilardan bo‘lib tasnifagan taniqli olim M.M.Protod‘yakanov bo‘lib, uning tasnifi amaliyotda va adabiyot darsliklaridan keng o‘rin olgan.

Kon jinslari fizik-mexanik xususiyatlariga bog‘liq holda kon ishlarini alohida ishlab chiqarish jarayonlari, masalan: burg‘ilash, portlatish ishlariga tadbiq etish uchun materiallar sarflash me‘yoriy ko‘rsatkichlarini tasnifi mavjud.

Foydali qazilma konlarini yer osti usulida qazib olishda ruda va yondosh jinslarning turg‘unligi muhim ahamiyatga ega.

Turg‘unlik - jinslar massoviy tagi va yon tomonini qazib olib ochiq yuza hosil qilganda, uning ma‘lum muddatgacha o‘pirilib tushmasdan ship qismini butunligini saqlab turish xususiyati. Ruda va yondosh jinslar turg‘unligini aniqlash qazib olish tizimini turg‘unlashda, ruda massivi va yondosh jinslarni qazishdan hosil bo‘lgan bo‘shliqni o‘pirilmasdan turish muddatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega .

Ba‘zi bir jinslarni ostki qismida katta o‘lchamdagи maydon yuzasini ochganda ham yillab, o‘n yillab o‘zini turg‘unligini saqlab qoladi, ikkinchi tur jinslarda alohida qismlarnigina maxkamlash talab etiladi, uchinchi xil jinslar esa uning tagida kichik maydon yuzasi ochilganda ham, mustahkamlagich o‘rnatish

talab etiladi, yana boshqa xil jinslarda esa umuman ochiq yuza qoldirishga yo‘l qo‘yilmaydi, qazish ishlarini mustahkamlagichsiz olib borish mumkin emas.

Kon jinslari massivini turg‘unligiga, ularning fizik-mexanik hususiyatlaridan tashqari, tashqi sharoitlar ham ta‘sir etadi, masalan, kon lahimini yer yuzasiga nisbatan joylashish chuqurligi, gorizontga nisbatan qazish ishlarini yo‘nalishi, lahimlarni shakli va ko‘ndalang kesim yuzasini o‘lchamlari. Turg‘unlik darajasi bo‘yicha ruda va yondosh jinslar beshta guruhga bo‘lishadi:

**1. Eng past turgunlikka ega bolgan jinslar.** Odatda bunday jinslarda qoqib kiritiladigan ilgarilovchi mahkamlagichlar o‘rnataladi. Ruda konlarini qazib olishda bunday jinslar (loyqa, sochiluvchan, ezilgan va suv bilan tushgan jinslar) juda kam uchraydi.

2. Turg‘un emas. Kichik o‘lchamdagisi yuzani ochiq qoldirishga imkon beradi, rudani qazib olish bilan uning orqasidan mahkam mustahkamlagich o‘rnatish talab etiladi.

3. O‘rtacha turg‘un. Shipni deyarli katta o‘lchamdagisi yuzasini ochiq qoldirib, qisqa muddatda mustahkamlamasdan qazib olishga imkon beradi.

4. Turg‘un. Deyarli katta o‘lchamdagisi ship va yondosh jinslar yuzasini ochiq qoldirish mumkin, lekin alohida joylarni mahkamlash talab etiladi.

5. Nihoyatda turg‘un. Ship va ochilgan yonlarni katta o‘lchamdagisi yuzani uzoq muddat mustahkamlagichsiz ochiq qoldirishga yo‘l qo‘yiladi. Bunday jinslar nisbatan kamroq uchraydi.

Kon jinslarini turg‘unligini baholash uchun o‘pirilish harakatini bilish muhim ahamiyatga ega, birdaniga o‘piriladimi yoki sekin astami yoki qatlamlanib-mi, tashqi ko‘rinishidan o‘pirilish yuzaga kelishligini uning o‘lchamlarini oldindan ko‘ra bilish va o‘pirilish belgilarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Kon jinslarini turg‘unligini baholash uchun o‘pirilish harakatini bilish muhim ahamiyatga ega. Ko‘pincha jinslar yuzasini ochilgandan so‘ng o‘pirilish belgilari sezilmaydi, lekin vaqt o‘tishi bilan, kon bosimi o‘lchamlarini o‘zgartirishi va atmosfera omillari ta‘sirida turg‘unligini yo‘qotib, o‘pirilish yuzaga kelishi mumkin.

**Rudaning tuzulishi.** Ruda massasi tuzulishi bo‘yicha salmoqdor, yaxlit-zich, darzliklarsiz, boshqa jinslar qo‘shilmagan, qavat-qavatlangan bo‘lib, ularni yumshoq deb, birini ikkinchisidan farqlanadi.

Qo‘porilgan ruda massasi bo‘laklarining o‘lchami uning granulometrik tarkibini xarakterlaydi, ya‘ni yirik bo‘laklarini umumiy qo‘porilgan ruda massasiga nisbati bilan aniqlanadi.

Ruda bo‘laklarini har xil gradatsiyasi (bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishdagi izchillik) mavjud bo‘lib, eng oddiy, qulay gradatsiyasi quyidagicha:

**Ruda maydasi** – ruda changidan ko‘ndalang kesim yuzasi 100 mm gacha bo‘lgan ruda bo‘lagi. Tomirli konlarni qazib olishda ba‘zan rudani saralab, undan puch jinslar massasini ajratadi. Bunda maxsus saralamaydigan gradatsiyani o‘lchami 50 mm dan kichik.

**Ruda bo“lagi o“rtacha kattalikda** – ruda o‘lchami 100 dan 300 mm gacha.

**Katta bo“lakli ruda** – 300 mm dan 600 mm gacha.

Juda katta ruda bo‘laklari – 600 mm dan katta.

Ruda bo‘laklarining o‘lchami qo‘poriladigan ruda massivini fizik-mexanik xususiyatlariga: uning tuzilishiga, qo‘porib olish usuliga, portlatiladigan shpurlar va skvajinalarning diametriga, ularning joylashtirilishiga, portlovchi moddaning turiga, portlash usuliga va boshqa omillarga bog‘liq.

**Rudani konditsion bo“lagi** deb, yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan o‘lchamdag‘i bo‘lak bo‘lib, yuk tashiydigan sig‘imlarga qazilgan joyidan olib bevosita yuklash imkoni bo‘ladigan o‘lchamdir. Ruda konlarini yer osti usulida qazib olishda uning o‘rtacha o‘lchami 300 mm dan 700 mm gacha bo‘ladi, ba‘zan 1000 mm ga ham yetishi mumkin.

**Ruda maydalanishi.** Rudani massivdan ajratgandan so‘ng bo‘laklarga bo‘lib, parchalash natijasida qo‘porilgan rudani umumiy hajmi ko‘payadi. Ko‘paygan ruda hajmini uning massivda turgandagi hajmiga nisbati **maydalanish koeffitsienti** deyiladi. Maydalanish koeffitsienti bir turdag‘i ruda va jinslarda 1,2 dan 1,6 gacha o‘zgarish mumkin ko‘pirtirilgan ruda massasi vaqt o‘tishi bilan zichlanib, uning maydalanish koeffitsienti kamayadi (zichlanish hisobiga).

**Zichlanish.** Katta miqdordagi qo‘porilgan ruda massasini uzoq vaqt harakatsizlik holati, uning zichlanib yotib qolishi natijasida yoppasiga qiyin ajraladigan massaga aylanadi. Zichlanib yotib qolishga moillik ruda tarkibida tuproqqa o‘xshagan yopishqoq mayda zarralarning mavjudligidir. Rudaning zichlanib qolish xususiyati uni qazib olishda ko‘pgina qiyinchiliklar tug‘diradi.

**Oksidlanish.** Oksidlangan rudaning ko‘porilgan holatda uzoq vaqt saqlanishi, uni boyitish jarayonida ruda minerallarini ajratib olish koeffitsientini pasayishiga olib keladi.

**Rudani o“z-o“zidan yonuvchanligi.** Bu xususiyat tarkibiy qismida oltingugurt ko‘p bo‘lgan kolchedanli rudalarga taalluqli, oltingugurt qo‘porilgan rudani qizdiradi natijada ruda o‘z-o‘zidan yonadi. Yer osti yong‘ini sul‘fidli rudalarni yonishidan hosil bo‘lib, uni o‘chirish katta qiyinchiliklarga olib keladi, bu o‘z navbatida korxonaga katta zarar keltiradi. Bunday yong‘in xavfsizlik qoidalariga to‘liq rioya qilinmalik sababli yuzaga keladi.

**Namlik sig‘imi.** Ruda tabiiy holatda va qo‘porilib parchalanganda suvli, namli va quruq ko‘rinishda bo‘ladi. Rudani suvliligi rudadagi suv miqdori va rudani tarkibiga suv singuvchanligiga bog‘liq bo‘lib, bu suv miqdori  $1 \text{ m}^3$  hajm rudadagi suvning hajmi bilan o‘lchanadi.

Rudani namligi uning zichlanib qolishiga ta‘sir etadi, qish vaqtida esa muzlab qolishini tezlashtiradi.

## MA“RUZA №5

### ***Mavzu: Er osti kon laxmlari..***

***Reja:***

1. Ochuvchi kon lahimplari.
2. Tayyorlovchi kon lahimplari.
3. Vertikal kon lahimplari.
4. Gorizontal kon lahimplari.
5. Qiya kon lahimplari

***Dars maqsadi:*** talabalarda er osti kon atamalarini, er osti kon laxmlari, haqida nazariy bilim va konikmalarni shakllantirish.

***Mavzu bo,yicha tayanch iboralar:*** Er osti kon laxmlari, vertikal kon lahimplari, gorizontal kon lahimplari, qiya kon lahimplari, kamera va qazish lahimplari.

Foydali qazilmalardan turli maqsadlarda foydalanish faqat ular massivdan ajratib olinib Yer yuziga chiqarib berilgandan so‘nggina amalga oshirilishi mumkin.

Foydali qazilmalarni qazishga tayyorlash, massivdan ajratib olish, tashish, Yer yuziga chiqarish va boshqa jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar majmui **kon ishlari** deyiladi.


Yer qobig‘ida kon ishlarini olib borish natijasida foydali qazilma tanasi va kon jinslari orasida sun‘iy bo‘shliqlar hosil bo‘ladi. Bu bo‘shliqlar **kon lahimplari** deb yuritiladi.

Kon lahimplari bajaradigan vazifalariga ko‘ra razvedka va kon qazish (ekspluatatsion) lahimplarga ajratiladi.

Konlarni qazib chiqarish 3 ta bosqichdan tashkil topadi: konni ochish, shaxta maydonini qazishga tayyorlash va bevosita foydali qazilmani qazib olish. SHunga ko‘ra ekspluatatsion kon lahimplari ham uchga, ya‘ni kapital (kon ochuvchi), kon tayyorlov (zahirani bir qismini qazishga tayyorlovchi) va qazish (foydali qazilmani bevosita qazib olishga tegishli) lahimplarga bo‘linadi.

O‘tilgan joyga nisbatan kon lahimplari ochiq va Yer osti kon lahimplariga ajraladi. Ochiq kon lahimplari Yer yuzida, Yer osti lahimplari esa - kon jinslari orasida barpo etiladi.

Yer qobig‘ida joylashishi bo‘yicha kon lahimplari **vertikal, gorizontal** va **qiya** bo‘lishi mumkin. Ular bevosita Yer yuzi bilan tutashgan va tutashmagan bo‘lishi mumkin. (6.1-rasm)



**6.1 -rasm. Kon lahimi**lari: 1-shtolnya; 2-vertikal stvol; 3-qiya stvol; 4-gezenk; 5-shurf; 6-qiya shurf; 7-kvergshlag; 8-shtrek; 9-maydon shtregi; 10-prosek; 11-yo'lak; 12-bremsberg; 13-odam yuradigan yo'lak; 14-uklon; 15-qazish kavjoyi.

### Vertikal kon lahimi

Vertikal kon lahimi stvollar, gezenklar, shurflar, ko'r stvollar, ruda tushirgichlardan tashkil topgan bo'lib, ularning ayrimlari yer yuzi bilan bevosita tutashgan va ayrimlari tutashmagan bo'ladi.

Vertikal stvol – bevosita yer yuzi bilan tutashdigan va konni ochish uchun o'tiladigan kon lahimi.

Stvollar bosh va yordamchi bo'lishi mumkin. Bosh stvol, shaxtadan (rudnikdan) qazib olingan foydali qazilmani yer yuziga chiqarib berishda xizmat qiladi. Yordamchi stvol esa odamlar, materiallarni, uskunalarni shaxtaga tushirish va yer yuziga ko'tarish, shaxtani shamollatish kabi ishlarni bajarishga xizmat qiladi.

Stvolning yer yuzi bilan tutashgan joyini stvol og'zi va uning stvol atrof inshootlari gorizontidan pastdag'i qismini zumf deyiladi.

Vertikal stvollar aylana, to'g'rito'rtburchak yoki ellipsimon ko'ndalang kesim yuzali bo'lishi mumkin.

Ko'r stvol – yer yuzi bilan bevosita tutashmaydigan, yuklarni pastki gorizontdan yuqori gorizontga ko'tarish mashinalari yordamida chiqarib berishga xizmat qiladigan vertikal kon lahimi. Ko'r stvollar bosh stvol orqali ochilgan so'nggi gorizontdan pastda joylashgan foydali qazilmani ochish uchun barpo etiladi.

Gezenk – bevosita yer yuzi bilan tutashmaydigan, foydali qazilma va boshqa yuklarni o'z og'irlik kuchi ta'sirida yuqoridan pastga tushirishga xizmat qiladigan vertikal kon lahimi.

Shurf – yer yuzi bilan bevosita tutashdigan, uncha chuqur bo'lмаган va kichik ko'ndalang kesim yuzaga ega bo'lган vertikal kon lahimi.

Shurflar konlarni razvedka qilish, shaxta va rudniklarni shamollatish, materiallarni shaxta ichiga tushirish kabi ishlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ruda tushirgich – yer yuzi bilan bevosita tutashmaydigan yoki tutashadigan, kichik ko‘ndalang kesim yuzasiga ega bo‘lgan va yuqori gorizontdan pastki gorizontga qazib olingan rudani o‘z og‘irlik kuchi ta‘sirida tushirishga xizmat qiladigan vertikal kon lahimi (ayrim hollarda qiya bo‘lishi ham mumkin). Agar foydali qazilma koni faqat yer osti usulida qazib olinadigan bo‘lsa, rudatushirkich yer yuzi bilan tutashmaydi. Konning yuqori qismi ochiq usulda, pastki gorizontlari yer osti usulida qazib olinadigan hollarda rudatushirkich yer yuzi bilan ochiq kon laximlari orqali tutashadi.

### **Gorizontal kon lahimplari.**

Shtolnyalar, kvershlaglar, shtreklar, proseklar, ortlar va tonnellar gorizontal kon lahimplari bo‘lib, ularning ba‘zilari konni ochuvchi, ba‘zilari esa, konni qazishga tayyorlovchi lahimplar hisoblanadi.

Shtolnya – bevosita yer yuzi bilan tutashadigan gorizontal kon lahimi. SHtolnya konlarni razvedka qilish yoki foydali qazilma yotqizig‘ini ochish maqsadida barpo etiladi.

Tunnel – har ikki tomoni Yer yuzi bilan bevosita tutashadigan Yer osti gorizontal kon lahimi bo‘lib, asosan, transport ishlarini bajarishga xizmat qiladi.

Kvershlag – kon yotqiziqlari (qatlamlari) cho‘ziqligiga perpendikulyar o‘tkaziladigan, yer yuzi bilan bevosita tutashmaydigan gorizontal kon lahimi. Kvershlaglar odatda, ochuvchi kon lahimplari sirasiga kiradi va qazib olingan foydali qazilmalarni, materiallarni, ishchilarni, uskunalarni tashish bilan bir qatorda shaxtani shamollatish ishlariga xizmat qiladi.

Shtrek – yer yuzi bilan bevosita tutashmaydigan gorizontal kon lahimi bo‘lib, shaxta maydonidagi foydali qazilma zahirasining bir qismini qazishga tayyorlash uchun barpo etiladi. SHtreklar kon yotqizig‘i qiya joylashgan bo‘lsa, u holda faqat yotqiziq (qatlam) cho‘ziqligi bo‘yicha, gorizontal joylashgan bo‘lsa, istalgan yo‘nalishda o‘tilishi mumkin. SHtreklar bajaradigan vazifalariga nisbatan bosh, oraliq, tashish, shamollatish, konveyer va boshqa nomlar bilan yuritiladi.

Prosek – Yer yuzi bilan bevosita tutashmaydigan, shtrekka parallel o‘tiladigan gorizontal kon lahimi. Prosek shtrekni o‘tish davrida uni shamollatish va kesma ishlarini bajarish maqsadida o‘tiladi.

Ort – qalin ko‘mir qatlamlari yoki ruda yotqiziqlarining gorizontal qalinligi bo‘yicha o‘tiladigan gorizontal kon lahimi.

Tutashtirma – bir-biriga yaqin joylashgan qiya lahimplarini o‘zaro tutashtiruvchi gorizontal kon lahimi.

Gorizontal kon lahimplari ko‘ndalang kesim yuzi to‘g‘rito‘rtburchak, trapetsiyasimon, qiyiq burchakli, gumbazsimon, aylana va boshqa shakllarda bo‘lishi mumkin.

## **Qiya kon lahimlari.**

Qiya kon lahimlari bevosita yer yuzi bilan tutashishi va tutashmasligi mumkin. Bevosita yer yuzi bilan tutashadigan qiya konlarni qiya shurf, qiya stvol, qiya shtolnya kabi lahimlar tashkil qiladi. Bu qiya lahimlar konni ochuvchi kapital lahimlar bo‘lib, konni ochuvchi vertikal lahimlar orqali bajariladigan barcha ishlarni bajarishga xizmat qiladi.

Bremsberglar, uklonlar, sirpanmalar, yo‘laklar va pechlar Yer yuzi bilan bevosita tutashmaydigan qiya kon lahimlaridir.

Bremsberg - yer yuzi bilan tutashmaydigan qiya kon lahimi, mexanik qurilmalar yordamida yuqori gorizontdan qazib olingan foydali qazilmani pastki gorizontga tushirishga xizmat qiladi.

Uklon – yer yuzi bilan bevosita tutashmaydigan qiya kon lahimi. Pastki gorizontdan qazib olingan foydali qazilmani yuqori gorizontga mexanik uskunalar yordamida chiqarib berishga xizmat qiladi.

Sirpanma (skat) – yer yuzi bilan bevosita tutashmaydigan qiya kon lahimi. Yuqori gorizontdan qazib olingan foydali qazilmani pastki gorizontga o‘z og‘irlik kuchi ta‘sirida tushirishga xizmat qiladi.

Yo‘lak – yer yuzi bilan bevosita tutashmaydigan, bremsberg yoki uklonning bir tomoni yoki har ikki tomonidan ularga parallel o‘tiladigan qiya kon lahimi. Yo‘laklar odamlar yurishi, materiallarni tashish, shaxtani shamollatish va boshqa yordamchi ishlarni bajarishga xizmat qiladi.

Pech – Yer yuzi bilan bevosita tutashmaydigan qiya kon lahimi. Pechlar, odatda foydali qazilma qatlami bo‘ylab, uning qalnligi orasidan o‘tiladi. Ular odamlar yurishi, uskuna va materiallarni tashish va boshqa yordamchi ishlar uchun xizmat qiladi.

Ko‘tarma (vosstayuшиy) – Yer yuzi bilan bevosita tutashmaydigan qiya (ayrim hollarda vertikal) kon lahimi bo‘lib, asosan ruda konlarini qazib olishda ish joylarini shamollatish, foydali qazilma va boshqa yuklarni yuqoridan pastga, o‘z og‘irlik kuchi ta‘sirida tashishga xizmat qiladi.

## **Kamera va qazish lahimlari**

Ko‘ndalang kesim yuzasiga nisbatan uncha uzun bo‘lmagan kon lahimlari kamera deb yuritiladi. Kameralar, odatda, stvol atrofida barpo etiladi. SHu sababli kameralar majmuini stvol atrof inshootlari (qo‘rasi) deyiladi. SHaxta va rudniklarda kameralarga suv chiqarish qurilmalari, elektrovoz va vagonchalar deposi, Yer osti elektr podstansiyasi, meditsina punkti kabi xizmat ko‘rsatuvchi bo‘linmalar joylashtiriladi.

Bevosita foydali qazilma yotqizig‘ini qazib olish uchun barpo etiladigan kon lahimlari **qazish lahimlari** deyiladi. Qazish ishlari boshlanadigan qazish lahimlarining yuzasi kavjoy (zaboy) deb ataladi. Ko‘mir shaxtalarida kavjoy katta uzunlikka ega bo‘lsa, uni lava deb yuritiladi.

Qazish ishlariiga mo‘ljallangan burg‘i-quduqlar (skvajinalar) va kameralar ham qazish lahimlari hisoblanadi.

## MA“RUZA №6

### **Mavzu: Ruda konlarini ochish va tayyorlash.**

**Reja:**

1. Ruda konlarini ochish.
2. Ruda konlarini tayyorlash.
3. Ruda konlarini ochish usullarining asosiy sxemalari.

**Mavzu bo,,yicha tayanch iboralar:** Ruda konlarining yotqiziqlari, ruda konlarini ochish usullari, tayyorlash sxemasini tanlash, ruda konlarini tik stvollar, shtolnyalar yordamida ochish usullari, ruda konlarini ochishga qo\_yiladigan talablar.

**Shtol”nya** - gumbazsimon, trapetsiya ko‘rinishida va kam hollarda to‘g‘ri to‘rtburchakli shaklda bo‘lib, shtol‘nyaning og‘zi tamon 0,001-0,008 qiyalik bilan o‘tiladi.

Shtol‘nyaning uzunligi bir necha kilometrga etishi mumkin. Masalan: Oltin Topgan konidagi transport shtol‘nyasining uzunligi 2 km, Sadon rudnidagi Mizur shtol‘nyasining uzunligi 4 km dan ortik, AQSHdagi Neysheal tonnel mis konidagi ochuvchi shtol‘nyaning uzunligi 7 km dan ham ko‘proq.

Shtol‘nya konni ochuvchi lahimi sifatida shaxta stvoliga nisbatan qator afzallikkarga ega, ular quyidagilar:

-1 metr shtol‘nyani o‘tish va mustahkamlashga sariflanadigan harajatlar (yer osti suvining miqdoriga bog‘liq holda) 5-7 barobar arzon, lahimni o‘tish tezligi esa 3-5 barobar yuqori;

-rudani transport vositasida tashish oddiy va arzon, rudani shtol‘nyadan boitish fabrikasiga qadar qayta yuklamasidan keltirish mumkin, kishilar harakatlanishi va yuk tashish xavfsizroqdir;

-suvni chiqarishga sariflanadigan harajatlar ancha kam, suvni haydashga maxsus mexanizmlar talab kilinmaydi, o‘zi oqib chiqadi;

-shtol‘nya og‘ziga yaqin joyda quriladigan inshoatlar ham kam, ko‘targich qurilmasi va binosi qurish talab qilinmaydi;

-shtol‘nya mustahkamlagichini ta‘mirlash ham oson va arzon turadi.

**Shaxta stvollari** ko‘ndalang kesim yuzasi to‘g‘ri-to‘rtburchakli, doirasimon va juda kam hollarda boshqa shakllarga ega bo‘ladi. Hozirgi davrda ko‘pchilik rudniklarda shaxta stvollari doirasimon qurilmoqda.

Stvollarning ko‘ndalang kesim yuzasining o‘lchamlari ularning vazifasiga bog‘liq holda belgilanadi. Kapital stvollar odatta ruda va jinslarni ko‘tarish, kishilarni shaxtaga tushirib chiqarish, mustahkamlovchi materiallarni tushirish va shaxtani shamollatishga xizmat qiladi. Shu stvoldan shaxta suvini chiqarishga va siqilgan havo energiyasini yuborishga xizmat qiladigan metal quvirlar ham joylashtiriladi. Ba‘zan stvollar faqat ruda va jinslarni ko‘tarishga, yoki kishilarni tushirib chiqarishga, yoki faqat shamolatishgagina mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin.

Qo‘llaniladigan bosh lahimlarning turlariga ko‘ra ochish usullari quydagicha guruhlarga bo‘linadi: tik stvollar bilan, qiya stvollar bilan, shtol‘nyalar va kombinatsiyalashtirilgan usullar bilan ochiladi. Birinchi uch usulni oddiy ochish usuli guruhiiga birlashtirish mumkin.

Ochuvchi bosh lahimplarni: kon bo‘ylab, rudaning yotgan, yoki osilgan yondosh jinslaridan yoki shaxta maydonining chetlaridan o‘tish mumkin. Foydali qazilma puch jinslaridan yoki rudadan, ruda tanasini kesib o‘tuvchi lahimlar bilan ham ochilishi mumkin.

### **Ruda konlarini ochish usullarining asosiy sxemalari.**

#### Oddiy usullari:

1. Kondagi ruda yotqizig‘ining osilgan va yotgan yonlaridan yoki chegaralaridan tik shaxta stvollari bilan ochish.
2. Kondagi ruda yotqizig‘ining osilgan va yotgan yonlaridan va chegaralaridan qiya shaxta stvoli bilan ochish.
3. Kondagi ruda yotqizig‘ining osilgan va yotgan yonlaridan shtol‘nya bilan ochish.

#### Kombinatsiyalashtirilgan usullari:

1. Yer yuzasidan tik shaxta stvoli tik ko‘r stvolga o‘tish yo‘li bilan konni ochish.
2. Yer yuzasidan tik shaxta stvoli qiya ko‘r stvolga o‘tish yo‘li bilan ochish.
3. Yer yuzasidan qiya stvol qiya ko‘r stvolga o‘tish yo‘li bilan ochish.
4. Shtol‘nya tik ko‘r stvolga o‘tish yo‘li bilan ochish.
5. Shtol‘nya qiya ko‘r stvolga o‘tish yo‘li bilan ochish.


### **Konni tik stvollar bilan ochish.**

Foydali qazilma tanasi (qatlami) tikka yaqin joylashgan konlarni tik stvollar bilan ochishda, bosh stvol va shaxta maydonining chegaralarida joylashgan yordamchi stvollar kon jinslarining siljish ehtimoli bo‘lgan zona tashqarisiga joylashtiriladi (4.5-rasm). Bosh stvolning har-bir garizontidan ochilayotgan kondagi ruda yotqizig‘iga qadar kvershlaglar o‘tiladi, ruda tanasi bo‘ylab esa yordamchi stvollarga qadar shtreklar o‘tiladi. Rudali konni bunday ochish usuli konchilik sanoatida keng tarqalgandir. O‘zbekiston Respublikasidagi ko‘pchilik rangli va nodir metall konlari MDX davlatlaridagi konlarga o‘xshash, ruda tanasini yotgan yoniga joylashtirilgan tik va ko‘r stvollar bilan ochilgan.

Osilgan yonlardan ochuvchi tik stvollar o‘tish usuli ham qo‘llaniladi, chunki bu usulda kvershlaglarining umumiy uzunligi yotgan yonlardagiga nisbatan odatda ancha uzun bo‘ladi.

Bu usul ayrim holatlarda qo‘llaniladi, rudani yotgan yon tmonida suv juda ko‘p bo‘lib, ular turg‘un bo‘lmagan holatda, yoki stvol yotgan yon tomoniga joylashtirish er rel‘efi, yer yuzasi transporti qatnashi, yer yuzasi maydonida

qurilish ishlarini amalga oshirishga xalaqt bergqn hollarda qo‘llaniladi.




7.1-rasm. Vertikal stvollar bilan ochish sxemasi: 1 – yuqori qavat tashish shtreki; 2 – pastki qavat tashish shtreki; 3 – tashuvchi kvershlag; 4 – vertikal stvolni konning osma tarafidagi holati; 5 – bosh stvol; 6 – yordamchi stvol.

Ba‘zan shaxta maydoni qanotlaridan birida joylashgan tik stvol bilan ochiladi (7.1-rasm). Bu holatda u yordamchi stvol vazifasini bajaradi.

Konni qanot qismidan ochish usilining afzalligi bitta yordamchi stvol o‘tish bilan kifoyalanish imkonи mavjudligidur.

Bu ochish usulining kamchiligi, ochish masofasi uzayadi yer osti transportining narxi yuqori bo‘ladi, tayyorlanish ishlari, konni shamollatishni murakablashtiradi. Agar shaxta maydonida tugallangan qurilish mavjud bo‘lsa va boshqa sabablarga ko‘ra konni qanot qismidan ochishdagi kamchilikdan ko‘ra uning afzalligi yuqori bo‘lgan holatda bu usul qo‘llaniladi.

Garizontal va salgina qiya joylashgan garizontal yo‘nalishidagi o‘lchamlari katta bo‘lgan konlarni tik stvollar bilan ochish ikki usulda amalga oshirilishi mumkin (7.2-rasm). Birinchi holatda tik stvol ruda tanasini kesib o‘tadi. Ikkinci holatda esa stvol siljis zonasini tashqarisiga joylashtiriladi, bunda o‘lchamlari uzun bo‘lgan kvershlaglar o‘tishga to‘g‘ri keladi.




7.2-rasm. Konni kesib o‘tuvchi tik stvollar bilan ochish sxemasi.

Ruda tanasining cho‘ziqligi bo‘yicha o‘lchamlari katta, garizontal va salgina qiya joylashgan konlarni ochishda ruda tanasini kesib o‘tuvchi tik stvollar bilan ochish usuli keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Bunda chuqur bo‘lmagan konlarda ochuvchi lahimlar va qoldiriladigan muhofazalovchi saqlovchi butunliklar o‘lchami kata bo‘lmaydi.

### **Qiya stvollar bilan ochish.**

Konni qiya stvollar bilan ochishda, yotgan yonidagi jinslardan kon yotqizig‘iga paralel qiya stvol o‘tilib, undan ruda tanasiga kvershlaglar o‘tiladi (7.3-rasm). Kvershlaglarning uzunligi tik stvollar bilan ochilgandagi kvershlaglar uzunligiga nisbatan ancha qisqa bo‘ladi. Agar kon yotqizig‘ining og‘ish burchagi qancha kichik bo‘lsa va chuqurligi bo‘lsa kvershlaglar uzunligi o‘rtasidagi farqi shuncha sezirarli bo‘ladi. Konning qanot qismidan o‘tkaziladigan yordamchi stvollar ham bu holda qiya yoki tik joylashgan bo‘lishi mumkin.

Kon yotqizig‘i bo‘ylab qiya stvollar bilan ochilganida kvershlaglar utilmaydi va stvolni o‘tish tan narxi qazib olingan yo‘ldosh ruda hisobiga qisman arzonlashadi. Ammo, bu usulda stvolning turg‘unligini ta‘minlsh uchun, muhofazalovchi saqlovchi butunliklarni stvolning har ikkala yonlarida ham qoldirilishini taqozo etadi. Qazib olish chuqurlinigining ortib borishi bilan bunday saqlovchi butunliklarning kengligi ham ortib boradi. Ruda tanasi yupqa, etarli darajada razvedka qilinmagan salgina qiya va qiya, joylashish chuqurligi kichik bo‘lgan ruda tomirlarini qazib olishda konni qiya stvollar bilan ochish maqsadga muvofiq kelishi mumkin.



7.3-rasm. Konni yotqizilgan yonidan qiya stvol bilan ochish sxemasi: 1-bosh kutaruvchi stvol; 2-konning qanotida joylashgan qiya yordamchi stvol; 3-siljish zonasining chegarasi.

Qiya stvollar bilan konni ochishning asosiy kamchiligi, uning qo‘llanish doirasi cheklanganlidir.


Ruda va jinslar massasini ko‘tarish mashinasi yordamida skip yoki vaganotkalar jrqali amalga oshiriladi. Konni ochuvchi stvollarning og‘ish burchagini bu holatda  $10^{\circ}$  dan  $30^{\circ}$  gacha bo‘lgan qiyalikda bo‘lishi maqsadga muvofiq keladi. Konni qiya stvol bilan ochganda rudani ko‘tarish uchun stvol konveyer transporti bilan jixozlangan bo‘lsa uning qo‘llanish doirasi anchagina kengaygan bo‘lar edi.

«Erinton» (Kanada) temir konida yordamchi skip-kletli stvol bilan (7.4-rasm) birga ruda ko‘taradigan qiya stvol ham o‘tilgan. Qiya stvol lentali konveyer tizimi bilan jixozlangan bo‘lib konveyerning uzunligi 1300 metr, maydalangan rudani yer yuzasiga konveyerda chiqaradi. Konveyerning joylashgan qiyalik burchagi  $16^{\circ}$  ish unumdorligi 400 t/soatni tashkil etadi.

Pastki garizontlarda (chuqurligi 850 m) rudani pog‘onali konveyer transporti tizimida ko‘tarish loyhalangan bo‘lib maxsus qiya stvollar (3,4,5) kon jinslarining siljish ehtimoli bo‘lgan zona tashqarisidan o‘tilgan. Ruda tashiladigan konveir transportining umumiyligi uzunligi 4800 metr, yuk tashiladigan garizontlarda ham elektravozli transportni, keyinrok konveyer transporti bilan almashtirish nazarda tutilgan.

«Bauers Kembell» (AQSH) rudnigada Rux-ruda koni spiral simon joylashgan qiya stvol bilan ochilgan bo‘lib uning og‘ish burchagi  $9-10^{\circ}$  dan iborat. Spiral simon trassanining uzunligi 1420 metr bo‘lib mahkam turg‘un jislardan o‘tilgan. U ruda tanasi atrofini 3,5 marta aylangan. Rudani kovjoyidan boyitish fabrikasining ruda bunkeriga qadar avtomobil transportida tashiydi.

Konveyer bilan tashiganda qiyalik burchagi odatda  $16-20^{\circ}$  dan yuqori emas, lekin maxsus konveyer qo‘llanilsa stvolning qiyalik burchagi yuqori bo‘lishi ham mumkin. Masalan: «Klareks-Sente» (AQSH) gips rudnigida kon qiya stvol bilan ochilgan bo‘lib uning og‘ish burchagi  $30^{\circ}$  bo‘lib, lentali konveyer bilan jixozlangan. Lentaning eni 800 mm, bu turdagи konveyerda og‘ish burchagi  $40^{\circ}$  bo‘lgan stvolda ham qazilmalarni tashib chiqarish mumkin. Ko‘p garizontli (qavatli) konlarni qazib chiqarishda lentali konveyer transportini qo‘llash iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lishi ham mumkin.



7.4-rasm. «Erinton» rudnigining ochish sxemasi: 1 - qiya stvol (1 navbat); 2 - yordamchi stvol; 3, 4, 5 - konveyerli ko‘tarish tegishlicha ikkinchi, uchunchi va to‘rtinchи navbati; 6 – bo‘lajak drenaj garizontlari; 7 – bo‘lajak qabul qiluvchi garizontlar; 8 - drenaj garizonti; 9 - qabul qiluvchm garizont.

Shuni aytish kerakki Artem nomidagi (Krivbasda) rudnigini qiya stvol bilan ekspluatatsiya qilish tajribasi shuni ko'rsatdiki chuqur garizontlardan rudani konveyer transportida ko'tarish, skipli ko'tarish usuliga nisbatan ko'p kapital va ekpluatatsiya harajatlari talab etilganligi sababli konveyer transportida rudani ko'tarish maqsadga muvofiq emasligi aniqlangan. Konveyer transportida ko'tarish 1-2 garizontli ruda konlarini ekspluatatsiya qilishda skipli ko'tarish usuliga nisbatan iqtisodiy jihatdan samaralidir.

### **Konni shtol"nyalar bilan ochish.**

Konni shtol'nyalar bilan ochish boshqa ochish usullariga nisbatan qator afzaliklarga ega, shuning uchun yer yuzasi rel'efi va konning yotqizilish sharoiti shtol'nya bilan ochishga imkon bersa, bu usul qulayligi bilan o'zining samadorligini ko'rsatadi.


Shtol'nya ruda tanasining yotqizig'iga nisbatan quydagicha joylashtirilishi mumkin: ruda tanasining cho'ziqligi bo'yicha yoki ruda tanasini cho'ziqligiga ko'ndalang.

Ruda tanasining qalinligi yubqa bo'lган konlarni ochishida uning tanasining cho'ziqligi bo'yicha ruda bo'ylab o'tkaziladi, ruda tanasi juda qalin bo'lган konda shtol'nya odatda ruda tanasiga parallel ravishda yondosh jinslardan o'tqazilib undan ruda tanasiga qadar kvershlag

yoki ortlar (ort-zaezdlar) o'tkaziladi. Shtol'nyani ruda tanasining osilgan yoki yotgan yonlaridan biriga joylashtirish rуданing cho'ziqligiga nisbatan ko'ndalang ochilsa tog yon bagri holatiga qarab aniqlanadi.

Konning shtol'nya joylashtirilgan yuza satxidan yuqorisida bo'lган qismini odatda bir necha qavatlarga bo'lib qazib olinadi, shuning uchun konni ochishga ikki xil usul qo'llanilishi mumkin.

Birinchi usulda har bir qavat alohida shtol'nyalar bilan ochilishi mumkin. Bu shtol'nya garizontni shamollatish, materiallar tashib keltrish, rudamas jinslarni chiqarish va kishilar harakatlanishiga xizmat qiladi. Ruda pastki garizontga ruda tushiriladigan maxsus lahim orqali tushiriladi (7.5-rasm).



7.5-rasm. Ruda tanasining cho'ziqligi bo'yicha konni ochish sxemasi:

1 - yon jinslardan o'tkazilgan kapital shtol'nya; 2 - puch jinslar agdarmasi; 3 - qavatdagиrudadan o'tilgan shtol'nya; 4 - ruda tushiriladigan lahim; 5 - kvershlag.

Ikkinchı usulda eng pastki qismida bitta kapital shtol'nya o'tkaziladi, bu usulda ruda tanasining joylashish sharoitiga ko'ra har bir qavatda uzun o'lchamdagı shtol'nyalar yondosh jinslardan o'tkazilishi kerak. Shtol'nya satxidan yuqorisida joylashgan qavatlar kapital vosstayushiy yoki yer yuzasiga chiqmaydigan shamolatuvchi stvollar o'tilib, ular narvon bo'lishi va kletlar bo'limlaridan iborat bo'lishi mumkin. Yuqori qavatlardagi rudani tushirish uchun bir necha ruda tushiruvchi lahimlar o'tiladi.


Shtol'nya usulida konni ochish «Apatit» ishlab chiqarish birlashmasining rudniklarida apatita-nefilin rudalarini qazib olishda, «Rasvungarri» rudnigida kon zahirasi ko'ndalang kesim yuzasi  $36\text{ m}^2$  uzunligi 5 km bo'lgan shtol'nya bilan ochilib, rudani ruda tushiruvchi lahimlardan pastki garizontga tushiriladi. Ruda tushiruvchi lahimlarning diametri 5-6 metr, chuqurligi 130-600 metrni tashkil etadi.

Olmaliq kon metallurgiya kambinatiga qaraydigan «Oltin-topgan» koni qator shtol'nyalar bilan ochilgan bo'lib, ruda kapital transport shtol'nyaga ruda tushiruvchi lahimlar orqali tushuriladi. Uning chuqurligi 50-80 m deametri 5-6 metrni tashkil qiladi. Transport shtol'nyaning uzunligi 2 km.

Shtol'nyalar og'zini shunday joyga joylashtirish kerakki unga bahorgi, kuzgi yomgir, sel suvlari kira olmaydigan bo'lishi, shtol'nya og'ziga yaqin sanoat maydonchasining o'lchami unga joylashtiriladigan bino inshoatlarini qurishga etarli maydonchaga, keladigan transport yo'li qulay joylashgan bo'lishi kerak. Oxirgi shartni bajarish imkonni bo'lмаган holda rudani shtol'nya maydonidan po'lat arqonli qurilmada yoki konveyerlarda tashish mumkin.

#### **Koni kombinatsiyalashtirilgan usulda ochish.**

Kombinatsiyalashtirib ochish usullarining mohiyati shundan iboratki, konning yuqori qismi bitta ochuvchi bosh lahim bilan ochilsa, pastki qismi esa boshqa lahim bilan ochilib rudani har ikkala ochuvchi lahimlaridan chiqarish mumkin.



7.6-rasm. Konni tik pogana simon sxema bilan ochish: 1-stvol (yer yuzasidan o'tkazilgan); 2-ko'r stvollar.


Bunday ochish usuli ruda tanasi katta chuqurlikda joylashgan bo'lsa, rudani bitta stvoldan ko'targanda berilgan qazib chiqarish quvvatini ta'minlash imkonini bo'limganda qo'llash maqsadga muvofiq keladi.

Konning yer yuzasidan 1200 m chuqurlikgacha bo'lgan qismi tik stvol bilan ochilsa, uning pastki qismi yer yuzasiga chiqmaydigan tik yoki qiya ko'r stvollar bilan ochiladi (7.6rasm).

Yer yuzasidan o'tilgan stvolning chuqurligi, bitta stvolda maksimal yo'l qo'yilgan ko'tarish balandligi bilan aniqlanadi. Ochishning ikkinchi pog'anasi yer yuzasiga chiqmaydigan ko'r stvol bilan odatda 600-1200 m chuqurlikgacha bo'lgan qismida amalga oshiriladi. Pog'onali ochish usuli shaxtaning ish umumidorligini oshirishdan tashqari, pastki (chuqurdagi) garizontlardagi kvershlaglar uzunligini qisqartirish imkonini yaratadi.

Pog'onali ochish usuli «Champion-Rif» oltin konida (Hindiston) qo'llanilgan bu erda tik stvol yer yuzasidan 1976 metr chuqurlikgacha o'tilib, uning pastki qismi 2 ta tik joylashtirilgan yer yuzasiga chiqmaydigan ko'r stvol bilan 3300 m bo'lgan chuqurlikgacha ochilgan. Bosh stvolda yuk ikki qavatli kletda ko'tariladi. Kletga 50 kishi, yoki har birining sig'imi 1.25 t bo'lgan 4 ta vagonetka joylashtiriladi, konning osilgan yonidan bir necha yordamchi stvollar o'tilgan.

«Mak-Intayr» (Kanada) konining rudnigi yer yuzasidan tik stvol bilan 1175 m chuqurlikdagi garizontga qadar ochilib pastki qismi yer yuzasiga chiqmaydigan 2 ta ko'r stvollar bilan 2200 m chuqurlikgacha ochilgan (7.6-rasm). Kon tomirli ruda bo'lib, og'ish burchagi  $70-80^\circ$ . Uchta stvolning hammasi ham skipipli va kletli ko'tarish qurilmalari bilan jixozlangan. Qiya va salgina qiya joylashgan konning chuqur garizantlarini ochishda konning osilgan yon qismidan tik stvollar o'tilib, rudani yotgan qismidan esa qiya stvol o'tqazilgan (7.7-rasm).




7.7-rasm. Chuqur garizontlarni kombinatsiyalashtirib tik va qiya stvollar bilan ochish: 1 - tik stvol; 2 - qiya stvol; 3 - qiya ko'r stvol.

Janubiy Afrika respublikasining chuqur oltin rudniklarida 2 asosiy variatlarni qo'llash keng tarqalgan:


1. Konni qazib olish boshlanganida uning yuqori qism 600 m chuqurlikgacha tik stvollar bilan ochilib (7.7-rasm, a), ruda tanasining yotgan yonidan qiya ko'r stvol o'tilib mustaqil ko'tarish qurilmasi bilan jixozlangan. Qiya ko'r stol o'tishning asosiy sababi kvershlaglar uzunligini qisqartirishga intilish natijasidir
2. Kon yer yuzasidan qiya stvol bilan ochilib (4.11-rasm, b), stvolning uzunligi katta o'lchamga etganida tik stvol yordamida bir pog'onali ko'tarish ikki pog'onali, qiya va tik orqali ko'tarish sxemasi bilan almashtirgan.

Tik stvolning qiya stvol bilan kesishish sxemasi 78-rasmda ko'rsatilgan. Qiya ko'r stvolning ko'taruvchi mashinasi, mashina kamerasiga (1) o'matilgan. Rudani skipda ruda tushiruvchi lahimga (4) va bunkerga (3) keltiriladi. U joydan tik stvol skipiga (2) yuklanadi.

Tog'li joylarda shtol'nya satxidan pastki qismida joylashgan konni kombinatsiyalashtirilgan usulda ochish sxemasi qo'llaniladi. Bu holda shtol'nyaning pastki qisminini ko'r stvol bilan ochish sxemasi qo'llaniladi (7.9-rasm).



7.8-rasm. Tik stvolning qiya stvol bilan kesishish sxemasi.



7.9-rasm. Shtol'nya va ko'r stvollar bilan ochish sxemasi.

4.13-rasmida konning yuqori qismi ikkta kapital shtol'nya bilan (1), pastki qismi ruda yotqizig'iga tik joylashtirilgan tik ko'r stvol bilan (2) yoki qiya stvol (3) bilan ochish sxemasi ko'rsatilgan.

***Mavzu: Mustahkamlagich materiallari.***

***Reja:***

1. Mustahkamlagich materiallari.
2. Yog‘och va metall mustahkamlagich.
3. Ankerli mustahkamlagich
4. Monolit beton mustahkamlagich.
5. Tyubingli mustahkamlagich.

***Mavzu bo,,yicha tayanch iboralar:*** G‘o‘la, taxta, brus, garbil, po‘lat profillari monolit beton beton ankerli metall tyubingli

Ruda konlarining yotqiziqlari, ruda konlarini ochish usullari, tayyorlash sxemasini tanlash, ruda konlarini tik stvollar, shtolnyalar yordamida ochish usullari, ruda konlarini ochishga qo\_yiladigan talablar.

Kon mustahkamlagichlarini tayyorlashda ishlatiladigan materiallar mustahkamlagich materiallari hisoblanadi.

Mustahkamlagich materiallariga qo‘yiladigan asosiy talablar: material yuqori pishiqlikka, ya‘ni o‘zining massasiga nisbatan ancha ko‘p bo‘lgan yuk bosimiga vaqtincha qarshilik ko‘rsatish sifatiga ega bo‘lishi kerak; serob va arzon bo‘lishi lozim; o‘tga chidamli yoki engil alangalanmaydigan bo‘lishi shart; zanglamaydigan va chirimaydigan bo‘lishi kerak. Hozirgi vaqtda shaxta va rudniklarda kon lahimlarini mustahkamlashda mustaxkamlagich materiallari sifatida yog‘och, metall, beton, temir-beton, tabiiy va sun‘iy toshlar, shuningdek, polimer materiallaridan foydalilanadi.

Kon lahimlarini mustahkamlashda yog‘och materiallari boshqalarga nisbatan ko‘proq qo‘llaniladi. Chunki yog‘och o‘z massasiga nisbatan pishiqlik bo‘lib, osonlikcha qayta ishlanadi va nisbatan arzon bo‘ladi. SHu bilan bir qatorda, yog‘och mustahkamlagich materiallari yonish xususiyatiga ega, chirishga moilligi tufayli ishslash muddati qisqa bo‘lishi kabi kamchiliklardan ham holi emas.

Yog‘och mustahkamlagich materiallari sifatida g‘o‘la, brus, taxta, garbil va shu kabilardan foydalilanadi.


G‘o‘la - uzunligi 5 dan 9 m gacha bo‘lgan, yuqori uchining diametri 12 sm va undan katta bo‘lgan daraxt tanasining bo‘lagi.

Brus - ko‘ndalang kesim yuzasi to‘g‘ri to‘rtburchak, kengligi qalinligiga teng yoki undan ikki barobar katta bo‘lgan arralangan yog‘och material.

Taxta - kengligi qalinligidan kamida ikki barobar katta bo‘lgan arralangan, uzun yog‘och mustahkamlagich materiali.

Garbil - daraxt tanasini arralab taxta yoki brus olinganda uning(daraxt tanasining) chetidan chiqqan bir tomoni tekis, ikkinchi tamoni sferik shakldagi yog‘och material.


Bo‘yi 0,5 m dan 5 metrgacha, yuqori uchining diametri 7 dan 30 sm gacha bo‘lgan g‘o‘la shaklidagi yog‘och shaxta (rudnik) ustuni deyiladi.



8.2 Rasm. Qirqilgan yog'ojch turlari  
 a- raspil, b- brus, v-taxta, z-qirqilmagan taxta; d- garbil

Metall o'zining yuqori pishiqligi, qayta-qayta ishlatalishi mumkinligi, uzoq vaqt xizmat qila olishi, yong'indan xavfsizligi kabi qator xususiyatlarga ko'ra konchilik amaliyotida mustahkamlagich materiali sifatida keng qo'llanilmoqda.

Kon lahimlarini mustahkamlashda cho'yan va po'lat quymalaridan, po'lat profillaridan foydalilanadi. SVP (специальный взаимозаменяемый профиль)-tipidagi profillarning quiagi turlarii islab chiqariladi 14, 17, 19, 22, 27 va 33 kg/m.



8.1 Rasm. (SVP) Maxsus profil

Maxsus profil balkalarining tasnifi

### 8.1-Jadval

Profil	Og'irligi 1 m, kg	Kesim yuzasi, sm <sup>2</sup>	O'r Ichamlari, mm						
			B	b	M	m	H	$\delta$	h
SVP17	17.6	21.73	131.5	91.5	60	51	94	8,5	23
SVP19	19.2	24.44	136	94	60	51	102	9,5	24
SVP22	21.9	27.91	145.5	99.5	60	51,5	110	11	25,5
SVP27	26.98	34.37	149.5	99.5	59,5	50,6	123	13	29
SVP33	33.40	42.53	166	PO	66,5	56	137	14,5	33

Beton mustahkamlagich yuqori pishiqlikka ega, uzoq muddat xizmat qiladigan, yonmaydigan va nisbatan arzon mustahkamlagich material hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida tabiiy toshlar konchilikda mustahkamlagich materiali sifatida juda kam qo'llaniladi.

Beton bloklar, pishiq g‘isht kabi suniy toshlar kapital kon lahimplarini mustahkamlashda qo‘llanadi.

Polimer mustahkamlagich materiallaridan oynoplastik, plastikbeton, ko‘mirplast kabi sintetik kimyoviy tarkibiga ega bo‘lgan sun‘iy materiallardan ham kon lahimplarini mustahkamlashda foydalanmoqda.


### Kon lahimplari mustahkamlagichi.

Kon lahimi atrofini o‘rab turgan kon jinslarini lahim ichiga qulab tushmasligi, uning ko‘ndalang kesim yuzasini va ishslash qobiliyatini saqlashni ta‘minlash maqsadida o‘rnatiladigan sun‘iy inshoot kon mustahkamlagichi deb ataladi.

Kon mustahkamlagichi yog‘ochdan, metalldan, monolit beton va temir-betondan barpo etilishi mumkin. Ruda konlari lahimplarini mustahkamlashda, ayrim hollarda anker mustahkamlagichlardan ham foydalaniladi.

Yog‘och mustahkamlagichlar asosan ishslash muddati qisqa (2-3yil) va kon bosimi mo‘tadillashgan asosan gorizontal, qisman qiya lahimplarda qo‘llaniladi. Yog‘och mustahkamlagichlar to‘g‘ri to‘rburchak, aksariyat hollarda esa trapetsiyasimon shakldagi to‘la bo‘lmagan mustahkamlagich romlardan tashkil topadi.

Romlar lahimning uzunlik o‘qiga tik ravishda bir-biriga tirband yoki bir-biridan biroz masofada o‘rnatilishi mumkin (0,5-1,0 m). Agar romlar orasida ma‘lum masofa qoldirilgan bo‘lsa, u holda romlar oralig‘iga ikki yoni va tepasi bo‘ylab toqilar teriladi. Toqilar lahim shifti va yon tomonlaridagi jins bo‘laklarini lahim ichiga qulab tushishidan saqlaydi.



(rasm2.3).

2.3-rasm. Yog‘och mustahkamlagichning konstruksiyasi: 1-to‘sin; 2-ustun; 3-toqi; 4-tiralma.


Yog‘och mustahkamlagich romlari diametri 20-25 mm g‘o‘lalardan barpo etiladi. Mustahkamlagich ustunlarning ostki uchi qoziqsimon qilib tayyorlanadi va ular zaminda 10-20 sm chuqurcha hosil qilib o‘rnatiladi. Ustun uchining qoziqsimon bo‘lishi mustahkamlagichni biroz eziluvchan bo‘lib, kon bosimiga moslashishini ta‘minlaydi.

Trapetsiyasimon romlar ustunlarini gorizontga nisbatan 80-85° burchak ostida o'rnatiladi. Agar lahim osti(zamin) qabarish xususiyatiga ega bo'lsa, u holda ustunlar tagsinchga o'rnatiladi. Bunday romlar to'la rom deb yuritiladi. Agar lahim yon devorlari mustahkam bo'lsa, ustunsiz mustahkamlagichdan foydalaniladi. Bunda lahim yon devorlari tepasida, shift ostida har ikki tomonda chuqurcha hosil qilinadi va to'sin chuqurchalarga kiritib o'rnatiladi.

Lahimning qiyaligi 30 gradusdan ortiq bo'lsa, uni to'la mustahkamlagich romlari bilan mustahkamlanadi va qo'shni to'sin hamda tagsinchlar o'rtasiga tiralmalar o'rnatiladi. Bu esa romlarning surilib ketishini oldini oladi.

Metall mustahkamlagichlar uzoq muddat ishlashi, mustahkamligi va ta'mirlash xarajatlari kamligi tufayli konchilik amaliyotida keng qo'llanilmoqda. Metall mustahkamlagichlar trapetsiyasimon, arkali va aylana shaklida, shuningdek, eziluvchan yoki qat'iy (ezilmaydigan) bo'lishi mumkin.


Qat'iy trapetsiyasimon mustahkamlagich romi, asosan, dvutavr balkasi yoki relsdan yasaladi. Bunday mustahkamlagichga biroz eziluvchanlik xususiyatini berish maqsadida ustunlar g'o'la yog'och tagliklar ustiga o'rnatiladi (2.4-rasm).



2.4-rasm Qat'iy metall mustahkamlagich romi


Konchilik korxonalarida qat'iy mustahkamlagich bilan bir qatorda maxsus egiluvchanlik konstruksiyasiga ega bo'lgan metall mustahkamlagichlardan keng foydalaniladi. Bularga MPK-1T,KMP-T,MTPSH rusumli mustahkamlagichlar misol bo'la oladi.

Shaxtalarda uch yoki besh bo'g'inli arkali metall mustahkamlagichlar ko'proq qo'llaniladi. Bo'g'inlarning asosiy vazifasi dastlabki kon bosimini qabul qilishda mustahkamlagichga ko'proq eziluvchanlik xususiyatini berishidir. 2.5-rasmida uch bo'g'inli eziluvchan arkali mustahkamlagichning romi ko'rsatilgan.




2.5-rasm. Uch bo\_g'inli maxsus profillardan tashkil topgan arkali mustahkamlagich:  
1- metall ustunlar; 2-yuqori segment; 3-to\_sinni ustunlarga bog'lovchi xomut. 4-gaykali planka; 5-bog'lovchi.

Kon lahimiga barcha tomonlaridan kuchli bosim ta'sir etadigan, buning ustiga uning zamini qabarish xususiyatiga ega bo\_lsa, bunday lahimlarni to\_rt yoki olti bo\_g'inlik aylana shaklidagi metall mustahkamlagichlar bilan mustahkamlanadi (2.6-rasm).




Monolit beton va temirbeton mustahkamlagichlar, asosan, uzoq muddat ishlaydigan qazish zonalaridan tashqarida bo\_lgan gorizontal, vertikal va qiya kapital (konni ochuvchi) lahimlarni mustahkamlashda qo\_llanadi. Stvol atrof inshootlari va kameralari ham asosan monolit beton bilan mustahkamlanadi. 2.6-rasm. Eziluvchan g'ildiraksimon (halqasimon) metall mustahkamlagich. Monolit beton mustahkamlagichlarining asosiy konstruksiyasi vertikal devor va gumbazsimon yopqichdan (gorzontal va qiya lahimlarda), silindr shaklidagi beton mustahkamlagichidan (vertikal lahimlarda) tashkil topadi. SHaxtalarda vertikal kon bosimining lahimga ta'siri kuchliroq bo\_lganligi tufayli, ko\_pincha vertikal devorli va gumbazsimon yopqich shaklidagi monolit beton mustahkamlagichidan foydalilaniladi (2.7-rasm). Eziluvchan yoki qat'iy (ezilmaydigan) armaturali monolit temir-beton mustahkamlagichi ham ikki devor, gumbazsimon yopqich va poydevordan tashkil topadi. Monolit beton mustahkamlagichlari bilan bir qatorda shaxta va rudniklarda yig'ma temir-beton mustaxkamlagichlardan ham keng foydalilaniladi.



2.7-rasm. Monolit beton mustahkamlagichi.

Yig‘ma temir-beton mustahkamlagichlarning elementlari zavodlarda tayyorlanib, kon lahimlariga keltiriladi va bu erda yig‘ib lahimni mustahkamlanadi. Yig‘ma temir-beton mustahkamlagichlar ishlash muddati uzoq va kon bosimi mo‘‘tadillashgan kapital kon lahimlarini mustahkamlashda qo\_llanadi. 2.8-rasmda konchilik korxonalarida keng qo\_llanadigan trapetsiyasimon va arkasimon shakldagi temir-beton mustahkamlagichlar ko\_rsatilgan.



2.8-rasm. Yig‘ma temirbeton mustahkamlagich.a – trapetsiyasimon;b - sidirg‘asiga tyubinglarda yasalgan arkasimon.


Konlarni Yer osti usulida qazib oluvchi korxonalar amaliyotida monolit beton mustahkamlagichlarining yana bir turidan foydalaniladi.

Mustahkamlagichning bu turi sepma beton mustahkamlagichi deb yuritiladi. Bu mustahkamlagich foydali qazilmani qazish zonasidan tashqarida joylashgan kapital va kon-tayyorlov lahimlarini mustahkamlashda qo\_llanadi. Lahimlar darzdorlik darjasasi kichik bo\_lgan pishiq jinslardan o\_tilgan bo\_lishi kerak. Lahim o\_tilgandan so\_ng uning yon devorlari va shifti bo\_ylab, maxsus mashinalar yordamida beton qorishmasi sepiladi. Uning qalinligi 50-300 mm bo\_lishi mumkin (to\_ldirgich materiallari bo\_laklarining o\_lchami 25 mm dan oshmasligi shart). Beton aralashmasini tayyorlashda yuqori rusumli (400 dan kam bo\_lmagani) sement, beton qotishini tezlashtiruvchi material sifatida xlorli kalsiy, suyuq oyna va boshqa materiallardan foydalaniladi.

Ankerli mustahkamlagich turli usullar orqali shpurga (skvajinaga) o\_rnatiladigan sterjen (anker) bo\_lib, lahim shifti va yon tomonlaridagi bo\_shok(darzdor) jins qatlamlarini buzilishdan yoki deformatsiyalanishidan saqlaydi. Ankerning diametr 20 mm va uzunligi 0,6 metrdan 3 metrgacha bo\_ladi.

Shpur yoki skvajinaga mustahkam o\_rnatilish tomoyillariga ko\_ra barcha ko\_rinishdagi ankerli mustahkamlagichlar ikki guruhga bo\_linadi: qulfli – skvajinaning tub qismiga turli konstruksiyaiga ega bo\_lgan qulflar yordamida mustahkam o\_rnatiladigan va qulfsiz – skvajinaning bor bo\_yicha sement, smola yoki boshqa yopishtiruvchi moddalar bilan mustahkamlaydigan ankerli mustahkamlagichlar.

Zamonaviy konchilik korxonalarida qulflı metall ankerlar keng qo'llanilmoqda. Bu ankerlar pona yoriqli, kengayuvchi va kengaymaydigan turlarga bo'linadilar. (2.9rasm)



2.9-rasm. Ankerli mustahkamlagich.  
 a - mustahkamlagichning lahimga o'rnatilgan holati; b va v – ponayoriqli va kengayuvchan ankerlar konstruksiyasi.

## MA“RUZA №8

**Mavzu: Gorizontal kon laxmlarini ko„ndalang kesim yuzasi shakli va ulchamlari. Kon lahimlarini o„tish usullari.**

**Reja:**

1. Gorizontal kon lahimlarining ko\_ndalang keim yuzasi, shakli va o\_lchamlari.
2. Kon lahimlarini o\_tish.

**Mavzu bo„yicha tayanch iboralar:** to\_g\_ri burchakli, trapetsiyasimon, to\_g\_ri burchakli svod, nahalsimon, aylana shakl, kon lahimining mustahkamlagich ichki va tashqi tomoni bo‘yicha, hamda o\_tishdagi maydoni, kon lahimi o\_lchamlari bo\_yicha qoldiriladigan masofalar.

Gorizontal kon lahimlarining ko\_ndalang kesim yuzasi shakllari kon bosimi kattaligi va uning yunalishiga, mustahkamlagichlar konstruksiyasiga, kon lahimi xizmat qilish muddati va o\_lchamlariga bog\_liq bo\_ladi. Kon ruda qazib olish sanoatida asosan kon lahimlari ko\_ndalang kesim yuzasining to\_g\_riburchakli, trapetsiyasimon, to\_g\_ri burchakli svod shakllari qo\_llaniladi. Ko\_mir sanoatida esa yuqorida sanab o\_tilganlardan tashqari nahalsimon va aylana shakllari ham qo\_llaniladi.

*To\_g\_riburchakli* shakl kon bosimi faqat ship tomondan ta’sir qilib yon tomonlarda bo\_lmagan, ramali yoki aralash mustahkamlagichlar o\_rnatilganda qabul qilinadi. Kon lahimlari turg\_un tog\_jinslaridan o\_tilganda to\_g\_riburchakli shakl eng qulayi hisoblanadi.


*Trapetsiyasimon* shakl kon bosimi asosan ship tomondan bo\_lib yon tomonlardan unchalik kuchli ta’sir qilmagan hollarda tanlanadi. U rudnik va priysklarda sochilma konlarni qazib olishda keng tarqalgan.

*To\_g\_ri burchakli-svod* shakli kon lahimlari monolit beton, chaplamabeton, ankerlar, kombinatsiyalashgan mustahkamlagichlar mustahkamlanganda va mustahkam turg\_un tog\_jinslardan mustahkamlagichsiz o\_tilganda qo\_llaniladi. Korob va yarim aylana shaklidagi svod ship tomondan ta’sir qiluvchi katta o\_lchamdagisi bosimni qabul qilib, uni kon lahimining yonlariga taqsimlash imkoniyatiga ega.


*Nahalsimon* shakl ship va zamin tomondan kon bosimi ta‘siri katta, yon tomonlardan unchalik katta bo\_lmagan, lahim tosh-blokli, barcha tomonlari yopiq arkali mustahkamlagichlar bilan mustahkamlanganda qo\_llash maqsadga muvofiq.

*Aylana* shakl lahim yumshoq va noturg‘un tog‘ jinslaridan o\_tilib, kon bosimi barrcha tomondan ta‘sir qilib, lahim barcha tomonlari yopiq mustahkamlagichlar bilan mustahkamlangan hollarda qo\_llaniladi.

Gorizontalkon lahimlarining ko\_nalang kesim yuzasi maydoni mustahkamlagich ichki va tashqi tomoni, hamda lahimni o\_tishdan keyingi yuzalarga bo\_linadi. Mustahkamlagichning ichki tomoni bo\_yicha maydoni ballast qatlami va odamlar harakatlanadigan yo\_lakchadan kon lahimining mustahkamlagichgacha bo\_lgan masofalari bilan aniqlanadi.



Trapetsiyasimon



To\_gi burchakli-svod.

Mustahkamlagichning tashqi tomoni bo\_yicha maydoni kon lahimini o\_tishdagi loyixaviy maydoniga tengdir. Bu maydonni aniqlashda mustahkamlagichning ichki tomoni bo\_yicha maydoniga mustahkamlagi, ballast qatlamasi va odamlar harakatlanadigan yo\_lakcha maydoni qo\_shiladi. Kon lahimini o\_tishda hosil bo\_lgan haqiqiy maydon odatda loyihaviy maydondan 3-5 % va ko\_proq oshib ketadi.

Mustahkamlagichning ichki tomoni bo\_yicha ko\_ndalang kesim yuzasi o\_lchamlari kon lahimining vazifasiga bog\_liq bo\_ladi. Ular harakatlanuvchi sostav o\_lchamlariga va temir yo\_llar soniga; konveyrlar eniga yoki yukovchi-tashuvchi mashinalar o\_lchamlariga bog\_liq holda aniqlanadi. Bundan tashqari, texnika xavfsizligi bo\_yicha qoldiriladigan oraliq masofalarini, shuningdek, odamlar harakatlanish usullari va shamollatish uchun kon lahimidan o\_tadigan havo miqdorini hisobga olish kerak.

Relisli transportlar qo\_llanilganda yo\_lning to\_gi qismida harakatlanuvchi sostav o\_lchamlari bilan mustahkamlagich orasidagi masofa monolitbeton va temirbeton mustahkamlagich qo\_llanilganda 200 mm dan kam, boshqa turdag'i (yogoch, metall) mustahkamlagichlar qo\_llanilganda esa 250 mm dan kam bo\_lmasligi kerak.

Kon lahimida relsli yo\_llar mavjud bo\_lganda odamlar harakatlanishi uchun 700 mm dan kam bo\_lmag'an yo\_lak qolidirilishi ko\_zda tutiladi, bu masofa trapdan (ballast qatlamidan) 1800 mm balandlikkacha saqlanib turilishi kerak.

Kon massasini kontaktli elektrvozlar bilan tashish nazarda tutilgan kon lahimlarini loyihalashda, akkumulyatorli elektrovozlardan foydalanilgan hollarda yo\_lakcha tomonidan qoldiriladigan masofa 750 mm bo\_lishi belgilab qo\_yiladi.

Kishilar harakatlanadigan yo\_lak tomonidan siqilgan havo va suv o\_tishi uchun turboprovodlar joylashtirilgan (ballast qatlamidan 1800 mm balandlikdan pastda yoki yo\_lovchi tashish poezdlar odamlarni tushirib-chiqaradigan joylarda) hollarda yo\_lak tomonidan qoldiriladigan masofa 300 mm ga kengaytirilishi nazarda tutiladi.

Ikki yo\_lli lahimlarda, vagonetkalarni ulash, ajratish va boshqa qo\_shimcha harakatlar (manevrlar) amalga oshiriladigan joylarda odamlar harakatlanishi uchun har ikkala tomondan ballast qatlamidan 1800 mm balandlik bo\_yicha 700 mm dan masofa qoldirish nazarda tutiladi.

Kon massasi elektrovozlar bilan tashiladigan lahimlarining burilish joylarida kishilar harakatlanishi uchun burulishning sirt tomonida qoldiriladigan masofa 300 mm ga ichkari tomonidan qoldiriladigan masofa esa 100 mm ga kengaytiriladi.

Ikki relsli yo\_llarning to\_g\_ri chiziqli hududlarida o\_qlar orasidagi masofa 200 mm dan kam bo\_lmagan holda qabul qilinadi. Burilish joylarida esa yo\_llar orasidagi masofa 300 m ga kengaytiriladi.

Kon lahimlarining mustahkamlagich ichki tomoni bo\_yicha balandligi rels tepadan 2000 mm dan kam bo\_lmasligi kerak (kantrakt simining osilib turish balandligi 1800 mm dan kam bo\_lmasligini inobatga olgan holda). Kontakt simi va ramali mustahkaligichgacha bo\_lgan minimal masofa 200 mm ga teng bo\_ladi. Odamlarni tushirib-chiqaradigan joylarda va stvol oldi hovlisi lahimlarida kontakt simining osilib turish balandligini mos ravishda 2000 va 2200 mm o\_lchamda qabul qilinadi.

Konveyerlar bilan jihozlangan lahimlarda o\_tish uchun bir tomondan 700 mm ikkinchi tomondan 400 mm masofa qoldiriladi. Konveyerning yuqori qismidan mustahkalagichgacha bo\_lgan masofa 500 mm dan kam bo\_lmasligi kerak.

Maydalangan tog\_ jinislari skreperlar yordamida etqazib berilganda skreperlash yo\_lagi odamlar harakatlanadigan yo\_lakdan 1000 mm balandlikgacha to\_sinlar bilan ajratiladi. Skreperlar harakatlanganda to\_sinlarni qimirlatib yubormalsgi uchun zamindan 500 mm balandlikgacha yog\_och taxtalar bilan mahkamlanadi.

O\_ziyurar mashinalar qo\_llanilganda kon lahimlarining o\_lchamlari (mustahkamlagichning ichki tomoni bo\_yicha balandligi va eni) er osti rudniklarida o\_ziyurar mashinalardan foydalanish xovfsiligi Yo\_riqnomasi talablarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Zaruriy masofalar quyida keltilrilganlardan kichchik bo\_lmagan o\_lchamlarda qabul qilinadi:

- kon lahimi shipi turg\_un bo\_lgan yoki mustahkamlangan sharoitda, yuklash-etqazib berish qurilmasi ishlayotganda mashinisti o\_tirg\_ichidan lahim shipigacha bo\_lgan maksimal masofa, m ..... 1,3

- mashinaning qismlari bilan kon lahimi shipigacha bo\_lgan eng yaqin oraliq masofa, m ..... 0,5

- transport vositalari qismlari bilan lahim devorlari (mustahkamlagich) orasidagi eng yaqin masofa, m:

  - odamlar o\_tadigan tomondan ..... 1,2

  - qarama qarshi tomondan ..... 0,5

- balandligi 0,3 m va eni 0,8 m bo\_lgan piyodalar yurish yo\_lakchasi mayjud yoki har 25 m nishalar o\_tilganda odamlar harakatlanadigan tomondan qoldiriladigan minimal masofa, m ..... 1

- nishalarning minimal o\_lchamlari, m: balandligi..... 18  
eni ..... 12  
chuqurligi ..... 0,7
- odamlar harakatlanmaydigan lahimlarda transport vositalari tezligiga bog\_liq holda transport vositalari va lahim devorlari orasidagi minimal masofalar (m), km/s:  
 $\leq 10$ ..... 0,5  
 $> 10$ ..... 0,6
- lahim zaminidan uning butun kengligi bo\_yicha erkin harakatlanadigan minimal balandlik, m..... 1,8

Bu lahimlarning burilish joylaridagi o\_lchamlari lahim burilish raduisi, o\_ziyurar mashinalarning ichki va tashqi burilish radiuslariga bog\_liq holda aniqlanadi. Burilish joylarda kon lahimlarini kengaytirish odariy hollarda 300—500 mm.ni tashkil qiladi.

Gorizontalkon lahimlarini o\_tish usuli tog\_jinslari fizik-mexanik xossalari, lahim shipi va yon tomonlaridagi jinslarning mustahkamligi va suvchanligiga bog\_liq bo\_ladi.

Kon lahimi chegaralari mustahkamligiga bog\_liq holda ikkita asosiy utish usuli mavjud:

1. kon lahimlarini mustahkam tog\_jinslaridan o\_tish, yani oddiy sharoitda;
2. kon lahimlarini nomustahkam (sochiluvchan, suzuvchi va kuchli suvchan) tog\_jinslaridan o\_tish.

Ikkinci usul maxsus usulda yoki murakkab gidrogeologik sharoitda o\_tish deyiladi. Maxsus usul kon lahimiga suv kelishini bartaraf qilish uchun qo\_shimcha ishlar talab qilinsa mustahkam tog\_jinslarida ham qo\_llaniladi.

Kon lahimlari bir tarkibli qattiq yoki muzlagan, bir tarkibli yumshoq va bir tarkibli bo\_lmagan tog\_jinslaridan oddiy usulda o\_tiladi. Bir tarkibli bo\_lmagan deb lahim zaboyida fizik-mexanik xsusiyatlari har xil bo\_lgan tog\_jinslariga aytildi.

Kon lahimlari zaboyi ko\_ndalang kesim yuzasi o\_lchamlariga bog\_liq holda yoppasiga yoki qatlamlarga bo\_lgan holda (yani zaboy ikkita qatlamga bo\_linadi va ularning biri ikkinchisidan oldinlab boradi) o\_tiladi. Zaboylar Gorizontalyoki vertikal qatlamlarga bo\_linishi mumkin.

Tog\_jinslarining qatriqligiga bog\_liq holda ularni o\_yib olish usullari tanlanadi.  $f > 4$  va doimiy muzlagan tog\_jinslarida hozirgi vaqtida asosan burg\_ulash portlatish usuli qo\_llaniladi. Qatriqligi nisbatan past bo\_lgan tog\_jinslarida burg\_ulab portlatishdan tashqari kambaynlar va gidromexanizatsiya vositalari yordamida konlahimlari o\_tilishi mumkin.

## MA“RUZA №9

### **Mavzu: Gorizontalkon lahimlarini yumshoq, qatraq va muzlagan tog,, jinslaridan o\_,tish.**

**Reja:**

1. Gorizontal kon lahimlarini yumshoq jinslaridan o\_ tish.
2. Gorizontalkon lahimlarini muzlagan tog\_ jinslaridan o\_ tish.

**Mavzu bo,,yicha tayanch iboralar:** yumshoq jinslar, muzlagan tog\_ jinslar, to\_g\_ri burchakli, trapetsiyasimon, to\_g\_ri burchakli svod, nahalsimon, aylana shakl, kon lahimining mustahkamlagich ichki va tashqi tomoni bo‘yicha, hamda o\_tishdagi maydoni, kon lahimi o\_lchamlari bo\_yicha qoldiriladigan masofalar.

Kon lahimlarini o\_tishda qo\_llaniladigan qurilmalar va texnologiyalarga qarab ularni o\_yib olish bolg\_ alari yordamida, burg\_ ulash-portlatish usulida, kombaynlar yordamida,gidromexanizatsiya va kombinatsiyalashgan o\_tish usullariga bo\_lishi mumkin. O\_tish usullari tog\_ jinslarining gidrogeologik sharoitlarga, qatlarning qalinligiga, turg\_unligiga, qatraqligiga va boshqa fizik-mexanik xossalari boq\_ liq holda aniqlaniladi. Kon lahimlari ko\_ndalang kesim yuzasi shakli tog\_ jinlari xussusiyatlari va holati, kon bosimi kattaligi va yo\_nalishiga, kon lahimining xizmat qilish mudati va mustahkamlagich konstruksiyasiga bog\_ liq bo\_ladi.

Ko\_pchilik holatlarda kon lahimlarini qatlamlarga ajraluvchi va qo\_lashga moyil tog\_ jinslaridan o\_tishiga to\_g\_ri keladi. Agarda tog\_ jinslari turg\_un bo\_lsa kon lahimi ko\_ndalang kesim yuzasi to\_g\_ri to\_rrtburchakli svod shaklida bo\_lib, shu bilan bir qatorda svod shakli tabiiy saqlanuvchi svod shakliga moslanadi.

Sochma konlarning noturg\_un jinslariga, kon bosimi nisbatan kichik bo\_lganida va kon lahimining xizmat muddati kam bo\_lganida yog\_och mustahkamlagichlaridan foydalanish keng tarqalgan. SHuning uchun, kon lahimi ko\_ndalang kesim yuzasi asosan to\_g\_ri burchakli trapetsiyasimon ayrim hollardagina egri burchakli va ko\_p burchakli bo\_ladi.

Kon lahimlarining ko\_ndalang kesim yuza shakli yon tomonlardan kon bosimi ta’sir qilmagan hollarda, trapedsiya shakli esa nafaqat vertikal balki unchalik katta bo\_lmagan yon tomonlama bosim ta’sir qilganda qo\_laniladi.

Kon bosimi notejis, egri burchaklar ostida ta’sir qilgan sharoitda, shuningdek, foydali qazilma qatlarning yotish elementlarini hisobga olgan holda ayrim hollarda kon lahimi ko\_ndalang kesim yuzasi nisbatan murakkab egri burhakli shakllar hosil qiladi.

Agarda tog\_ jinslari noturg\_un yoki etarlicha turg\_un bo\_lmasdan kon lahimlarining xizmat muddati katta bo\_lsa, u holda ularni mustahkamlash uchun metall, beton yoki temirbetondan foydalaniladi. Bu holatda metall mustahkamlagich qo\_llanilganda kon lahimi ko\_ndalang kesim yuzasining shakli trapetsiyasimon, arkasimon yoki aylana bo\_lishi, beton va temirbeton bilan mustahkamlanganda esa to\_g\_ri burchakli svod, aylana yoki nahalsimon shaklda bo\_lishi mumkin.

Kon lahimi ko\_ndalang kesim yuzasining mustahkamlagichlar ichki tomoni bo\_yicha o\_lchamlari kon lahimi vazifasi, lahim o\_yuvchi qurilmalarini hisobga olgan holda hajmga kattalashuvchi sastavning asosiy o\_lchamlari, odamlarning harakatlanish usullari shamollatishga kon lahimidan o\_tadigan havoning miqdori, shuningdek, xavfsizlik qoidalari talablari asosida aniqlaniladi.

Kon lahimlari ko\_ndalang kesim yuzasining o\_tishidagi o\_lchamlar mustahkamlagichlar o\_lchamlarini ham hisobga olgan holda holda aniqlanadi.

Sochma konlardagi qatlamlar tarkibi bir xil bo\_lmaganda tog\_jinslaridan kon lahimlari o\_tilganda, zaboyning pastki qismidagi tub jinslarni maydalash uchun burg\_ilash portlatish ishlari amalga oshiriladi. Zaboyning yuqori qismidagi qumli tog\_jinslari turli usullarda o\_yib olinadi. Kon lahimi shipidagi muzlagan qum-gilli tog\_jinslarining turg\_unligi o\_lchami katta bo\_lmaganda zaboyning yuqori qismi kon lahimi chetlarida joylashgan alohida shuprlarga joylashgan zaryadlar bilan maydalab olinadi. SHip jinslari noturg\_un bo\_lgan hollarda zaboyning yuqori qismi o\_yib olish bolg\_alarini yordamida maydalab ajratib olinadi. Kon lahimi tarkibi bir xil bo\_lmaganda tog\_jinslaridan o\_tilganda, yaxlit yog\_och mustahkamlagichlar bilan mustahkamlanib, zarur hollorda qo\_shimcha xodalar bilan kuchaytiriladi.

Kon lahimlarini yumshoq tog\_jinslaridan o\_tish siklogrammasining asosiy jarayonlariga tog\_jinslarini o\_yib olish, uni transport vositalariga yuklash va doimiy mustahkamlagichlarni o\_rnatish kiradi.

*Kon lahimlarini o\_yib olish bolg\_alarini yordamida o\_mish.*

Kon lahimlarini o\_tishda siqilgan havo bilan ishlovchi o\_yib olish bolg\_alarini zaboyda mustahkamligi f=1,5 bo\_lgan tog\_jinslarini massivdan ajratib olishda, kon lahimlari devorini va zaminini tekislashda, mustahkamlagich usullari uchun chuqurchalar hosil qilishda va suvlarni chiqarib yuboruvchi ariqchalar hosil qilishda foydalaniladi.

Kon lahimlarini o\_tishda MO-5PM, MO-6PM va MO-7PM turidagi o\_yib olish bolg\_alarini qo\_llanilib ularning og\_irligi mos ravishda 7,8; 8; 8,5 kg ni tashkil qiladi. Tebranishni kamaytirish uchun o\_yib olish bolg\_alarini YB-1 tebranishni so\_ndiruvchi qurilma bilan ishlab chiqilmoqda. O\_yib olish bolg\_alarini havoning 0,5 Mpa ga teng bo\_lgan naminal bosimda ishlaydi va ular stvoli va zarb beruvchi qurilmasi uzunligi bilan bir - biridan farq qiladi.

Kon lahimlari ko\_ndalang kesim yuzasi shakli va o\_lchamlariga bog\_liq holda tog\_jinslarini o\_yib olish bitta yoki bir nechta o\_yib olish bolg\_alarini yordamida amalga oshirish mumkin. Bunda eng qulay bo\_lib, bir - biridan maъlum burchak ostida joylashgan ikkita o\_yib olish bolg\_asi bilan kon lahimini o\_tish hisoblanadi. Lahim zaboyining balandligi bo\_yicha 3 qismga bo\_linadi. Avval lahim markaziy qismidan 1-1,25 m chuqurlikda o\_yiq hosil qilinadi, keyin pastgi qatlamni va oxirgi o\_rinda yuqori qatlamni qazib olinadi.

Lahim chegaralaridan tog\_jinslarni to\_liq o\_yib olinib yakuniy shakl berilgandan keyin unga doimiy mustahkamlagich ramalari o\_rnatiladi. Keyin yuqorida ko\_rsatilgan usulda lahimni o\_tish davom ettiriladi. Bir smenada zaboy o\_rracha 2-2,5 m ga siljib 2-6 ta mustahkamlagich ramalari o\_rnatiladi.

Tog\_ jinslarini vaganetkalarga tashish PPN turidagi mashinalar yoki peregrujatellar yordamida amalga oshiriladi yoki yuklash-tashish mashinalari yordamida tozalaniladi. Tog\_ jinslari elektravoz yoki konveerlar bilan tashiladi.

Yordamchi ishlar (releys yo\_li, turboprovodlarni o\_qazish va boshqalar) smena boshi yoki oxirida amalga oshiriladi.

O\_yib olish bolg\_ alari bilan lahimni o\_tish tezligi tog\_ jinslari o\_yib olish unumdoorligiga u esa o\_z navbatи bolg\_ alarning texnik holatiga, tog\_ jinsini qo\_paruvchi instrumentning tog\_ jinslari fizik-mexanik xususiyatlariga mos kelishiga va siqilgan havoning bosimiga bog\_liq bo\_ladi.

Kon lahimlarini o\_yib olish bolg\_ alari yordamida o\_tish ko\_p mehnat talab qiladi va qo\_llanilmaydi shuning uchun bu usulni qo\_llash chegaralari doimiy qisqarib boradi.

*Kon lahimlarini burg\_ulab pormlamish usulida o\_mish.*

Burg\_ulab portlatish usulda kon lahimlarini o\_tish usuli tog\_ jinslarining qarriqligi  $f > 12$  bo\_lgan, shuprli zaryadlarini portlatgandan keyin shipga joylashgan tog\_ jinslarining xavfli bo\_lmagan hollarda qo\_llaniladi. Bu usulni qo\_llaganda o\_tish usulning asosiy aperasiyalari quydagilardir: shuprlarni burg\_ulash, shuprlarni portlatgich moddalar bilan to\_ldirish va portlatish, shamollatish, tog\_ jinslarini yuklash va doimiy mustahkamlagichlarni o\_rnatish.

Shpurlarni burg\_ulash qo\_1 elektrosverlolari, havo va suyuqlik bilan ishlovchi sverlolalar bilan amalga oshiriladi. Gaz va chang bo\_yicha xatarli bo\_lgan shaxtalarda siqilgan havo bilan ishlovchi sverlolardan foydalaniladi.

Shuprlarni burg\_ulashni kompleks mexanizatsiyalashga burg\_ulash qurilmalarini qo\_llash orqali erishiladi. Zamonviy burg\_ulash qurilmalari bir vaqtning o\_zida bir nechta shpurni 3-5m chuqurlikkacha burg\_ulash imkoniyatiga ega, hamda ularning unumdoorligi yuqoridir. SHpurlar chuqurligini lahim shipida ochiq yuza hosil qilish imkoniyati va portlatishdan maksimal samara olishni hisoga olgan holda qabul qilinadi. SHpurlar chuqurligini hisolashda kon lahimini o\_tish vaqti va zaboya ishlarning tashkil qilshni, shuningdek bir simenada bir skilni to\_liq tugatish zarurati hisobga olinadi. Asosan shpurlar chuqurligi 1,5-2 m, o\_yuvchi shpurlar chuqurligiga boshqalaridan 15-20% ga ko\_proq bo\_ladi.

O\_yuvch, yordamchi va chegaralovch shpurlar soni kon lahimi loyhaviy chegaralarini ta'minlashni, tog\_ jinslarini bir tekisda maydalanishni va qulay bo\_lgan o\_yiqni hosil qilishni hisobga olgan holda aniqlanadi. Lahim o\_chamlari unchalik katta bo\_lmasa ( $7-8 \text{ m}^2$ gacha) o\_yuvchi shpurlar soni umumiyl shpurlar sonining 15-30% tashkil qiladi.

Klin shaklidagi o\_yiqlar hosil qilish keng tarqalgan. O\_yuvchi shpurlarning zaboy tekisligiga nibatan yotish burchagi  $f=2-3$  bo\_lganda  $62-70^\circ$  va  $f=4-6$  bo\_lganda  $58-62^\circ$ ni tashkil qiladi. Turgunligi past bo\_lgan tog\_ jinslaridan lahm o\_tganda o\_yuvchi shpurlar zaboyning pastki qismiga joylashtiriladi.

Tog\_ jinslarini maydalovchi shpurlar shunday joylashtirishi kerakki ularning zaryadiga tushayotgan yuklama chegaralovchi shpurlarnikiga yaqin bo\_lishi zarur.

Zaryad konstruksiyasining eng ko\_p tarqalgan usuli bu patron-boevekni shpurning kirish joyidan boshlab eng oxirigacha joylashtirishdir.

Portlatish usuli tog\_ jinsining bir tekis maydalanishini таъминлаш учун секинлаштиришнинг турлича pog\_onali elektrodetanatorлари qo\_llagan holda elektrik yoki yondirish usulidir.

Agar zaboya ko\_mir qatlami bo\_lsa joylarda lahimni burg\_ulash portlatish usuli bilan o\_tilsa o\_yuvchi shpurlar ko\_mir qatlamiga joylashtiriladi. Qaligi 0,8 m bo\_lgan qatlamlarda shpurlar veer yoki klin shaklida bir qatorga burg\_ulanadi. Qalinligi katta bo\_lgan holatlarda esa ikki va undan ko\_p qatorlarda burg\_ilash mumkin. Tog\_ jinslari lahim zaboyining tepe qismida bo\_lsa unda 1 m<sup>2</sup> zaboyga 0,6-1,5 ra shpur joylashtirilishi mumkin. Agarda tog\_ jinslari lahim zaboyining pastki qismida bo\_lsa 1m<sup>2</sup> zaboya joylashtiriladigan shpurlar soni 1-3 tagacha o\_zgarishi mumkin. Lahim o\_tishda ko\_mirni o\_yib olish uskunasi bilan jihozlangan BUE qurilmasidan foydalanilgan holda ko\_mir qatlamida burg\_ulash portlatish ishlari olib borilmaydi.

Kon lahimlarini bo\_sh tog\_ jinslaridan o\_tishda yuklash учун engil va unumdoorligi katta bo\_lgan yuklash mashinalaridan, hamda aylana harakat qiluvchi burg\_ulash uskunasi bilan jihozlangan burg\_ulash yuklash mashinalaridan foydalaniladi. Tog\_ jinslarini bu mashinalar bilan shaxta vagonetkasi, konveerlar, bunker-poezd va boshqa transport vositalariga peregrujatellar orqali yuklanadi.

Kon lahimi uzunligi unchalik katta bo\_lmasa (70 m gacha) tog\_ jinslarini yuklash va tashish, skreper qurilmalari yordamida, uzunligi katta bo\_lgan hollarda esa skrepkani konveer va yuklash mashinasi yordamida amalga oshirilishi mumkin. Oxirgi sxemada tog\_ jinslarini yuklash va tashish asosan mustahkamlangan kon lahimi eni katta bo\_lasdan skreperlar bilan tog\_ jinslarini tozalashda mustahkamlagich asoslarini tebratish xavfi bor (ayniqsa bu holat bo\_sh va noturg\_un tog\_ jinslariga katta xavf tug\_diradi) holatlarga qo\_llash maqsadga muvvofiqdir. Kon lahimlarini mustahkamlash vaqtinchalik va doimiy mustahkamlagichlarni o\_rnatish jarayonlaridan iboratdir. Vaqtinchalik mustahkamlagichlar doimiy mustahkamlagichlarni o\_rnatgunga qadar zaboy oldi hududida ishlar bajarish xavsizligini таъминлаш учун o\_rnatiladi. Kon lahimi ko\_ndalang kesim yuzasi shakli va tog\_ jinslari mustahkamligi qanday bo\_lishdan qat'iy nazar vaqtinchalik mustahkamlagich sifatida ramali yoki arkasimon qarriq, hamda ankerlardan foydalaniladi.

Etaricha mustahkam bo\_lmagan tog\_ jinslarida qatlamlab qo\_parilib tushish hollari tez-tez uchrab turganligi учун siljivchi zaboy oldi vaqtinchalik mustahkamlashga va kon lahimi shipiga mahkamlab qo\_yiluvchi yog\_och yoki metall mustahkamlagichlardan keng qo\_llaniladi.

Kon lahimini burg\_ulab portlatish usulida tarkibida 15 kishigacha bo\_lgan maxsus brigadalar sutka davomida belgilangan graffik asosida o\_tadilar. Bir smenada 3 tagacha siklni amalga oshirgan holda lahim o\_tish tezligini таъminlaydilar. Yuqori unumdoorlikka ega texnikalarni qo\_llash va o\_tish sikli jarayonlarini maksimal moslashtirish natijasida kon lahimlarini o\_tish tezligini oyida 400-500 m gacha etqazish mumkin.


*Kon lahimlarini gidromexanizamsiya vosimalari yordamida o\_mish.*

Ushbu usulda kon lahimlarini o\_tish tog\_ jinslarini gidromonitor yordamida hosil qilinadigan yuqori bosim ostidagi SUV orqali massivdan ajratib olinib, tashlashga asoslanadi.

Ushbu usulning samaradokligi o\_zaro kuchsiz bog\_langan noturg\_un cho\_kma tog\_ jinslarini yoki qattiqligi f<1,5 bo\_lgan ko\_mirni qazib olish bilan chegaralanadi. Nisbatan mustahkamroq tog\_ jinslari oldindan portlatish yordamida maydalanadi. Zaboyning gidromometordan uzoqlashishi bilan o\_yib olish samaradorligi oshadi. SHuning uchun har 4-10 metrdan keyin gidromonitorni siljitim kerak, bunga 30 minut vaqt ketadi.

Suv yordamida o\_yib olishda, yuqori bosim bilan zaboydan ajratib olingan tog\_ jinslari lahim zaminida maxsus o\_rnatilgan po\_lat quvurlar orqali suv bilan tashib chiqoriladi. Ko\_mir yoki tog\_ jinslarini o\_yib olish samarali bo\_lishi uchun gidromonitorning chiqish teshigi 50 mm gat eng bo\_lishi kerak.

Maxsus hosil qilingan quvurlar bir vaqtning o\_zida suyuq aralashma va shaxta suvlarining chiqib ketishi uchun qulay qiladi. Ushbu quvurlar orqali tog\_ jinslari belgilangan joyda yig\_ilib, maxsus nasoslar yordamida er yuziga chiqariladi. Er yuzida suv qayta tindiriladi, tog\_ jinslaridan ajratib , nasoslar yordamida suv gidromonitorga yuboriladi. Kon lahimlarini gidromexanizatsiya vositalari yordamida o\_tish, o\_yiq hosil qilish, butun zaboy maydonidagi rudalarni o\_yib olish, o\_yib olingan rudalarni yuvib ketish, zaboyni tozalash va shakl berish, hamda lahimni mustahkamlash jarayonlaridan iboratdir.



*6.1-rasim . mog\_jinslarini gidromonimor yordamida o\_yib olish orqali kon lahimini o\_mish 1-5 — o\_yib olish qamlamlari; 1 — gidromonimor; 2 — shimok; 3 — jelob*

Gidromometor zaboydan 1,5-2 m masofada o\_rnatilib 0,3-0,5 m balandlikgacha o\_yiqlarni hosil qiladi. O\_yiqlar chuqurligi tog\_ jinslarining qattiqligiga bog\_liq bo\_lib 1-2 m ni tashkil qiladi.

O\_yiqlar hosil qilinganidan keyin tog\_ jinslarini eni 0,15-0,5 m ga teng bo\_lgan qatlamlar bilan pastdan yuqoriga qarab ketma-ketlika o\_yib olinadi. O\_yib olingan rudaga doimiy suv yuborilib,hosil bo\_lgan suyuq aralashma maxsus quvurlardan chiqib ketadi. Suyuq aralashmani quvurga yo\_naltirish uchun gidromonitor va zaboy oralig\_iga po\_lat listlardan maxsus yo\_naltiruvchi to\_sin o\_rnatiladi.

Zaboy tog\_ jinslari mustahkamligi bo\_yicha ruxsat etiladigan chegaragacha o\_tgazishdan keyin o\_yib olish ishlari to\_xtatilib mustahkamlagich o\_rnatiladi. Keyin gidromometor zaboya oldinroq joyga siljiteladi. Jarayon 30 daqiqagacha vaqt olishi mumkin. Vaqtini tejash maqsadida gidromonitorning yuqori bosim ostidagi suvni yo\_naltiruvchi stvoli almashtiriladi, birinchi kalta (1 m) keyin uzuni (2,5 m). Stvollarni bir necha daqiqa ichida almashtiriladi.

Shuningdek gidromometorning asosiy stvolini uzaytirish uchun qo\_shimcha trubalar ularash mumkin. Suv yordamida o\_yib olish unumdoorligi yumshoq ko\_mirlarda soatiga 50-100 tonnagacha, o\_rtacha qarriqlikdagi ko\_mirlarda esa 25-50 tonnagacha bo\_ladi.

Suyuq aralashmani maxsus quvurlar orqali xavfsiz tashib ketish uchun ular 5-7° qiyalikda o\_tqazilishi kerak.

Maxsus quvurlar trapedsiya shaklidagi uzunligi 2 m gacha bo\_lgan alohida bo\_limlardan iborat bo\_ladi. Uning balandligi 300 mm, yuqori asosining eni 400-500 mm, pastgi asosining eni 300-400 mm, tashkil qiladi.

Suv quvurlarini yotqizish vaqtini qisqartirish uchun asosan ulanadigan trubalardan foydalaniladi, hamda ular gidromometor bilan teleskopik ulanadi.

Suv yordamida o\_yib olish kon lahmlarini o\_tishda ularni mustahkamlash o\_ta muhum va ko\_p mehnat sarflanadigan jarayon bo\_lib, sikilga ketadigan umumiyligining 70% gacha bo\_lgan vaqtini egallaydi. Buning asosiy sababi birinchi navbatda tog\_jinslarini qazib olish texnaloyiyasiga mavjud mustahkamlagichlar konstruksiyasi va uni o\_rnatish usulining mos kelmasligi bilan izohlanadi. Kon lahimi to\_liq bo\_liman yog\_och ramalar yoki arkasimon metal mustahkamlagichlar bilan mustahkamlanadi. Orasi ochiq qoldirilib mustahkamlanganda ramalar orasidagi masofa 0,5-1 m ni tashkil qiladi, lahim shipi va yon devorlari taxtalar yoki metall plastinkalar bilan yopiladi.

Gidromexanizatsiya vositalari qo\_llanilganda ko\_p zaboyli qazib olish usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu holatda 3-5 kishidan ortiq brigade 3-4 zaboyda o\_tish ishlarini bajarib, sutkasiga 25-40 m, oyiga 700-1000 m lahim o\_tishni taъminlaydi.

*Kon lahimlarini kombaynlar va komplekslar yordamida o\_mish.*

Kon lahimlarini kombaynlar bilan o\_tish burg

ulab
 portlatish usulida o\_tishga nisbaran birmuncha takomillashgan va samarali bo\_lib hisoblanadi. Asosan bu usul ko\_mir shaxtalariga keng tarqalgan. Eski kombaynlar bazasida hozirgi kombaynli komplekslar ishlab chiqarilgan bo\_lib, ular o\_tish siklining asosiy jarayonlarini mexanizatsiyalash imkonini bermoqda. Faqat o\_yish kombaynnini qo\_llash asosan ikkita tog\_jinslarini o\_yib olish va yuklash jarayonini, ayrim hollarda mustahkamlagichlarni o\_rnatishni ham qisman mexanizasiyalash imkonini beradi.

Kombayndan kon massasini tashib ketish va mustahkamlagichni o\_rnatish uzlusiz amalgam oshirilsagina lahim o\_tish jarayoni to\_liq uzlusiz taъminlanadi.

Kombaynlardan Gorizontalva qiya (15 gacha) kon lahimlarini o\_tishda foydalaniladi. Kombaynning quvvati maъlum vaqt birligida massivdan ajratib olish yuklanadigan kon massasi bilan belgilanadi.


Kombaynlarning ishlab chiqarish quvvati *nazariy, mexnik* va ekspluamasiyon turlarga bo\_linadi.

*Kombaynning nazariy ishlab chiqarish quvvami deganda - maъlum* kon geologic sharoitda to\_xtamlarsiz maksimal ishlashidagi quvvati tushuniladi.

*Texnik ishlab chiqarish quvvami deganda* – aniq sharoitlarda bartaraf qilib bo\_lmaydigan operatsiyalarga, yaъni manevrlarni bajarish va kombaynning emirilgan qismlarini almash tirishga ketgan vaqtini hisobga olgan holda maksimal quvvatiga aytildi.

Eksplatatsion quvvat tashkiliy texnik sabablarga ko\_ra qo\_shimcha to\_xtalishlarni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Kon lahimlarini kombaynlar bilan o\_tish tezligi doimiy mustahkamlagichlarni o\_rnatish uchun kombaynning to\_qtab turish vaqt bilan bevosita bog\_liqdir. SHuning uchun bekor turib qoladigan vaqtini tejash uchun har xil konstruksiyalı harakatlanuvchi vaqtinchalik mustahkamlagichlardan foydalaniladi. Bu mustahkamlagichlar kombaynlar bilan birga harakatlanib doimiy mustahkamlagichlarni keyinchalik o\_rnatish imkonini beradi va kombaynning ishlab chiqarish quvvati ortadi.



*6.2-rasim. Tarkibi bir xil bo\_lmagan kovjoylardan kon lahimlarini kombaynlar bilan o\_mishning mexnologik sxemasi:*

1 — kombayn; 2 — peregrujamel; 3—lenmali meleskopik konveyer; 4 — musmahkamlagichlar yuklangan konteyner.

**Mavzu: O\_tish sikli tarkibi va burg\_ilash portlatish ishlari pasportiga qo\_yiladigan talablar. Gorizontalva qiya kon lahimlari zaboylarida shpurlarning joylashishi.**

**Reja:**

1. O\_tish sikli tarkibi va burg\_ilash portlatish ishlari pasportiga qo\_yiladigan talablar.
2. O\_yiqlar turlari va ularni qo\_llash sharoitlari.
3. Gorizontalva qiya kon lahimlari zaboylarida shpurlarning joylashishi.

**Dars maqsadi:** talabalarga o\_tish sikli, zaboylarda shpurlarning joylashishi va burg\_ilash portlatish ishlari pasportini tuzishga oid nazariy bilimlar berish.

**Tayanch iboralar:** o\_tish sikli, burg\_ulash portlatish ishlari pasporti, o\_yuvchi, yordamchi, maydalovchi, chegaralovchi shpurlar, shpurlardan foydalanish koeffitsienti, o\_yiqlar.

O\_tish sikli bu lahim zaboyi maъlum vaqt birligida bir xil o\_lchamga siljiydigan, takrorlanuvchi jarayonlar va operatsiyalar majmuidir.

Sochilma konlarda qattiq ( $f \geq 4$ ) va muzlagan tog\_jinslaridan lahimlar burg\_ilab portlatish usulida o\_tiladi. Muzlagan tog\_jinslaridan kon lahimlari o\_tilganda o\_tish sikli tarkibiga quyidagi asosiy jarayonlar kiradi: shpurlarni burg\_ilash, shpurlarni portlatgich moddalar bilan to\_ldirish va zaryadlarni portlatish, shamollatish, tog\_jinslarini yuklash va lahimni mustahkamlash(zarurat bo\_lganda).

YOrdamchi operatsiyalarga quyidagilar kiradi: siqilgan havo trubalarini, kuchlanishli va yorituvchi kabellarni yotqizish, shamollatish trubalarin o\_rnatish, odamlar harakatlanuvchi va agarda kon massasi skreperlar bilan etqazib berilsa skreper yo\_lakchalarini jihozlash.

Kon massasi relsli transportlar yordamida tashilganda yordamchi operatsiyalarga rels yo\_llarini yotqizish; avtomobillar qo\_llanilganda o\_tish yo\_lakchasini, lahimda SUV bo\_lganda esa uni chiqarib tashlash uchun ariqchalar hosil qilish kiradi.

Burg\_ulash portlatish ishlari o\_tish siklining 20 dan 60 foyizgasa vaqtini egallaydi. Bu ishlar kon lahimining loyiҳada berilgan shakli va o\_lchamlarini, tog\_jinslarining bir tekis maydalanishini va kovjoyni belgilangan masofaga siljishini taъminlashi kerak. Burg\_ilash portlatish ishlari to\_g\_ri olib borilganda portlatishdan keyin tog\_jinslari maъlum yo\_nalishda qulaydi, bu esa yuklash mashina va uskunalarining ish unumдорligi oshishini taъminlaydi. Bu talablar kavjoyda shpurlar soni va joylashishi, PM turi va shpurlardagi miqdori to\_g\_ri tanlanganda bajarilishi mumkin.

Har bir kon lahimga burg\_ilash portlatish ishlari pasporti alohida tuzilib rudnik bosh injeneri tomonidan tasdiqlanadi.

Burg

- ulash

 portlatish ishlari posporti bilan kon masterlari, brigadirlar, portlatuvchilar va lahim outuvchilar tanishtirilishi kerak. Burg

- ulash

 portlatish ishlari posporti ouz ichiga quyidagilarni olishi kerak:

- kovjoyda shpurlarning raqamlari koursatilgan holda joylashish sxemasi uch tatomondan kourinishda, kovjoy tekisligiga nisbatan qiyalik burchagi, shpurlar chuqurligi va ulardagi zaryadlarning portlash navbatи, shpurda zaryadning joylashish sxemasi;
- kon ishlari rejasilan nusxa sifatida olingen postlarni qouyish sxemasi, shamollatish oqimining harakatlanish younalishi, portlatuvchining yashirinish joyi va portlatish ishlari olib borilayotganda outuvchilarning kutib turish joylari;
- ouz ichiga togu jinslari kategoriyasi, shpurlar chuqurligi va diametri, har bir shpurdagi zaryad ogurligi, yoquvchi trubkalar uzunligi va boshqa malumotlar kiritiluvchi shpurlar joylashish tartibiga bogulik jadval;
- kon lahimi oulchamlarini, qoullaniladigan PM turi va ularni qouzgu atuvchi vositalar va ularning solishtirma sarfi bouyicha, portlatilgan togu jinslari hajmi, shpurlardan foydalanish koeffitsienti va boshqa maulumotlar kiritiluvchi asosiy texnik-iqtisodiy koursatgichlar jadvali.

Togu jinslarini belgilangan chuqurlikda ouyib olish uchun lahim zaboyida ouyuvchi, yordamchi, qouporuvchi va chegaralovchi shpurlardan iborat shpurlar touplami burguulanadi. Er osti kon lahimlari bitta ochiq yuzaga ega bouladi, shuning uchun shpurli zaryadlar ishi bunday sharoitda murakkabdir. SHpurlar touplamining kovjoydagisi vazifalari quyidagicha. Ouyuvchi shpurlar ouyiq hosil qilib, qoushimcha ochiq yuza hosil qilish youli bilan boshqa shpurlardagi zaryadlarning ishini engillatishdir. YOrdamchi shpurlardagi zaryadlarni portlatish natijasida hosil qilingan ouyiqlar kerakli boulgan oulchamgacha kengaytiriladi. Qouporuvchi shpurlar togu jinslarini ouyuvchi va yordamchi shpurlar bilan qoushimcha hosil ochiq yuza younalishida qouporib olishga mouljallangan. Kon lahimi chegaralarida joylashgan ouyuvchi shpurlar chegaralovchi shpurlar deyiladi, bu shpurlarni portlatish natijasida lahimga yakuniy shakl beriladi.

Kovjoyda shpurlarning joylashishiga quyidagi talablar qouyiladi:

- shpurlardan foydalanish koeffitsient (SHFK) 0,85—0,87 dan kam boulmasligini tauminlashi kerak;
- kon lahimlarini outishda uning oulchamlari loyihaviy oulchamlardan kattalashishi 3—12% dan oshib ketishiga youl qouymaslik kerak;
- yuklash-tashish mashinalarining ish unumdorligini oshirish maqsadida togu jinslarining etarlicha maydalanishini tauminlash, shuningdek, uning maydalanib ketmasligi va PM sarfi oshib ketmasligi kerak.

SHpurlardan foydalanish koeffitsinemi (SHFK) deganda shpurli zaryadlar portlashida harakat samaradorligini tavsiflovchi va portlash natijasida kovjoy siljishining shpur chuqurligia nisbatini ifodalovchi oulchov birligisiz kattalik tushiniladi. SHpurlar touplamidagi koupchilik shpurlarning chuqurligi bir xil. Faqat ouyuvchi shpurlar kovjoy tekisligiga qiya burguilansa oulchamlari farq qilishi mumkin. Bunday shpurlarning chuqurligi boshqa shpurlarnikiga nisbatan katta bouladi.


1-rasimda qatariq jinslardan ( $f=13-14$ ) o\_tilgan Gorizontalkon lahimlari kovjoyida shpurlarning joylashishi ko\_rsatilgan. 1-8 klin shaklidagi o\_yuvchi shpurlar, bunda 1-2 kesuvchi. 9-10 yordamchi shpurlar bo\_lib, ular ham kovjoy tekisligiga qiya qilib o\_tilgan ammo ularning burchagi kichikroq. 11-13 qo\_poruvchi shpurlar, 14-22 chegaralovchi shpurlar bo\_lib, qiya burg\_ilanganligi sababli lahim chegaralaridan biroz chiqadi. Kesuvchi (1-2) shpurlar o\_yuvchi shpurlarning ishini engillashtirish uchun mo\_ljallangan. Ular o\_yuvchi shpurlar qiyalik burchagi  $70^\circ$  dan ko\_p bo\_lganda burg\_ulanadi.

### **O,,yiqlar turi va ularni qo\_llash sharoitlari.**

O\_yiq turi kovjoydagi mavjud ochiq yuza yoki o\_yuvchi shpurlarning kovjoy tekisligiga nisbatan joylashishiga qarab aniqlanadi. O\_yiqlar quyidagi guruhlarga bo\_linadi:

- kovjoy zaboyiga qiya yoki to\_g\_ri burchak ostida burg\_ilangan shpurlar bilan hosil qilingan;
- kombinatsiyalashgan, kovjoy zaboyiga qiya yoki to\_g\_ri burchak ostida burg\_ilangan shpurlar zaryadini portlatish bilan hosil qilingan;
- atrofida shpurli zaryadlar joylashtirilgan karra diametrli skvajinalar bilan hosil qilingan.


*Kovjoy mekisligiga qiya burg\_ilangan shpurlar bilan hosil qilinadigan o\_yiqlar.* Qatriq va o\_rracha qatriqlikdagi tog\_jinslarida klin hosil qiluvchi ikki qator vertikal shpurlardan iborat klinli o\_yiqlar qo\_llaniladi(1-rasmga qarang). Qattiq monolit tog\_jinslarida o\_yuvchi shpurlar kiyalik burchagi  $65—70^\circ$  bo\_lganda ayrim hollarda klinli o\_yiq markazida birnechta kesuvchi shpurlar burg\_ilanadi, ularning chuqurligi o\_yuvchi shpurlar chuqurligining 2/3 qismiga teng bo\_ladi. Kesuvchi shpurlar tepa tomonga kiya o\_tiladi. O\_yuvchi shpurlarning chuqurligini klinli o\_yiqlar hosil qilishda, zaryadlar uzunligini mos ravishda uzaytirib borgan holda, boshqalariga nisbatan 30-40 sm. ko\_proq qilib qabul qilish kerak. CHegaralovchi shpurlar qiyaligini lahim kesim yuzasi o\_lchamarining oshib ketishi minimal bo\_lishini ta'minlashni hisobga olgan holda, tajribadan o\_tqazgan holda belgilash kerak. Klinli o\_yiqlarning kamchiligi kovjoy eni yoki balandligi uncha karra bo\_lmagan hollarda shpurlarni talab qilingan qiyalik burchagida joylashtirish imkon yo\_qligidir. Ayniqsa bu kamchilik uzunligi 2,5 m va undan uzun bo\_lgan burg\_ulash mashinalari eni 2-2,5 m bo\_lgan kon lahimlarida qo\_llanilganda yaqqol namoyon bo\_ladi. SHuning uchun bunday kavjoylarda o\_yuvchi shpurlar qiyalik burchagini oshirish va chuqurligini kamaytirish yoki shpurlarni perforatorlar bilan burgulashga to\_g\_ri keladi.



7.1-rasm. Kovjoyda shpurlarning joylashishi, (a) klinli o\_yiq bilan va (b) zaryad konsmruksiyasi: a va v — o\_yuvchi shpurlarning mos ravishda shpurlar boshlanish va oxirgi qismilarini oraliglaridagi masofa;  $l_z$  — zaryad uzunligi;  $l_{vr}$  — o\_yuvchi shpur chuqurligi; 1 — elekmrodeemonamor; 2 — demonim M; 3 — granulim.

Prizma shaklidagi yoki mo\_g\_ri o\_yiqlar tog\_jinslari qattiqligiga bog\_liq bo\_lmagan holda qabul qilinadi. Bu o\_yiqlarda shpurlar kovjoy tekisligiga to\_g\_ri burchak ostida va bir biriga parallel burg\_ilanadi. Tog\_jinslarning qattiqligiga bog\_liq holda o\_yiq hosil qiluvchi shpurlar orasidagi masofa 10-30 sm, juda qattiq tog\_jinslarida 5-10 sm qilib qabul qilinadi. To\_g\_ri o\_yiqlarda shpurlar soni asosan 3—9 tani tashkil qiladi. Ayrim to\_g\_ri o\_yiqlarda shpurlarning bir qismi portlovchi modda bilan to\_ldirilmaydi, bunday shpurlar kompensatsion (o\_qlanmagan) shpurlar deyiladi. Kompensatsion shpurlar tog\_jinslari massivida kuchsizlanish maydonini hosil qilib, o\_yiq hosil qiluvchi boshqa shpurlar ishini engillashtiradi. O\_yiqda kompensatsion shpurlar bo\_lganda o\_yuvchi shpurlar chuqurligini boshqalari bilan bir xil qilib qabkl qilish mumkin.

SHpurlar soni aniqlangandan keyin 2-rasm bo\_yicha to\_g\_ri o\_yiqning mos keluvchi turini tanlash mumkin.



7.2-rasm. To\_g\_ri o\_yiqlar sxemalari: a-ikkima, b-uchma, v-mo\_rmma va g-beshma kompensatsion shpurlar bilan.

Bazida kompensatsion shpurlar boqalariga nisbatan katta diametrarda burg<sub>u</sub> ilanadi. O<sub>u</sub>yuvchi shpurlarda portlatgich modda bilan to<sub>u</sub>ldirish koeffitsienti maksimal bo<sub>u</sub>lib, u 0,9 gacha bo<sub>u</sub>ladi. To<sub>u</sub>g<sub>u</sub>ri o<sub>u</sub>yiqlar klinli o<sub>u</sub>yiqlarga nisbatan bir qancha afzalliliklarga ega, ular:

- o<sub>u</sub>yiq chuqurligining lahim eniga bog<sub>u</sub>liq emasligi;
- o<sub>u</sub>yiqli bir necha metr chuqurlikkacha konstruiyalash imkoniyati mavjudligi;
- eni katta bo<sub>u</sub>lмаган lahimlarda qo<sub>u</sub>l perforatorlari o<sub>u</sub>rniga burg<sub>u</sub>lash uskunalarini qo<sub>u</sub>llash imkoniyati borligi va boshqalar.

### **Gorizontalva qiya kon lahimlari kovjoylarida shpurlarning joylashishi**

Kovjoyda shpurlarning joylashish sxemasi tuzilayotganda tog<sub>u</sub> jinslari tavsifi, ularning yotish sharoitlari, yoriqliklar yo<sub>u</sub>nalishi, kovjoy o<sub>u</sub>lchami, qo<sub>u</sub>llanilayotgan PM quvvati va bir portlatishda kovjoy siljishi kerak bo<sub>u</sub>lgan masofa hisobga olinadi. Bir xil tarkibli yoriqliklarga ega jiinslarda shpurlarni joylashtirishga beriladigan umumiy tavsiyalar quyidagilardir.

Klinli o<sub>u</sub>yiqlarda o<sub>u</sub>yiq kovjoyning markaziy qismida joylashtiriladi.

O<sub>u</sub>yuvchi, qo<sub>u</sub>poruvchi va chegaralovchi shpurlar soni orasidagi nisbati 1:0,5:1,5 yoki 1:0,5:2 qilib qabul qilinadi. Tog<sub>u</sub> jinslari qarriqligi va kovjoy maydoni oshishi bilan o<sub>u</sub>yuvchi shpurlar soni 2 dan 8 gacha o<sub>u</sub>zgaradi va kovjoy maydoni 4 m<sup>2</sup> dan katta bo<sub>u</sub>lib tog<sub>u</sub> jinslari qarriqlik koeffitsienti  $f = 9 - 13$  bulganda 6—8 tani tashkil qiladi. Juft o<sub>u</sub>yuvchi shpurlar qatorlari orasidagi vertikal masofo 40-50 sm ni tashkil qiladi.


O<sub>u</sub>yuvchi shpurlar qiyalik burchagini qarriqligi  $f > 12$  bo<sub>u</sub>lgan jinslarda 53—55° va  $f \leq 12$  bo<sub>u</sub>lgan tog<sub>u</sub> jinslarida 65—70° atrofida qabul qilish ravsiya etiladi. Bu tavsiyalar o<sub>u</sub>yiqlar chuqurligi 1 m dan chuqur, kovjoy kengligi 2,5 m dan katta bo<sub>u</sub>lgan hollarda bajarilishi mumkin.

To<sub>u</sub>g<sub>u</sub>ri o<sub>u</sub>yiqli kovjoylarda shpurlarning joylashish sxemasi 3-rasmda keltirilgan.

2-4 tagacha bo<sub>u</sub>lgan yordamchi shpurlar to<sub>u</sub>g<sub>u</sub>ri o<sub>u</sub>yiqlarni kengaytirish uchun qo<sub>u</sub>llaniladi. Bu shpurlar qiyin parchalanadigan jinslarda o<sub>u</sub>yiq hosil qilinadigan hududdan uning kengligiga teng bo<sub>u</sub>lgan masofada joylashtiriladi, yaxshi parchalanadigan jinslarda esa o<sub>u</sub>yiq kengligidan 2,5 marta katta uzoqlikda joylashtiriladi.

Qo<sub>u</sub>poruvchi shpurlar bir biridan va oldin portlaydigan shpurlar bilan hosil qilinadigan ochiq yuzadan eng yaqin qarshilik chizig<sub>u</sub>i masofasida joylashtiriladi.

CHegaralovchi shpurlar bir biridan o<sub>u</sub>rtacha eng yaqin qarshilik chizig<sub>u</sub>iga teng bo<sub>u</sub>lgan masofada joylashtiriladi.  $f = 10-20$  bo<sub>u</sub>lgan qarriq jinslarda kon lahimini kengligi kamayishiga yo<sub>u</sub>l qo<sub>u</sub>ymaslik maqsadida chegaralovchi shpurlarning boshlanish qismi lahim devorlaridan 0,15-0,20 m masofada, shpurning oxirgi qismi esa kon lahimini chegarasidan 5-7 sm ( $f = 20$  bo<sub>u</sub>lganda 10 sm oshmasligi) chiqgan bo<sub>u</sub>lishi kerak. Bunda chegaralovchi shpurlarning kovjoy tekisligiga nisbatan qiyalik burchagi 85—87° ni tashkil qiladi.



7.3-rasm. Kovjoyda shpurlarning joylashish sxemasi: a-mo\_g\_ri o\_yiqli; b-zaryad konsmruksiyasi.  
1-elekmrodemonomor; 2-demonim M; 3-granulim AS-8.

## Ma“ruza №11

### Mavzu: kovjoylarni shamollatish.

**Reja:**

1. Shamollatish haqida umumiy tushunchalar.
2. Shamollatishning havoni haydash usuli.
3. Shamollatishning havoni so\_rish usuli.
4. Shamollatishning kombinasiyalashgan usuli.
5. Kon lahimlarini skvajinalar yordamida shamollatish.
6. Boshi berk kon lahimlarini shamollatish uskunalari.

**Dars maqsadi:** talabalarga zaboylarni shamollatish usullari haqida bilim va ko\_nikmalar berish.

**Tayanch iboralar:** kon lahimi atmosferasi, zararli gazlarning ruxsat etilgan Kansentrasiyasi (rek), havoni haydash, so\_rish, shamollatishning kambinasiyalashgan usuli, ventilyator, o\_qli va markazdan qochma vetilyatorlar.

kon lahimi atmosferasiga kon lahimlarini o\_tish davrida asosan burg\_ulab portlatish usulida har xil zararli gazlar qo\_shiladi. Harakatdagi kon lahimi havosidagi ruxsat etilgan zarali gazlar miqdori quyida keltirilgan

Harakatdagi kon lahimida gazlarning (REK).	(Hajmi bo_yicha) %	mg/m <sup>3</sup>
Uglevadarod oksidi (CO)	0,0017	21,2
Azod oksidi (NO <sub>2</sub> )	0,00026	5,3
Oltингugurt gazi (SO <sub>2</sub> )	0,00038	10,8
Vodorod sulfit (H <sub>2</sub> S)	0,00071	10,8

Kon lahimida burg\_ulab portlatish ishlari bajarilgandan keyin odamlarni kritishdan oldin zararli gazlar miqdorini shamollatish yo\_li bilan uglerod oksidining hajmi bo\_yicha 0,008 % dan kam bo\_lagan holgacha kamaytirish kerak.

Odamlar bo\_lishi mumkin bo\_lgan kon lahimlarida kislorodning hajmi 20 % dan kam bo\_lmasligi kerak. Shamollatish yo\_li bilan gazlardan tashqari odamlarda kasb kasalligiga sabab bo\_lishi va portlash xavfini tug\_diruvchi (ko\_mir, oltингugurt, kolchegan va boshqalar) chang ham tozzalanadi.


Kon lahimiga isitilgan yoki sovitilgan havo yuborish orqali kon lahimi temperaturasini talab qilingan darajada saqlab turish mumkin.

Kon lahimlari ularni o\_tish davrida umum shaxta depressiyasi hisobiga yoki shamollatish trubalari va skvajinalar bilan mahalliy shamollatish ventilyatorlari yordamida Shamollatiladi.

Uch xil shamollatish usullari qo\_llaniladi, ular: havoni haydovchi, havoni so\_ruvchi va kambinasiyalashgan.

Havoni haydashga asoslangan shamollatiSh usuli keng tarqalmagan. Faqat bu usulda ShamollatiSh gaz va chang bo\_yicha xavfli bo\_lgan kon lahimlarida qo\_llaniladi. Havoni haydash usulida yoza havo kon lahimida o\_natilgan trubaprovodlar orqali beriladi, ifloslangan havo esa bevosita kon lahimi orqali chiqib ketadi. Xafsizlik qoidasiga asosan trubaprovod kon lahimi kov joyidan 10 m dan ko\_p orqada qolmasligi kerak. Bu usulning asosiy afzalligi Shundaki toza havo bevosita iShchi hududiga uzatiladi. Havoni haydaSh usulida Shamollatilganda trubaprovodlar atmossfera bosimiga nisbatan kattaroq bosimda iShlaydi.

Shuning uchun qattiq va egiluvchan ham bir xilda ishlatiladi. Bu usulning kamchiligiga Shamollatish jarayonida, ayniqsa burg\_ulash-prtlatish ishlaridan keyin kon lahimi butun uzunligi bo\_yicha gaz va chang bilan ifloslanib, u erda hech qanday iSh olib boriSh mumkin emasligini misol qilish mumkin. Bu usulni uzunligi unchalik katta bo\_lmagan (300 m gacha) kon lahimlarida qo\_llash lahim og\_zidan 10 m dan kam bo\_lmagan masofada o\_ranitiladi.



8.1-rasm. Gorizontal kon lahimlarini ventilyator va quvirlar yordamida ShamollatiShning asosiy usullari

Havoni so\_rishga asoslangan shamollatish usulida kon lahimining kov joy qismidan tashqari barcha hududi zararli gaz va changdan holi bo\_ladi. Shu bilan birgalikda shamollatish turboprovodlar kov joydagi bor yog\_I 2-3 m masofada bo\_lgandagina samarali bo\_ladi. Ammo burg\_ulash-portlatish ishlarini olib borishda zarar etishini inobatga olgan holda uni 6-8 m dan yaqin bo\_lmagan masofada joylashtirish mumkin.

Shunday qilib, kov joy oldida yaxshi Shamollatilmaydigan (o\_tirib qolgan) hudud hosil bo\_lishi mumkin. Havoni so\_rishga asoslangan shamollatish usulida kov joydan ventilyatorgacha bo\_lgan masofada egiluvchan turbalarini ishlatish mumkin emas, chunki bu hududda turboprovod atmossfera bosimidan kichik bo\_lgan ichki bosim ostida ishlaydi. Shuning uchun bu usulning foydalanish chegaralari ham cheklangan. Kombinasiyalashgan shamollatish usuli avvalgi ikki usulning ham avfzalliklarini o\_z ichiga oladi.

Kon lahimining kov joy oldi hududida ventilyator yordamida toza havo haydaluvchi turbaprovod o\_tqaziladi. Lahimning butun uzunligi bo\_yicha bitta ventilyator yoki ventilyatorlar tizimi orqali kov joydan ifloslangan havoni so\_rib oluvchi ikkinchi turbaprovod o\_tqaziladi.

Havoni haydovchi ventilyator burg\_ulash-portlatish ishlari olib borilganda havoning ifloslanishi mumkin bo\_lgan hududdan tashqarida o\_rnatiladi. Bu masofaning uzunligi portlatilayotgan PM massasi, uning xususiyatlari va kon lahimi ko\_ndalang kesim yuzasi maydoniga bog\_liq holda hisoblab topiladi.


Kombinasiyalashgan usul ko\_ndalang kesim yuzasi katta va uzun kon lahimlarini shamollatishga samarali hisoblanadi. Ammo, havoni so\_rish usuli kabi u ham gaz va chang bo\_yicha xavfli bo\_lgan kon lahimlarida qo\_llanilishi mumkin emas.

#### *Kon lahimlarini skvajinalar yordamida shamollatish.*

Umuman olganda kon lahimlarini er yuzasiga yaqin bo\_lgan yoki judda uzun bo\_lib, konning yuqori gorizonti mavjud bo\_lgan hollarda ularni skvajinalar yordamida shamollatish maqsadga muvofiq bo\_ladi. Kon lahimlarini skvajinalar yordamida shamollatishning maqsadga muvofiqligi har xil varyantlarini iqtisodiy solishtirish orqali aniqlaniladi.

Boshi berk kon lahimlarini o\_tishda ventilyatorlar, shamollatish skvajinalari va turbaprovdalaridan foydalanilgan holda kombinasiyalashgan shamollatish uchun keng qo\_llaniladi. Gorizontal lahimlarining uzunligi uncha katta bo\_lmagan hollarda (2-rasm) toza havo kov joyga turbopravod [3] orqali qiya stivol oldiga joylashgan [2] ventilyator[1] yordamida er yuzidan haydaladi. Ifloslangan xavo esa kon laximi [4] ventilyator yordamida shamollatish sikvajnalar orqali er yuziga chiqarib yuboriladi.

Uzun kon laximlarini skvajnalardan foydalanib shamollatilganda laximning kovjoy oldi xududida qisqa Shurbagirovtolar bilan chegaralish mumkin. Buning uchun [2 b rasimga qarang] laxim kavjoyiga [4] toza xavo shamollatish skvajnasi [7] va turbagirovitd [5] ventilyator [1] yordamida yuboriladi ,ifloslangan xavo esa biruninigi sixemadi kabi ventilyator [6] yordamida skvajna [5] orqali er yuziga chiqarilib yuboriladi.



8.2-rasm. BoShi berk lahimlarni ShamollatiSh sxemalari.

Loyhalangan laxim o\_qi bo\_yicha bir biridan 50-100 m masofada dyametiri 400-500 mm bo\_lgan skvajnalar burg\_ullash stanoklar yordamida burg\_ullanadi. Skvajnalar myzlagan tog\_jinslardan o\_tilgan bo\_lsa, yoz paytlarda skvajnalarning

Kirish qismida tog\_jinslarining erib to\_kilmasliklari uchun issiq o\_tkazmatdigan qilib maxkamlanadi. Muzlagan tog\_jinslar turg\_unligini yuqotadigan darajagacha xarorat ko\_tarilishini oldini olish uchun kon laximlariga yuborilayotgan xavo muzlagan tog\_jinslar orasida xosil qilingan muzlatgich kameralar orqali yuboriladi.

Ventilyator	Dvigatel quvvati kwa	Etqazib berish		Bosim Pa	
		minimal	maksimal	minimal	maksimal
VM-4M	4	50	155	700	1450
VM-5M	11	95	270	600	2120
VM-6M	24	140	480	750	3400
VMP-4	5	45	100	400	2200
VMP-5	9	70	270	800	2200
VMP-6M	24	120	480	600	2900
VSPD-8	125	300	1320	2500	9200
VSO-0,6	50	50	462	2600	6000
VS-7	75	84	660	1000	10800
VSP-6	150-245	560	2790	2000	9400

Kon laximlarini o\_tishda o\_qli va markazdan qochuvchi vintiliyatorlar qo\_llaniladi. O\_qli ventiliyatorlar ixcham bo\_lib, ularni laximga o\_rnashida laximni kengaytirish yoki maxsus kameralar qurish talab etiladi.

Maxalliy shamolatish ventiliyatorini qo\_llash Sharotalari kesim yuzasi maydonlarini keng qo\_lamda o\_zgartirish kon laximi uzunligi, etqazib berilish kerak bo\_lgan xavo miqdori, elektir energiyasidan foydalanish imkoniyati mavjyd yokiyo\_qligiga bog\_liq xolda turlicha bo\_lishi mumkin. Shunda bog\_liq xolda maxaliy shamolatish ventiliyatorlari xavo sarifi chegaralari 1ga 20 m<sup>3</sup>/c, to\_liq nominal bosim 800 Pa qilib belgilangan.

Quyda maxaliy shamolatish vintiliyatori texnik xarakteriskalari keltirilgan. Boshi berk kon laximlarni shamolatishda qayishqoq va egiluvchan turbaprovtolar xam qo\_llaniladi. Qayishqoq turubalarni Shpal, plasmasa yoki yog\_ochdan tayyorlanadi. Yog\_och turbalar quruq laximlarda keng qo\_llaniladi qattiq turbalar mustaxkamligi katta bo\_lib, kon laximida xavo bosimi katta bo\_lganda va turbaprovadda xavo bosimi katta bo\_lgan xollarda xam qo\_llaniladi. Egiluvchan turbalar paxtalli yoki lavsonli materiallardan tayyorlanib xar ikkala tomonda rezin qoplamlarni bo\_ladi. Turuballarning diyametri 0,4;0,5;0,6;0,8 va 1m bo\_ladi. Diametei 0,8m bo\_lgan turubalar bo\_laklarmning uzunligi 10m , 1m diyametri turbalarniki esa 20m bo\_ali.

Turba bo\_laklari bir bilan cheka qismlariga o\_rnatilgan kesma aylana purjinalar bilan maxkamlanadi. 1m turbalarning og\_irligi 1,3-2,3 kg bo\_lib, xizmat qilish muddati 14 oydan [kam laximlarda ] 3 oygacha [quruq Laximlarda ] bo\_ladi.Qattiq turbalar kon laximlarida xomutlar yoki arqonlar bilan osib qo\_yiladi yoki mustaxkamlagich yoki laximiga o\_rnatilgan qattiq tayanchlarga o\_rnatiladi.

Er osti kon laximlarni shamollatish rejada va ko\_ndalang kesimida qo\_llanilgan shamollatish sxemasini, laxim ventiliyator, shamollatish turbasi, shamollatish tizimi tafsifnomasini shamollatish usuli va vositalari xaqidagi kerakli qo\_limcha malumotlarni o\_zo\_iga olgan shamollatish pasportiga qatiy rioya qilgan xolda amalga oshiriladi.

**Mavzu: Kovjoyni tog,, jinslaridan tozalash usullari va yuklash qurilmasini tanlash.**

**Reja:**

1. Tog\_ jinslarini tozalash havqida umumiy ma‘lumotlar va yuklash qurilmasini tanlash.
2. Yuklash-tashish mashinalarini tanlash.
3. Tog\_ jinslarini skreperlar yordamida tozalash.

**Dars maqsadi:** talabalarda tog\_ jinslarini tozalash va yuklash qurilmasini tanlash ko\_nikmalarini shakllantirish.

**Tayanch iboralar:** tog\_ jinslarini yig\_ish va yuklash usullari. yuklash qurilmasini tashlashga ta‘sir etuvchi omillar. yuklash mashinalari turlari. tog\_ jinslarini skreperlash majmuasi bilan yigish. yuklash-tanlash mashinalarini tanlash.

Tog\_ jinslarini tozalaSh tarkibiga quyidagi operatsiyalar kiradi: tog\_ jinslarini rudnik yoki o\_ziyurar vagonetkalarga bevosita maShinalar yoki konveyer-yuklovchilar orqali yuklaSh, yuklangan vagonetkalarni qayta yuklaSh yoki to\_kiSh hududigacha etqaziSh, yuklangan vagonlarni bo\_Shlariga almaShtiriSh, Shuningdek tayyorlaSh-tugatiSh iShlari. Tog\_ jinslarini tozalaSh o\_tiSh sikli davomiyligi va mehnat sarfining 40—50% ni taShkil qiladi.

Kon lahimida rels yo\_li mavjud bo\_lganda kovjoydan tog\_ jinslarini tozalaSh uchun yuklaSh maShinalari rudnik vagonlari va bunker-poezdlar bilan birgalikda qo\_llaniladi.

Bu holatda tog\_ jinslarini tozalaSh unumдорligi yuqori bo\_ladi, qachonki kovjoyda sostavlarni yoki yuklangan vagonlarni bo\_Shlariga almaShtirilmasa va barcha kon massasi birdaniga vagonlarga, bunker-poezdlarga yuklansa.

Kon lahimida rels yo\_li bo\_lmasa tog\_ jinslarini tozalaSh gusenitsalarda harakatlanuvchi maShinalar VS turidagi o\_ziyurar vagonlar yoki samosvallar bilan birgalikda qo\_llaniladi. Avtonom harakatlanuvchi pnevmokolesali PT va PT turidagi yuklaSh-taShiSh maShinalari keng qo\_llaniladi.

Uzinligi unchalik katta bo\_lmagan (60 m.gacha) gorizontal kon lahimlaridan tog\_ jinslarini tozalaganda va qiya kon lahimlarini (qiyalik burchagi  $35^{\circ}$  gacha) o\_tiShda skreper qurilmalaridan foydalaniladi. Qiyalik burchagi  $\pm 18^{\circ}$  gacha bo\_lgan lahimlarda tog\_ jinslarini tozalaSh uchun 2PNB-2U maShinasini o\_ziyurar vagonlar, samosvallar, konveyerlar va vagonetkalar bilan birgalikda qo\_llash tavsiya etiladi.

Gorizontal kon lahimlarida rels yo\_llari mavjud bo\_lganda yuklaSh maShinalarini tanlaShga yuklanayotgan tog\_ jinslarining mustahkamligi va bo\_laklarining kattaligi, hamda kon lahimi o\_lchamlari ta‘sir qiladi (12.1-jadval).

Yuklash mashinasi turi	Mashina markasi	Texnik umundorligi m <sup>3</sup> /daq	Yuklash fronti, m	Tog_ jinslari mustahkamlik koefitsienti	Yuklanayotgan t <sub>g</sub> jinslari bo_laklarining maksimal o_lchar ari mm,	O_lchamlari, m eni	ISHchi balandligi (Maksimal)	Kon lahimining mak imal eni X balandligi, m
To_g_ri yuklovchi kovshli turi	PPN-1	0,5	2	chegaralanmag an	300	1,05 *	1,9	2X2
	PPN-1s	1	2,2	chegaralanmag an	350	1,32 *	2,25	2,1X2,4
	PPN-2	1	2,5	chegaralanmag an	400	1,59 *	2,35	2,2X2,4
	PPN-2G	1	-	chegaralanmag an	400	1,75 *	2,5	2,6X2,6
	PPN-3	1,25	3,2	chegaralanmag an	600	1,8	2,8	2,6X3
Bosqichma-bosqich yuklovchi kovshli turi	2PPN-5p	1	3	chegaralanmag an	450	1,7	1,35	2X2,5
	PPM-4p	0,8	4,8	chegaralanmag an	350	1,4	1,85	2,3X1,9
Suruvchi lapali uzluksiz ishlovchi	PNB-1	1,45	-	<6	300	1,15	-	2X1,5
	1PNB-2	2	-	<6	400	1,6	3	2,5X1,8
	2PNB-2	2	-	<12	400	1,8	3,3	2,5X1,8
	PNB-2K	2,5	-	<12	400	1,8	3,3	2,5X1,8
	PNB-3K	3	-	<16	600	2	3,4	3X1,7
	PNB-3D	3,5	-	<16	600	2,5	3,4	3X1,8
	PNB-4	6	-	<16	800	2,7	3,9	3X1,8
	2PNB-2U	1,25 **	2,5	<12	400	1,45	3,3	$\geq 8,4 \text{ m}^2$

Relsli yo\_lda harakatlanadigan kovshli turdag'i mashinalarni tanlashda mashinalarning kon lahimi o\_lchamlariga bog\_liq bo\_lgan quyidagi parametrlariga asoslanish kerak:

- kon lahimi chetlaridagi tog\_ jinslarni qo\_lda yuklashga majbur bo\_lmaslik uchun mashinaning yuklash kengligi kon lahimi o\_tishdagi zamin bo\_yicha kengligidan kam bo\_lmasligi kerak, yuklash fronti kengligi bilan kon lahimi zamini bo\_yicha kengligi orasidagi farq 20 %dan ko\_p bo\_lishiga yo\_l qo\_yilmaydi;
- mashinaning ishchi holatdagi balandligi (maksimal balandligi) rels golovkasidan lahim Shipigacha (mustahkamlagich bo\_lmaganda) yoki mustahkamlagichgacha bo\_lgan balandlikdan 5 sm.dan kam bo\_lmagan balandlikda kichchik bo\_lishi kerak;

- 3) yuklash mashinasining butun yuklash frontidan foydalanish uchun lahimning kovjoyoldi o\_qi vaqtinchalik rels yo\_li o\_qi bilan mos kelishi kerak;
- 4) tog\_jinslari mustahkamligi kovshli mashinalarni tanlashga ta'sir etmaydi. PNB turidagi (suruvchi lapali uzluksiz ishlovchi) tanlashga yuklanayotgan tog\_jinslarining mustahkamligi va o\_lchamlari sezilarli ta'sir qiladi (12.2-jadvalga qarang).

9.2-jadval.

Kon lahimi	Transport turi	Transport vositasi kengligi, mm	Har xil mustahkamlagich qo_llanilganda kon lahimi ko_ndalang kesim yuzasi maydoni, m <sup>2</sup>		
			Yog_och	Monolit beton	Chaplambeton yoki anker
Bir yo_lli	Relсли	1040	7,2-9,5	6-9,5	5,1-7,8
		1200	7,2-10,8	6,4-9,8	5,5-8,4
		1350	8,2-11,3	7,2-10,1	6-8,9
Ikki yo_lli	Relсли	1040	10,4-14,5	10,3-13,9	8-11,7
		1200	11,3-15,6	11-14,9	9-12,6
		1350	12,5-16,8	13-16	10,5-15
Bir yo_lli	Relssiz o_ziyurar	1600	-	11,5	9,5
		2500	-	18	15,3
		2850	-	19,7-20,9	17-17,7
		3910	-	23,2-25,6	20,2-21,4

*Yuklash-tashish mashinalarini tanlash.* Yuza maydoni unchalik katta bo\_lmagan qavatcha lahimlarini o\_tishda GSHN-2G mashinasi va VS-5P1 (yuk ko\_tarish qobiliyati 5 t, eni 1,4 m, balandligi 1,5 m, kuzovining hajmi 2 m<sup>3</sup>) o\_ziyurar vagondan iborat yuklash-etqazib berish kompleksi keng qo\_llaniladi. Etqazib berishning samarali masofasi 100 m, kon lahimining mustahkamlagich ichki tomoni bo\_yicha minimal kesim yuzasi 5,8 m<sup>2</sup> bo\_lib hisoblanadi.

Ko\_ndalang kesim yuzasi 14 m<sup>2</sup> dan katta bo\_lgan kon lahimlari uchun PNB-3K yuklash mashinasi va tashish masofasi chegaralanmagan avtosomasvaldan iborat kompleks qo\_llaniladi.

Turli vazifalarni bajaruvchi tayyorlov kon lahimlarini o\_tishda asosan PT va PD turlaridagi yuklash-tashish mashinalari qo\_llaniladi. PT turidagi mashinalar yuklash uchun hajmi katta bo\_lmagan yuklash kovshi va kon massasini katta masofalarga tashish uchun mo\_ljallangan kuzovdan iborat bo\_ladi. PD turidagi yuklash-etqazib berish mashinalari esa kon massasini unchalik katta bo\_lmagan masofalarga yuk tashuvchi kovshlarida etqazib beradi.

12.3-jadval

MaShinalar o_lchamlari	I		II		III		IV	
MaShinalar markasi	PD-2	PT-2,5	PD-3	PT-4	PD-5	PD-6	PD-8	PT-10
YUK ko_tariSh qobiliyati, t	2	2,5	3	4	5	6	8	10
KovShning yuklaSh balandligi (PT lar uchun yuklaShdagi balandlik), m	1,2	2,1	1,6	2,24	1,8	2,8	2,2	3,25
Maksimal balandlik (kabinasi bo_yicha), m	2,12	2,12	2,12	2,12	2,24	2,12	2,5	2,5
Kuzovining maksimal hajmi, m <sup>3</sup>	-	1	-	1,5	-	2,5	-	4
KovShining minimal hajmi, m <sup>3</sup>	1	0,12	1,5	0,2	2,5	0,5	4	1
HarakatlaniSh turi (D-dizel, E-elektr, DE-dizel-elektr, P-pnevmatik)	D	D,P	DE	D,P	DE	DE,P	E	E,P
Eni (maksimal), m	1,32	1,4	1,7	1,8	1,9	2,36	2,5	2,5
Kon lahimi ko_ndalang kesim yuzasi maydoni, m <sup>2</sup>	5-7	5-7	7-9	7-9	9-12	9-12	12-14	12-14
Ratsional taShiSh masofasi, m	<75	75-175	<100	100-225	<150	150-325	<200	200-450

Rudniklarda kon lahimlarini tezkor o\_tish namunaviy pasportlarida har bir mashina uchun tashishning ratsional masofalari belgilab qo\_yiladi.

*Tog\_jinslarini skreper komplekslari bilan tozalash.* Gorizontal kon lahimlarini o\_tishda kon massasi skreperlar bilan tozalash ko\_tarilmaning tudatushurgich bo\_linmasigacha etqazib berish bilan amalga oshiriladi (keyinchalik lyuklardan vagonetkalarga yuklanadi).

Qiya kon lahimlarini o\_tishda quyidagi skreper komplekslari qo\_llaniladi:


- Skreper polkalaridan bevosa vanonetka yoki skipplarga yuklovchi (SKU-1 va SKM-600komplekslari);
- Polka orqali skrebkali yoki lentali konveyerlarga yuklovchi (SKB-1, SKU-KT, MPDK-3 va boshqa komplekslar).

Amalda qariyb barcha komplekslarga 17LS-2G1 lebyodkasi va hajmi 0,5 m<sup>3</sup> yoki 0,45 m<sup>3</sup> bo\_lgan SG-0,5 va SG-0,45 skreperlari o\_rnatiladi. Bu skreper lebedkalari ishchi sim arqonda 1,1 m/daq, bo\_Sh holatda 1,5 m/daq tezlik bilan harakatlanadi. Skreperlash uzunligi skreper lebyodkalari barabanining kanat sig\_dirish imkoniyatidan kelib chiqib aniqlanadi, hamda 17LS-2 uchun —60 m.ni; 30LS-2 uchun — 90 m.ni va 55LS-2 uchun— 100 m.ni tashkil qiladi.

Skreper quriilmasi skreper lebyodkasi va skreperdan tashqari oldi va orqa sim arqonlar, kovjoyda orqa blok va osma yo\_naltiruvchi roliklardan iborat bo\_ladi. Kichchik bo\_laklarga maydalangan tog\_ jinslarini tozalash uchun SYA turidagi yashikli skreperlardan, katta bo\_lakli bo\_lganda esa SPG turidagi suruvchi skreperlardan foydalaniladi. Skreper blogi (roligi) va skreper lebedkasi turg\_un o\_rnatilgan va mahkamlangan bo\_lishi kerak.

12.1-rasmda Shtrek kovjoyida skrenperlash sxemasi, lebyodkani mahkamlash va blokni o\_rnatish usuli ko\_rsatilgan. Skreperlash sxemasida katta nuqtalar bilan skreperist va o\_tuvchining ish joylari ko\_rsatilgan bo\_lib, ular orasida ikki tomonlama signalizatsiya mavjud. Skreperlash vaqtida o\_tuvchi xavfsiz joyda bo\_ladi.


Lebedkani 17 – 18 mm.li sim arqonlar bilan ikkita yakorga mahkamlanadi. Har bir sim arqonda uchtadan kam bo\_lagan qisib turuvchi molamalari bo\_lishi kerak. Skreper lebyodkasi o\_rnatiladigan joyda lahim Shipi ikkita mustahkamlovchi ramalar o\_rnatilgandan keyin taxtalar bilan sidirg\_asiga yopilgan bo\_lishi kerak.



12.1-rasm. Skreper qurilmasi sxemasi:

a – skreperlaSh sxemasi; b, v, g, d, e – kovjoyda roliklarni o\_rnatiSh usullari; j – skreper; z – lebyodkani mahkamlashaSh usuli; 1 – stoyka; 2 – metall klin; 3 – petlya; 4 – yog\_och klin; 5 – yakor. Tashish masofasi 100 m gacha bo\_lganda kovshining hajmi  $0,6 \text{ m}^3$  bo\_lgan lebyodkaning texnik unumдорлиги  $10\text{m}^3/\text{soat}$ , kovshining hajmi  $2 \text{ m}^3$  gacha bo\_lganda  $44 \text{ m}^3/\text{soat}$  atrofida bo\_ladi. Ma'lumotlar bo\_yicha tog\_ jinslarini skreperlvr yordamida tashilganda bir siklda kovjoyning siljishi 1,4—1,5 m ni tashkil qiladi.

Eni 4,5 m balandligi 1,8 m bo\_lgan kovjoy eni 3 va 1,5 m bo\_lgan ikkita vertikal pog\_onaga bo\_linadi. Enli pog\_ona ensiz pog\_onadan 3 m.ga oldinlab boradi (12.2-rasm).



*12.2-rasm. Muzlagan sochma jinslarda tog\_jinslarini 2PNB-2yuklaSh maShinasi yordamida (a)skreper qurilmasi va (b) lentali yoki skrebkali konveyerlar bilan birgalikda tozalaSh sxemalari.*

*1 —2PNB-2 maShinasi; 2 — skreper; 3 — konveyer.*

Oldinlab boruvchi pog\_onadan portlatilgan tog\_jinslari 2PNB-2 mashinasi bilan orqada qolgan kovjoyidagi skreperlash yo\_lakchasigacha olib tashlanadi va Shpurlarni burg\_ilashga kirishiladi. Shpurlarni burg\_ilash vaqtida skreper qurilmasi tog\_jinslarini tozalab tashish lahimigacha etqazib berishga ulguradi. Bu usul tog\_jinslarini skreperlar bilan tozalashga solishtirilganda tozalash vaqtini 2-3 barobarga qisqartirish va mehnat sarfini 25—30% ga kamaytrish imkonini beradi. Skreperlash masofasi 60 m.dan 140 m.gacha oshishi bilan tozalash vaqtini 21% ga oshadi. Yuklash mashinasi smena davomida uchta kovjoyga xizmat ko\_rsatsa nisbatan yuqori natijaga erishish mumkin.

**MA“RUZA №13**  
**Mavzu: Kon lahimlarini o,,tishda yordamchi ishlar.**

**Reja:**

1. Vaqtinchalik rels yo\_llarini yotqizish.
2. suv chiqaruvchi ariqchalarini hosil qilish.
3. truba va kabellarni yotqizish.
4. kavjoyni yoritish va kuchlanish setlari.
5. yordamchi ishlarni mexanizasiyalash.
6. yo\_1 qoplamalarini yotqizish.

**Dars maqsadi:** talabalarga yordamchi ishlar to\_g\_risida nazariy bilimlar berish.

**Tayanch iboralar:** yordamchi ishlar turlari, vaktinchalik yo\_llarni yotqizish, suv chiqaruvchi ariqchalarini hosil qilish, truba va kabellarni yotqizish, yoritish qurilmalarini o\_rnatish, o\_tish yo\_lakchalarini hosil qilish, vaqtinchalik temir yo\_llari. yo\_1 koplamalarini yotkizish. yordamchi ishlarni mexanizatsiyalash

Yordamchi rels yo\_llari kalta bo\_laklarga ballast qatlamisiz yotqiziladi yoki siljitoluvchi relslar qo\_llaniladi.Yo\_1 bo\_laklari metal Shkallarga svarkalangan Shvellerlardan tayyorlangan uzunligi 1,5-2 m relslardan tayyorlanib, ilgachlardan ulanadi.Uzunligi 4,5-4 bo\_lgan siljitoluvchi relslar asosiy yo\_lning yon tomoniga o\_rnatilib, har bir metrda po\_lat bo\_lakchalarini bilan svarkalanadi.Tog\_jinsi uyumigi kirishni engillashtirish uchun siljitoluvchi relslar uchlari o\_tkir qilib yasaladi.Relslar yuklash mashinasining kovshi bilan itarib siljitolinadi.

Tog\_jinslarini yuklash ishlari boshlanganda yuklash mashinalari asosiy yo\_ldan siljitoluvchi relslarga o\_tib tog\_jinslarini vognetkalarga yuklaydi. Rels to\_liq siljitolgandan keyin doimiy yo\_1 yotkiziladi.

**Suv chiqaruvchi ariqchalarini hosil qilish.**

Suv chiqaruvchi ariqchalar kon lahmlarida odamlar erkin harakatlanadigan tomondan hosil qilinib usti yopiladi.Suv chiqaruvchi ariqchalar o\_lchamlari va ularni mustahkamlash usullari lahmga kelayotgan suv miqdori va lahm zamirida yotgan tog\_jinsi xususiyatlariga bog\_liq holda tanlanadi.

Tog\_jinslarini maydalash uchun kovjoy zaminida suv chiqaruvchi ariqcha joylashadigan qismiga qo\_Shimch bitta Shpur burg\_lanadi.Bu Shpur boshqa Shpurlar jamlamasi bilan birga portlatiladi.Tog\_jinslari eg\_ib olingandan keyin, suv chiqaruvchi ariqcha Shakli o\_yib olish bolg\_alarini yordamida loyihadagi o\_lchamlariga keltiriladi.Suv chiqaruvchin ariqchalar transheya simon Shaklga ega bo\_lib, rudnik hududidagi suv to\_plovchi havza yo\_nalishida 0,003<sup>0</sup> qiyalikda bo\_ladi.

Quyida lahmga suv kelishiga bog\_liq holda suv chiqaruvchi o\_lchamlari berilgan.

Suv keliShi m <sup>3</sup> /soat	Suv chiqaruvchi ariqcha o_lchamlari,mm			Mustahkamlagich ichki tomoni bo_yicha maydoni m <sup>2</sup>
	Tepa tomoni bo_yicha eni	Past tomoni bo_yicha eni	CHuqurligi	
100	350	250	200	0,06
150	400	300	250	0,087
200	400	300	300	0,105
300	400	300	400	0,14
400	450	350	450	0,18
500	450	350	500	0,205

Yuvilib ketmaydigan qattiq ( $f>10$ ) tog\_jinslarida va suv kelishi  $100\text{m}^3/\text{soat}$ gacha bo\_lgan hollarda suv chiqaruvchi ariqchalar mustahkamlanmaydi. Boshqa hollarda suv chiqaruvchi ariqchalarni yog\_och yoki yig\_ma temir beton (kon lahimi yog\_och, choplama beton, anker yoki metal bilan mustahkamlanganda) bilan mustahkamlash nazarda tutiladi. Agarda kon lahimi beton monolit beton bilan mustahkamlansa suv chiqaruvchi ariqchalarni fundament hosil qilish bilan bir vaqtida mustahkamlanadi. Bu holatda fundament quyilayotgan paytda suv chiqaruvchi ariq hosil qilinadigan joyga yog\_och opolubka yopiladi, hamda beton qotgandan keyin olib tashlanadi. Suv chiqariladigan ariqchalar temir beton plitkalar yoki taxta bilan yopiladi.

**Truba va kabellarni yotkazish.** Kuchlanish kabellari, suv bilan ta'minlovchi Shruboprovodalar odamlar harakatlanadigan tomonda joylashtiriladi. Bunday joylashish ularni o\_rnatish va keyinchalik foydalanish uchun qulaydir. O\_tish yo\_lakchalarini eni 700-750 mm bo\_lgan kon lahmlarida quvir va kabellar bollast qatlami yoki to\_Shalmadan (trapdan) 1800 mm dan past bo\_lmagani balandlikda joylashtiriladi. Agarda kon lahimidagi yo\_lakchalar kengaytirilgan bo\_lsa truba va kabellarni Shu balandlikdan pastroq balandlikda joylashtirishga ruxsat beriladi.

**Kuchlanish liniyalari.** (127,380 va 6000 V kuchlanishli) kesim yuzasi  $95 \text{ mm}^2$  bo\_lgan zirxlangan kabellar yordamida o\_tkaziladi. Shuningdek kon lahimida 2tadan 4tagacha telefon aloqasi va signalizasiya kabellari o\_tkazish ko\_zda tutilib, ularni lahimning kuchlanish kabellari bo\_lmagani tomonidan joylashtirish tavsiya etiladi. Ochiq simlarga izalyatorlar kiygiziladi. Har qanday to\_rdagi kabellar havfsizlik qoidalariga mos ravishda harakatlanuvchi sostav o\_lchamlari balandligida yuqorida maxsus ilgichlarga mahkamlanadi.

Metal yoki yog\_och bilan mustahkamlangan lahimplarda yog\_och ilgichlarga qattiq bo\_lmagani brezent metallar yordamida ilib qo\_yiladi. Ilgichlar orasidagi masofani 3 m dan ko\_p bo\_lmagani, simlar orasidagi masofa 5sm dan kam bo\_lmagani holda qabul qilinadi. Zirxlangan simlarni qattiq ilgichlar yordamida faqat mustahkamlagichsiz, hamda beton yoki temir beton bilan mustahkamlangan lahimplarda mahkamlanadi.

Suv (diametric 100mm gacha bo\_igan) va siqilgan havo (diametri 200 mm gacha bo\_igan) uchun quvirlar ilgichlarga mahkamlanadi yoki zaminga yog\_och to\_Shamalar ustiga yotqiziladi.

**Kon lahimlarini yoritish.** Lahm zaboyi va kon lahimi uni o\_tish davrida 127 V kuchlanishli to\_kdan quvvat oluvchi rudnik yoritgichlari yordamida yoritiladi.

O\_tib bo\_lingan kon lahimplari, harakatlanmasdan doimiy yoritish uchun 220 vkuchlanishli tokdan foydalanishga ruxsat etiladi. Kovjoy tekisligining minimal yoritilishi 10 lk, zaminini esa 15 lk bo\_lishi kerak. Bunday yorug\_likda kovjoyda 100VT quvvatga ega ko\_chiriluvchi yoritgichlar bilan, Shuningdek burg\_ulash qurilmalari va yuklash mashinalari yoritgichlari yordamida eritiladi. Bundan tashqari, lahim va uning kovjoyga tutash qismi har 4-6 m lahim Shiniga o\_rnatiladigan 100 VT quvvatga ega yoritgichlar bilan yoritiladi. Elektr energiyasi uzilib qolishi mumkin bo\_igan hollarda har bir o\_tuvchi akkumuliator yoritgichlar yordamida ta'minlanadi.

**Yordamchi ishlarni mexanizasiyalash.** Suv chiqaruvchi ariqchalarni qurish uchun PKU universal kovshli yuklash mashinalaridan foydalaniladi. Unda teleskopik o\_q mavjud va u almashtiriluvchi qismlar : kovish, kryuk, greyfer, hamda sangqichli tutgichlar bilan jihozlangan. Almashtiruvchi uskunalar rels yo\_llarini ta'mirlash, kon lahimini to\_kilgan tog\_jinslaridan tozalash, yo\_ldan chiqib ketgan vagonetgalarni relsga chiqarib qo\_yish, lahimni quvirlar va kabellar bilan jihozlash, mustahkamlagichni o\_rnatish kabi ishlarni mexanizasiyalash imkonini beradi.

Yuklash mashinasi o\_zi harakatlanadi, u g\_ildirakli – relsli harakatlanish moslamasiga ega bo\_lib, 600, 750 va 900 mm li yo\_llarda harakatlanadi; harakat tezligi 5 km/s atrofida; kon ko\_targish quvvati 1000kg; balandligi 1800 mm.dan kam bo\_lmagan lahimlarda pnevlogidrovlik energiyada ishlaydi. Yuklash mashinasi to\_g\_ri va teskari lapatali ekskavator sifatida ishlatilishi mumkin. Yuza maydoni 0,2m<sup>2</sup> bo\_igan suv chiqaruvchi ariqchalarni hosil qilishda ish unumдорлиги 90 m/ smenagacha etadi.

**Yo,l qoplamarini hosil qilish.** Avtosomosvallar, o\_zi yurar vagonetgalar, yuklovchi – tashuvchi mashinalar haratlanishi uchun mo\_ljallangan transport lahimlarda yo\_l qoplamarini yotqiziladi. Yo\_l qoplamarini turi va tuzilishi lahimda o\_ziyurar mashinalarning harakatlanishi intensivligi va ularning yuk ko\_tarish quvvatiga bog\_liq holda tanlanadi. O\_ziyurar vagonlar yoki yuklash – tashish mashinalari qo\_llanilgan holda qavatga lahimlari o\_tilayotganda yo\_l qoplamlari yotkizilmaydi.

Sutkada 100 tadan ko\_p bo\_lmagan ko\_p yuk ko\_taruvchi mashinalar harakatlanadigan transport lahimlarida I tipdagи yo\_l qoplamlari hosil qilinib, unda asosiy qatlama 200mm qalinlikda (Sheben donalari o\_lchamlari 20 – 40 -70 mm) ikkinchi qatlama qo\_Shimcha aralashmalsiz 70 mm qalinlikda (Sheben donalari o\_lchamlari 10- 20 mm) va yuqori uchinchi qatlama qalinligi 30 mm bo\_lib o\_zaro tog\_lovchi aralashmalar qo\_Shilgan (Shebsi donalari o\_lchamlari 10 – 20 mm) bo\_ladi.

**Mavzu: Tik stvollarning ko\_ndalang kesim yuzasi Shakli va o\_lchamlari.**  
**Tik stvollarni oddiy usulda o\_tiSh.**

**Reja:**

1. Tayyorlash bosqichi haqida umumiy tushuncha.
2. Vertikal stvollarning ko\_ndalang kesim yuzasi Shakli va o\_lchamlari.

**Dars maqsadi:** talabalarga vertikal stvollarning kesim yuzasi shakli va o\_lchamlarini aniqlash bo\_yicha nazariy bilimlar berish.

**Tayanch iboralar:** tik stvollarning ko\_ndalang kesim yuzasi, shakli va o\_lchamlari, tik stvollar diametri, to\_g\_ri burchakli stvollar. stvollarning ko\_ndalang kesim yuzasini tanlashga ta'sir etuvchi omillar. asosiy va yordamchi stvollar. ko\_tarish qurilmalari. tayyorlash jarayoni haqida tushunchalar. stvollarni o\_tish usullari.

Stvolni o\_tish tayyorlash bosqichidan boshlanadi. Bu bosqich stvol quriladigan maydon ichidagi va uning tashqarisida bajariladigan ishlarni o\_z ichiga oladi. Stvol quriladigan maydon tashqarisida bajariladigan ishlarga quyidagilar kiradi: temir yo\_l, avtomobil yo\_li, aloqa liniyalarini, transformator podstansiyali elektr uzatish, suv uzatish liniyasi va boshqa magistral liniyalarni o\_tish. Bu ishlarning hajmi turlicha bo\_lib, hududning o\_zlashtirilish holatiga bog\_liq bo\_ladi.

Rudnikning sanoat maydoni ichida bajariladigan ishlarga quyidagilar kiradi: maydonni rejalashtirish, kommunikatsiyalarini jihozlash, har xil vazifalaarni bajaruvchi yo\_llarni qurish, stvolni jihozlash, stvolning texnologik qismini qurish, stvololdi majmuasi binosini qurish, qurilmalarni o\_rnatish, stvolni uskunalar majmui bilan jihozlash. Bundan tashqari bu bosqichda stvolni o\_tish uchun zarur bo\_lgan doimiy va vaqtinchalik bino va inshoatlar (siqilgan havo va issiq suv bilan ta'minlab beruvchi majmualar, elektropodstansiya) quriladi.

Shaxtalarni qurishda tayyorlov bosqichining davomiyligi asosan Shaxtaning quvvati va stvollar soniga, stvollarni o\_tish va jihozlashning texnologik sxemasiga, hamda qurilishda zarur bo\_ladigan doimiy obektlarning hajmiga bog\_liq bo\_ladi.

Kon qazib olish sanoatida asosan stvollarning aylana va to\_g\_riburchakli Shakllari qo\_llaniladi. To\_g\_ri burchakli Shakl sochma oltinlarni qazib oluvchi korxonalarda stvollarning chuqurligi unchalik katta bo\_lmagan (150 m.gacha) va yog\_och bilan mustahkamlangan hollarda qo\_llaniladi. Aylana Shakl nisbatan keng tarqalgan. Ruda qazib olish sanoatida aylana Shakldagi stvollarning mustahkamlagichning ichki tomoni bo\_yicha diametrini 4 dan 8 m.gacha kattalikda tavsiya etilib, ularning kengayib borish oralig\_i 0,5 m ni tashkil qiladi. Kesim yuzasining aylana Shakli to\_g\_ri burchakli Shaklga nisbatan kon bosimiga chidamli va stvoldan o\_tayotgan havo harakatiga qarshiligi kam. U foydalanish muddati katta bo\_lgan hollarda ham qo\_llaniladi.

To\_g\_ri burchakli Shakldagi stvollarda ko\_tarish qurilmasining turi (klet yoki skip) va soniga qarab o\_lchamlari belgilanadi. Stvol maydoni quyidagi bo\_linmalardan iborat bo\_ladi: ko\_tarish qurilmasi o\_rnatiladigan, zinali va trubakabellar o\_rnatiladigan.

Asosiy stvolning mustahkamlagich ichki tomoni bo\_yicha diametri ko\_tarish qurilmasi, qarshi og\_irlik, zinali bo\_lhma, trubalar va kabellarning joylashishini inobatga olgan holda grafik usulda aniqlanadi. Keyin topilgan kesim yuzasi rudnikni shamollatish Sharti bilan tekshiriladi.

Yordamchi stvollarning diametri ularda joylashtiriilgan materiallarni, kon massasi ortilgan vagonetkalarni, Shuningdek ishchilarni tushiradiigan va chiqaradigan kletlar o\_lchamlariga bog\_liq bo\_ladi.

Stvollarning diametrlarini aniqlashda foydali qazilmalarni qazib olishda xovfsizlik qoidalari tablitsalari va ilovalariga asoslanish kerak.

Stvollarning kesim yuzasini tanlash va o\_lchamlarini aniqlash quyidagicha amalga oshiriladi. Kletlar yoki skiplar turi va sonini aniqlash uchun stvol bo\_yicha bir martada ko\_tariladigan yukning og\_irligini aniqlash kerak.

Stvolda skip yon o\_qining yo\_nalishi stvol oldi hovlisi va er yuzidagi stvol maydonida qabul qilingan texnologik sxemasi orqali aniqlanadigan yuklash va to\_kish yo\_nalishiga bog\_liq bo\_ladi.

Tik stvollarda ko\_tarish qurilmasi bilan mustahkamlagich va yo\_naltiruvchi o\_q orasidagi eng yaqin masofa ruda, noruda va sochilma konlarni er osti usulida qazib olishda yagona xavfsizlik qoidasi asosida qabul qilinadi.


Narvonli bo\_lhma o\_lchamlari standar o\_lchamlarni hisobga olgan holda qabul qilinadi: narvonlar burilish joyidagi maydon  $0,6 \times 0,7$  m, zinalarning qiyalik burchagi  $80^\circ$ , zinachalar orasidagi masofa 300 mm, narvonlar polka tagiga 1 m kirishi kerak. Narvon asosidan mustahkamlagichgacha bo\_lgan masofa 600 mm bo\_ladi.

Trubakabelli bo\_lhma o\_lchamlari truba va kabellarning soniga, diametriga va mahkamlanish usuliga bog\_liq bo\_ladi.

Stvolning mustahkamlagich ichki tomoni bo\_yicha grafik usulda aniqlangan ko\_ndalang kesim yuzasi maydoni havoning ruxsat etilgan tezligi bilan tekshirib ko\_riladi.


Havo tezligi bilan tekshirib ko\_rilgandan keyin stvolning yaqin katta namunaviy kesim yuzasi o\_lchami qabul qilinadi.

Barcha stvollarda yo\_naltiruvchilar yaruslari orasidagi masofa 4 m ga teng. Stvol mustahkamligichlari qalinligi 300 va 400 mm bo\_lgan monolit betondir.



11.1-rasm. Ko\_mir va konruda qazib oliSh sanoati Shaxta stvollarli namunaviy yuzalari.

a — kletli; b — skipli (ikkita  $25 \text{ m}^3$  va bitta  $11 \text{ m}^3$  skip); c — skip-kleetli (ikkita  $20 \text{ m}^3$  skip va klet); d — skip-kletevli (ikkita  $10 \text{ m}^3$  skip va ikkita klet); 1, 2 — signal va kuchlaniSh simlari; 3, 4, 5, 6, 7, 8 — suv bilan ta'minlovchi, suvni chiqarib taShlovchi va chang bostiruvchi trubalar.



2-rasm. To\_g\_ri burchakli Shaklga ega bo\_lgan stvollarning namunaviy Shakli.

Tarkibida oltini bor qumlarni ko\_tarish uchun foydalaniladigan to\_g\_ri burchakli kesim yuzasi maydoni  $17,2 \text{ m}^2$  bo\_lgan stvol ko\_tarish quvvati 1 t bo\_lgan ikkita skip, 1NV 140-2,3 markali klet qarshi og\_irlik bilan va narvonli bo\_linma bilan jihozlanadi. Bunday stvollar diametri 20—22 sm bo\_lgan yog\_och xodalar bilan mustahkamlanadi.

**Mavzu: Stvollarni burg“ulab portlatiSh usulida o“tiShda asosiy o“tuvci operasiyalar.**

**Reja:**

1. Tayyorlash bosqichi haqida umumiy tushuncha.
2. Vertikal stvollarning o\_tish usullari.

**Dars maqsadi:** talabalarga tayyorlash bosqichi va vertikal stvollarni oddiy usulda o\_tish bo\_yicha nazariy bilimlar berish.

**Tayanch iboralar:** ko\_tarish qurilmalari,klet, o\_tish usullari,skip, badya, burg\_ulab portlatish usulida o\_tishda asosiy o\_tish ishlari.

Stvol boshlanish qism (er yuzi bilan tutashgan joyi), bevosita stvol va stvol bo\_ylab tushayotgan suvlarni yig\_ish, hamda skipli ko\_tarishda skiplar joylashishi uchun tag (zumpf) qismlardan iborat bo\_ladi.

Agarda stvol kompleks yordamida o\_tilsa, kompleksni xovfsiz joylashtirish uchun texnologik qism ham zarur. Texnologik qismning chuqurligi kompleksning turiga qarab qabul qilinadi. U 30-70 m.dan kam bo\_lmaydi.

Stvolni o\_tish tayyorlash bosqichidan boshlanadi. Bu bosqich stvol quriladigan maydon ichidagi va uning tashqarisida bajariladigan ishlarni o\_z ichiga oladi. Stvol quriladigan maydon tashqarisida bajariladigan ishlarga quyidagilar kiradi: temir yo\_l, avtomobil yo\_li, aloqa liniyalarini, transformator podstansiyali elektr uzatish, suv uzatish liniyasi va boshqa magistral liniyalarni o\_tish. Bu ishlarning hajmi turlicha bo\_lib, hududning o\_zlashtirilish holatiga bog\_liq bo\_ladi.

Rudnikning sanoat maydoni ichida bajariladigan ishlarga quyidagilar kiradi: maydonni rejorashtirish, kommunikatsiyalarni jihozlash, har xil vazifalaarni bajaruvchi yo\_llarni qurish, stvolni jihozlash, stvolning texnologik qismini qurish, stvololdi majmuasi binosini qurish, qurilmalarni o\_rnatish, stvolni uskunalar majmui bilan jihozlash. Bundan tashqari bu bosqichda stvolni o\_tish uchun zarur bo\_lgan doimiy va vaqtinchalik bino va inshoatlar (siqilgan havo va issiq suv bilan ta'minlab beruvchi majmular, elektropodstansiya) quriladi.


Shaxtalarni qurishda tayyorlov bosqichining davomiyligi asosan Shaxtaning quvvati va stvollar soniga, stvollarni o\_tish va jihozlashning texnologik sxemasiga, hamda qurilishda zarur bo\_ladigan doimiy obektlarning hajmiga bog\_liq bo\_ladi.

boshlanish qismi va texnologik qismini qurish bo\_yicha bajariladigan ishlar majmuiga texnologik qismni o\_tish uchun er yuzini tayyorlash, vaqtinchalik o\_tuvchi uskunalarini o\_rnatish, texnologik qismni o\_tish, uskunalarini buzib olish va o\_tish kompleksini o\_rnatish va stvolni belgilangan tezlikda o\_tib boshlashni ta'minlovchi boshqa tayyorlov ishlari kiradi. Asosan texnologik qismni qurish tugagagan vaqtida bevosita stvolning o\_zini o\_tish uchun er yuzida tayyorlov ishlari ham tugaydi.

Oddiy usulda o\_tish tog\_jinslarining suvchanligi kam va turg\_un bo\_lgan, yani kovjoydan suvni badyalar yoki nasoslar yordamida er yuziga chiqarilib, lahim devorlari doimiy mustahkamlagich o\_rnatulgunga qadar turg\_un holatda saqlanadigan hollarda qo\_llaniladi.

Stvolni oddiy usulda o\_tishda o\_tishning ishchi loyihasi quyidagi tartibda bajariladi: mavjud Sharoit uchun tavsiya etilgan o\_tishning texnologik sxemasi va o\_tish uskunalarini majmuyi tanlanadi, jarayonlar bo\_yicha bajariladigan ishlarning texnologiyasi loyihalanadi, bajariladigan ishlarning kompleks me'yorlari hisoblanadi, o\_tish sikli davomiyligi va o\_tuvchilar brigadasi tarkibi aniqlanadi, kovjoyda ishlarni tashkil qilish grafigi tuziladi.

Maxsus usulda o\_tishni stvol kovjoyiga suvning kelishi  $8 \text{ m}^3/\text{soatdan}$  ko\_p bo\_1gan hollarda qo\_llash tavsiya etiladi.



12.1-rasm. Tik stvollar ni o\_tish sxemasi:

1 — vaqtinchalik mustahkamlagich; 2 — ikki qavatlil polka; 3 — tayanch venets; 4 — opalubka; 5 — beton tuShiriSh uchun truba; 6 — tyubinglar; 7 — Shitli qobiq.

Stvolni o\_tish quyidagi uchta asosiy jarayonlarni ichiga oladi: tog\_jinslarini o\_yib olish, doimiy mustahkalagichni va armirovkani o\_rnatish. Stvollar ni oddiy usulda o\_tish, tog\_jinslarini o\_yib olish vasitalariga bog\_liq holda qattiq tog\_jinslaridan burg\_ilab-portlatish ishlarini yoki PD turidagi stvol o\_tish kombaynlarini qo\_llagan holda, yumshoq tog\_jinslaridan o\_yib olish bolg\_alarini yoki SOM turidagi o\_yib olish mashinalari yordamida o\_tish usullariga bo\_linadi.

Stvolning chuqurligi bo\_limlarga bo\_linadi. Bo\_limlarning uzunligi tog\_jinslarining turg\_unligiga bog\_liq bo\_lib, bir necha metrdan birnecha o\_n metrgacha bo\_ladi. Bo\_limlarda tog\_jinslarini o\_yib olish va doimiy mustahkamlagichni o\_rnatish ishlari ketma-ketligiga bog\_liq holda o\_tishning quyidagi texnologik sxemalari farqlanadi: keta-ket, aralash, parallel va parallel-Shitli.

*O\_tishning ketma-ket texnologik sxemasi* stvolning bitta bo\_limida tog\_jinslarini o\_yib olish va doimiy mustahkamlagichni o\_rnatish ishlari ketma-ket bajarilishi bilan tavsiflanadi.

Kon qazib olish sanoatida stvollarni o\_tishning aralash texnologik sxemasi keng tarqalgan. Tog\_ jinslarini o\_yib olish va doimiy mustahkamlagichlarni o\_rnatish ishlari, vaqtinchalik mustahkamlagichlardan foydalanilmagan holda kovjoy siljishi bilan ketma-ket yuqoridan pastga qarab bevosita kovjoy oldi hududida amalga oshiriladi.

*Stvollarni o\_tishning parallel texnologik sxemasi* Shunisi bilan tavsiflanadiki tog\_ jinslarini o\_yib olish va doimiy mustahkamlagichni o\_rnatish bir vaqtda olib boriladi, faqat boshqa-boshqa zvenalarda. Pastgi zvenada himoyalovchi polka tagida kovjoyni siljitish bilan vaqtinchalik mustahkamlagichni o\_rnatish ishlari bajariladi, yuqori zvenada esa ikki qavatli o\_tish polkasi yordamida vaqtinchalik mustahkamlagichni olib tashlab doimiy mustahkamlagich o\_rnatiladi.

*Stvollarni o\_tishning parallel-Shitli texnologik sxemasi* parallel sxemadan Shunisi bilan farq qiladiki, bunda vaqtinchalik mustahkamlagich vazifasini metall Shitlar bajaradi.

## MA“RUZA №16

### Mavzu: Rudalarni o,,yib olish usullari.


#### REJA:

1. Rudani ajratib olish usullari.
2. Rudani shpurli ajratib olish usullari.
3. Rudani skvajinalar bilan massivdan ajratib olish usullari.

**Dars maqsadi:** talabalarga rudalarni o\_yib olish usullari va ularning klasifikatsiyasiga oid nazariy bilimlar berish, hamda bu bilimlarni amaliyotga qo\_llay olish ko\_nikmalarini shakllantirish.

Rudalarni qazib olishda kuyidagi jarayonlar amalga oshiriladi. Rudani massivdan ajratib olish; ikkilamchi maydalash; rudani blokdan tushirish va tashish gorizontigacha etkazib berish; kon bosimini boshqarish. Ana jarayonlarga sarflanadigan mehnat ruda konlarini er osti usulida qazib chiqarishga sarflanadigan barcha turdag'i mehnatning qariyb 50 foizini tashkil qiladi. Bu jarayonlarning o\_zaro bog\_liqligi ularning texnik –iqtisodiy ko\_rsatkichlariga ta'sir etadi.

**Ajratib olish** – bu rudaning bir qismini maydalab blok massivdan ajratib olish jarayonidir. Rudani ajratib olish burg\_iab-portlatish, mexanik usullardan yoki massivni o\_z-o\_zidan qulashi oqibatida amalga oshirilishi mumkin. Rudani ajratib olish usulini tanlab olishga qator omillar ta'sir ko\_rsatadi, ulardan asosiyлари – rudaning fizik mexanik xususiyatlari, kon-texnik sharoitlari va qo\_llaniladigan qazish tizimi. Ruda konlarini er osti usulida qazib chiqarishda rudani ajratib olish uchun quyidagi portlatish usullaridan foydalaniladi: shpurli, skvajinali va minasimon (markazlashtrilgan zaryad).



16.1-rasm. Rudani shpurli ajratib olish sxemalari: a – qatlam-lab ajratib olish; b- shift-pog\_onalab ajratib olish; v – nimqavatlab ajratib olish; g – vertikal shpurlar orqali ko\_tarilish bo\_yicha rudani tabaqalab ajratib olish; d – shift pog\_ona usulida rudani ajratib olish; e – nimqavat bo\_yicha rudani ajratib olish.

Shpurli ajratib olish usulida ruda massividagi chuqurli 5 m gacha va diametri 75 mm gacha bo\_lgan shpurlar burg\_ilanadi. Ruda konlarini qazib olishda, asosan chuqurligi 2 – 3,5 m va diametri 40-50 mm shpurlar burg\_ilanadi. YUmshoq rudalarda shpur burg\_ilashda (qattiqlik koeffitsienti 4-6 gacha) elektr parmalardan, qattiq rudalarda esa zarba – burilma va zarba-aylanma rusumi burg\_ilash mashinalaridan foydalaniladi. Ruda konlarini qazib chiqarish amaliyotida keyingi mashinalar keng qo\_llaniladi.

Portlovchi modda sifatida potronlashtirilgan kukunsimon (ammoniy № 6 JV, detonit) yoki yumshoq moddalar ishlataladi. SHpurlarni qo\_lda yoki mexanizmlar yordamida zaryadlanadi. SHpurli usulda rudani massivdan ajratib olish qatlama, shift –pog\_ona va nimqavat usullarida bajarilishi mumkin (16.1-rasm).


Shpurli ajratib olish usuli asosan qalinligi 5-8 m gacha bo\_lgan va har qanday og\_ish burchagiga ega ruda yotqiziqlarini qazib olishda qo\_llaniladi.

Qalin ruda tanalari (qalinligi 6-8 m dan katta)ni qazib olishda rudani massivdan ajratib olish skvajinalarga joylashtirilgan zaryadlarni portlatish orqali amalga oshiriladi. Skvajinalar chuqurligi 40-60 m gacha, diametri 60-150 mm gacha bo\_lishi mumkin.

Skvajina usulida rudani ajratib olish ochiq kompensatsion kamerada (bo\_shliqda) yoki siqilgan muhitda, ya‘ni maydalangan kon massasi Bilan to\_ldirilgan makonda bajarilishi mumkin (3.7-rasm), konmpensatsion bo\_shliq hajmiga nisbatan ajratib olinadigan ruda hajmi ikki barobardan ko\_p bo\_lmasligi kerak.

Jipslashish xususiyatiga ega bo\_lmagan qalin, qattiq va o\_rtacha qattiq ruda yotqiziqlari massivdan rudani ajratib olish siqilgan muhitda skvajinalarni portlatish usulida amalga oshiriladi. Bu esa massivdan ajratilgan rudani yaxshi maydanishini ta‘minlaydi. Ruda ajratib olishning skvajina usuli blok massivdagi rudani vertikal, gorizontal yoki qiya qatlamlar bo\_yicha amalga oshiriladi. Bunda skvajinalarni blok kavjoyda parallel yoki elpig\_ichsimon joylashtirish mumkin. Odatda, skvajinalar bir necha qator (5 qatorgacha) joylashtiriladi va ular orasidagi masofa 2-2,5 m bo\_lishi mumkin.

Markazlashtirilgan katta hajmdagi portlovchi modda zaryadini portlatib rudani massivdan ajratib olish usulida portlovchi moda zaryadi maxsus tayyorlangan kon lahimiga joylashtiriladi. Bu usul qalin va qattiqlik koeffitsientyuqori bo\_lgan ruda yotqiziqlarini, shuningdek, kameralar orasidagi qoldirilgan seliklarni qazib olishda qo\_llaniladi.



16.2 - rasm. Rudani skvajinalar bilan massivdan ajratib olish sxemalari: a - kompensatsion bo\_shlikda; b g\_ siqilgan muhitda: 1 – ruda tushirish voronkasi; 2 – kompensatsion kamera; 3 – skvajinalar; 4 – siqilgan ruda.

Rudani mexanik usulda massivdan ajratib olish nisbatan yumshoq rudalarni (marganets, kaliy va boshqa tuzlar) qazib olishda qo\_llaniladi.

Rudani o\_z-o\_zidan qulashiga asoslangan ajratib olish usuli amaliyatda juda kam qo\_llaniladi. Bunday ruda yotqizig\_i o\_ta darzdor bo\_lgani sababli qazish blokidagi ruda o\_zini og\_irlik kuchi va yuqoridagi jins qatlamlarining bosimi ta'sirida qulab massivdan ajralib tushadi. Bu usul iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Bu usul qo\_llanilganda ruda yo\_qotilishi va sifatsizlanishini boshqarib bo\_llmaydi.

**MA“RUZA №17**  
***Mavzu: Rudani ikkilamchi maydalash va etkazib berish.***

**REJA:**

1. Rudalarni skreperlar yordamida etqazib berish.
2. Ruda massasini blokdan tushirish.
3. Ruda bo\_laklarini ikkilamchi maydalash.

**Dars maqsadi:** talabalarda rudalarni ikkilamchi maydalash va etkazib berish usullari bo\_yicha bilim va tushunchalarini hosil qilish.

Texnologik jarayonlar talabiga muvofiq massivdan ajratib olingan ruda bo\_laklari ma'lum kattalikka ega bo\_lishi kerak. Alovida olingan bo\_lakning maksimal o\_lchami ruda tushirish voronkasi, yuklash va tashish vositalari o\_lchamlariga mos kelsa, bunday bo\_laklar konditsion bo\_laklar deyiladi. Ruda konlarini qazib olish amaliyotida konditsion bo\_lakning o\_lchamlari 330-400 mm dan 800-1000 mm gacha bo\_lishi mumkin. Biroq rudani massivdan portlatish orqali ajratib olinganda, ma'lum miqdorda nokonditsion bo\_laklar deb yuritiladi. Ajratib olingan ruda uyumi tarkibida nogabarit bo\_laklar miqdori 5-12% dan 20g\_25% gacha bo\_lishi mumkin. Bu bo\_laklarni yuklash va tashish vositalari o\_lchamlariga moslash uchun, ularni qo\_shimcha maydalash, ya'ni ikkilamchi maydalash lozim bo\_ladi.

Tushirilgan rudani blok xududi chegaralarida yuklash joyiga etkazib berish turli mexanik vositalar orqali bajarilishi mumkin (skreperlar, o\_ziyurar mashinalar, konveyerlar va boshqa vositalar).

O\_zining sodda tuzilishi tufayli skreperlar ruda qazish korxonalarida keng qo\_llaniladi. Skreper qurilmasi – bu davriy (siklli) ishlash tamoyiliga ega bo\_lgan transport vositasi bulib, skreper chig\_iri (lebedkasi), skreper bosh va yordamchi sim arqoni, asosiy va ushlab turuvchi blok (shkiv) lardan tashkil topadi (*15.1-rasm*). Skreper Bilan ruda tashish skreperning mokisimon harakati natijasida bajariladi.


Rudani blokdan tushirish, tushirilgan rudani skreperlash va nogabaritlarni ikkilamchi maydalashga xizmat qiladigan lahimlar majmui – skreperlash gorizonti deyildi.

Rudani skreperlashda ikki, ba'zida uch barabanli, quvvati 7 dan 100 kvt gacha bo\_lgan chig\_irlar, hajmi  $0,1\text{-}2 \text{ m}^3$  gacha bo\_lgan sidirib oluvchi yoki kajava shaklidagi skreperlar, diametri 10-28 mm gacha bo\_lgan sim arqonlardan tashkil topgan skreper qurilmalari qo\_llaniladi. Skreper qurilmalarining unumдорлиги  $20\text{-}350 \text{ m}^3/\text{смена}$  gacha bo\_lishi mumkin. Keyingi vaqtarda rudani etkazib berish jarayonida o\_zi yurar mexanizmlar qo\_llanilishi tufayli skreper qurilmalarining qo\_llanishi biroz cheklanib qolgan.

G\_ildirakli relssiz yuradigan va mustaqil yuritgichga ega bo\_lgan transport vositalari o\_zi yurar mashinalar deyiladi. Bu mashinalar ochiq kavjoy bo\_shliqlari va etkazib berish lahimlarida qo\_llanishga mo\_ljallangan bo\_lib, yuklovchi, etkazib beruvchi va yuklab – tashuvchi mashinalar guruhibga bo\_linadi.

Nogabarlarni maydalash uchun portlovchi moda yoki mexanik maydalagichlardan foydalaniladi. Eng ko\_p qo\_llaniladigan usul portlatish usuli bo\_lib, bunda portlovchi moddaning ustquyma va shpurli zaryadlaridan foydalaniladi. Nogabari bo\_lakda burg\_ilanadigan shpurning chuqurligi 15-20 sm ni tashkil qiladi.

Ruda bo\_laklarini ikkilamchi maydalash bevosita qazish kavjoyda (agar u erga borish imkoniyati xavfsiz bo\_lsa), yoki rudani tushirish va tashish lahimlarida amalga oshiriladi. Ayrim hollarda esa, bu jarayon maxsus barpo etilgan ikkilamchi maydalash lahimlarida bajarilishi mumkin.



*15.1-rasm. Skreperlash gorizonti sxemasi:*

*1 – tashish lahimi (shtrek yoki ort); 2 – skreper chig\_iri; 3 – skreperlash lahimi (ort yoki shtrek); 4 – voronka; 5 g\_sim arqoni; 6 – skreper.*

Ruda konlarini er osti usulida qazib chiqarishda nogabarlarni ikkilamchi maydalashning portlatish usulida boshqa (mexanik, gidravlik, mexanogidravlik va hokazo) usullar kam qo\_llaniladi. Massivdan maydalab ajratib olingan rudani tushurib, tashish gorizontigacha etkazib berish kon qazish ishlari texnologiyasining jarayonlari hisoblanadi va ularni bajarishga ketgan harajatlar miqdori qazish ishlarining umumiy xarajatlarini 40-50% ni tashkil qiladi.

Rudani etkazib berish deganda uni massivdan ajratib olingan joyidan boshlab blokning tashish lahimlarigacha (shtrek yoki ortlarga) etkazib berish tushuniladi. Blok xududida, dastlab o\_z og\_irligi ta'sirida ruda massasi skreperlash gorizontiga tushuriladi, so\_ngra turli transport vositalari orqali vagonchalarda yuklash joyiga etkazib beriladi.

Ruda massasini blokdan tushirish ikki xil, ya‘ni ostki yoki chetki bo\_lishi mumkin.

Ostki tushirishda blokning tub qismida maxsus voronkasimon tushirish lahimlari barpo qilinadi. Blokdagi ruda massasi blokning butun maydoni bo\_ylab voronkalar orqali etkazib berish lahimiga tushadi va skreper qurilmasi Bilan ushbu lahim orqali vagonchalarga yuklash joyiga tashiladi. Ruda tushirish voronkalari kesik konus shaklida blok tubining butun maydoni bo\_yicha hosil qilinadi. Voronka yuqori qismi diametri 6-12 m bo\_ladi (*15.1-rasm*).

**MAVZU: Shaxta atmosferasi va shamollatishga qo,,yiladigan talablar.**

**R E J A**

1. SHaxta atmosferasi tarkibi.
2. SHaxtani shamollatish usullari va turlari.
3. SHaxta atmosferasining temperaturasi va namligi.

**Dars maqsadi:** talabalarga shaxta atmosferasi, uni shamollatish va shamollatish usullari to\_g\_risida bilimlar berish.

SHaxta atmosferasiga ajralib chikayotgan zararli gazlarni xavfsiz konsentratsiyagacha suyultirish uchun shaxtaga etarli mikdorda xavo berilishi talab kilinadi. SHaxta atmosferasidagi zararli bulgan zaxarli gazlarning eng yukori mikdori (EYUM) konchilik sanoatida qabul kilingan xavfsizlik koidalari bilanchegaralanadi (2.2. jadval).

**SHaxta atmosferasidagi zaxarli gazlarning chegaralangan eng yukori mikdori. jadval.** 1 jadval

<b>Zaxarli gazlarning turlari</b>	<b>Kon lahmlaridagi gazlarning EYUM</b>	
	Xajmi buyicha %	Mr/m3
<b>Uglerod oksid (is gazi) SO</b>	0.00170	20
Azot oksidlari (N <sub>2</sub> O hisobida)	0.00026	2
Oltingugurt angidiridi SO <sub>2</sub>	0.00038	10
Vodorod sulfidi N <sub>2</sub> S	0.00071	10
<b>Formaldegidrid SN<sub>2</sub>O</b>	0.00004	0.5

Metan va korbonat angidirid gazlarining shaxta atmosferasidagi mikdori 2.3 jadvalda kursatilgan me‘yorlardan ortib ketmasligi kerak.

**Kon lahmlari atmosferasidagi metanva korbonat andigidirid gazlarining me“yorlari.** 2 jadval

<b>Gaz yigiladigan lahmlar</b>	<b>Gazlarning EYUM %</b>
Kazish yoki utish ishlari olib borilayotgan lahmlardan chikayotgan xavo okimida	<1
SHaxta yoki uning kanotidan chikayotgan xavo okimida	<0.75
Kazish uchastkasi, kazish va utish lahmlari va kameralarga berilayotgan xavo okimida	<0.5
Kazish, utishva boshka lahmlarda metanning maxalliy tuplanishida	<2

Shaxta atmosferasi tarkibi buyicha yukorida keltirilgan jadvallardagi me'yorga javobbermasa zudlik bilan bu lahmlarda ishlar tuxtalib, elektr energiyasi uchirilishiha konchilar toza xavo okimi yuruvchi lahmlarga chikarilishi kerak.

SHaxta lahmlardagi xavoning tezligi buyicha xam 2.4 jadvalda keltirilgan me'yorlardan ortib ketmasligi kerak.

### *Lahmlardagi xavoning eng yukori tezligi.*

*3 jadval*

<b>Kon lahmlari</b>	<b>Xavoning eng yukori tezligi, m/s</b>
SHamollatish skvajinasi va odamlar kutarilmaydigan vosstayishiylar	<b>CHegaralanmagan</b>
Avariya xolatlarida odamlarni kutarish uchun muljallangan shamollatish stvollarini va skvajinalar xamda kutarish kurilmalari urnatilmagan shamollatish stvollarini	15
Fakat yuklarni kutarish va tushirish uchun xizmat kiluvchi stvollar	12
YUklar va odamlarni kutarish va tushirish uchun xizmat kiluvchi stvollar, kvershlaglar, asosiy tashish va shamollatish shtreklari, kapital va panel bremsberglari va uklonlari.	8
Kazish zaboyi va utkazilayotgan boshi berk lahmlar	4
Ruda, kumir yoki tog jinslari orasidan utkazilgan barcha kolgan lahmlar	6

SHu bilan bir katorda kazish lahmlaridagi xavoning minemal tezligi xam me'yoriy talablardan kam bulmasligi kerak: kumir shaxtalarining kazish zaboyerlarda 0,25 m/s; ruda konlarining kazish zaboyerlarda 0,50 m/s; kazish ishlari kameralarida olib borilayotgan kaliy va boshka tuz konlarida 0,15 m/s.

SHaxtalarga xavo berishni boshkarish murakab shamollatish tizimi va kurilmalari yordamida amalga oshiriladi.

SHaxta atmosferasining temperaturasiva namligi 2.5 jadvalda kursatilgan me'yoriy talablarga javob berishi kerak.

## *Shaxta atmosferasining temperaturasiva namligi buyicha me“yorlar.*

**4 jadval**

<i>Xavo tezligi, m/s</i>	% dagi nisbiy namlikka mos keladigan temperatura me‘yori *S		
	60-75	76-90	90 dan ortik
0,25 gacha	24	23	22
0,5	25	24	23
1	26	25	24
2 va undan ortik	26	26	25

Issiklik me‘yorlari talablariga javob bermaydigan shaxtalarda xavo sun‘iy ravishda isitilish yoki sovutilishi talab kilinadi.

Xavsizlik koidalari tomonidan kon lahmlarida changning xam eng yukori mikdori chegaralanadi:

- Tarkibida 10 dan 70 % gacha erkin SiO<sub>2</sub> bulgan ruda yoki tog jinslari changining konsentratsiyasi 2 mr/m<sup>3</sup> ortmasligi;
- Tarkibida 2 dan 10% gacha erkin SiO<sub>2</sub> bulgan kumir changining konsentratsiyasi 4mr/m<sup>3</sup> ortmasligi;
- Tarkibida 2% gacha erkin SiO<sub>2</sub> bulgan ruda, kumir yoki tog jinslari changining konsentratsiyasi 10 mr/m<sup>3</sup> ortmasligi talab kilinadi.

Konlarga ajralib chikadiganchang ogir kasb kasalligi hisoblanuvchi-pnevmoskoniz kasalligi xamda bir vaqtning uzida ma‘lum sharoitlarda chang portlashiga olib kelishi mumkin. CHangga karshi kurashish maksadida foydali kazilma massivini namlash, chang xosil buladigan erlarga suv purkash xamda mashina va mexanizmlar ishlaydigan joylarda jangni surib olish kabi ishlar olib boriladi.

SHaxtalarni shamollatish uchun er osti laximga uzatiladigan xavo mikdorini aniklashdakuyidagi omillar buyichahisob-kitob ishlari olib boriladi.

bir vaqtda er ostida konchilik ishlarini olib borish bilan boglik konchilarining soni buyicha (xar bir ishchiga 6m<sup>3</sup>/mindan kam bulmagan mikdorda xavo berilishi talab kilinadi);

- shaxta atmosferasiga ajralib chikuvchi zaxarli va portlovchi gazlar buyicha;
- portlatish ishlari natijasida ajralib chikadigan gazlar buyicha;
- ichki yonuv divigatellaridan ajralib chikadigan gazlar buyicha;
- shaxtaga berilayotgan xavoning minimal tezligi buyicha.

Yukoridagi omillar buyicha hisoblab topilgan xavo mikdorining eng katta kiymati shaxtaga uzatish uchun qabul kilinadi.

**O.,ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O.,RTA MAXSUS TA“LIM VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI  
“KONCHILIK ISHI” KAFEDRASI**



**KONCILIK ISHI ASOSLARI  
(er osti kon ishlari) fanidan amaliy  
mashg., ulotlarni  
bajarish uchun**

**USLUBIY QO,,LLANMA**

## Amaliy mashg“ulot №1

*Mavzu: Foydali qazilma zahiralarini aniqlash.*

*Ishning maqsadi:* - talabalarga foydali qazilma zahira turlari va zahiralar haqida tushunchalar va boshlang‘ich ma`lumotlar berish.

Shaxta maydoni chegarasidagi foydali qazilma zahiralari quyidagi turlardan iborat: *geologik, balansva balansdan tashqari*.

Har bir konda aniqlangan foydali qazilma miqdori **geologik zahira** deb ataladi.

**Balans zahira** deb - zamonaviy texnologiya taraqqiyoti darajasida iqtisodiy jihatdan qazib olish samarali bo`lgan umumiyligini miqdorning qismi tushuniladi.

**Balandan tashqari zahira** deganda - zamonaviy texnologiya taraqqiyoti darajasida qazib olish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo`lgan umumiyligini miqdorning tegishli qismi tushuniladi.

Foydali qazilma o`rganilish darajasi bo`yicha quyidagi toifalarga bo`linadi:

1. Mujassam tekshirilgan – **A**, **B** va **C<sub>1</sub>** toifalar.
2. Hammasi baholangan – **C<sub>2</sub>** toifa.

“A” toifali zahirasi quyidagi talablarga javob berishi lozim

- o`lchamlari belgilangan;
- foydali qazilmaning tabiiy joylashish sharoiti va shakli aniqlangan;
- foydali qazilma ichida joylashgan atrof kon jinslarining tarxi ajratilgan va belgilangan;
- foydali qazilmaning ichki tuzilishi va tabiiy joylashish sharoiti belgilangan;
- foydali qazilmaning sanoatga yaroqli turlari ajratilgan va belgilangan;
- foydali qazilmaning tarxi belgilangan yoki lahmlar yordamida aniqlangan.

“B” toifali zaxirasi “A” toifadagi zahiraga nisbatan kam darajada o`rganilgan va quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- foydali qazilmaning tabiiy joylashish sharoiti va shakli aniqlangan;
- foydali qazilmaning ichki tuzilishi va tabiiy joylashish sharoiti belgilangan;

“C<sub>1</sub>” toifali zahirasi quyidagi talablarni qoniqtirishi lozim:

- foydali qazilmaning o`lchami va shakli belgilangan;
- foydali qazilmaning texnologik xususiyati sanoatga yaroqli deb baholash uchun etarli darajada o`rganilgan;
- foydali qazilmaning tarxi aniqlangan yoki lahmlar yordamida aniqlangan.

“C<sub>2</sub>” toifali zaxirasi quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- foydali qazilmaning o`lchamlari, shakli, ichki tuzilishi va tabiiy joylashish sharoiti o`rganilgan;
- foydali qazilmaning xususiyatlari laboratoriya sharoitida aniqlangan;

- geologik ma'llumotlarga asoslanib foydali qazilmaga yo'1 ochish mumkinligi belgilangan.

Shaxta maydonining balansdagi zaxiralari quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Z_B = S \cdot H \cdot \gamma \cdot M. \text{tonna}$$

Bu yerda :

$S$  - shaxta maydonining yotish chizig'i bo'yicha uzunligi , m.

$H$  - shaxta maydonining yotish chuqurligi bo'yicha uzunligi, m

$\gamma$  - ruda zichligi, t/m<sup>3</sup>

$M$  - ruda qatlamlamlarining umumiyligini qalilgisi ( $M = m_1 + m_2 + \dots + m_n$ ), m.

Sanoat zaxirasi quyidagicha aniqlanadi.

$$Z_{IP} = Z_B - Z_{NOT}$$

Bu yerda :  $Z_{NOT}$  - foydali qazilmani qazib olishdagi loyihaviy yo'qotilishlar miqdori, t.

Loyihaviy yo'qotilishlar quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Z_{NOT} = Z_0 + Z_\Theta + Z_\Gamma$$

Bu yerda  $Z_0$  – umumshaxta yo'qotilishlari;

$Z_\Theta$  - Ekspluatatsion yo'qotilishlari;

$Z_\Gamma$  - geologik sharoitlarga boglik bo'lgan yo'qotilishlar;

Umum shaxta yo'qotilishlari saqlovchi va to'suvchi butunliklarda (целики) qoldiriluvchi zaxiralardan iborat bo'lib quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Z_0 = 2L_y \cdot (S + H - 2L_y) \cdot \gamma \cdot m + K_1 \cdot Z_B, (t)$$

Bu yerda:  $L_y$  – to'suvchi butunliklar kengligi.

$K_1$  - saqlovchi butunliklarda qoldiriluvchi yo'qotilishlarni hisobga oluvchi koefitsiyent.  $K_1 = 0,01 - 0,02$ ;

Qazib olishga to'sqinlik qiluvchi geologik buzilishlarga bogliq bo'lgan yo'qotilishlar quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Z_\Gamma = K_2 \cdot Z_B, (t)$$

Bu yerda:  $K_2$  - geologik buzilishlar sonini va tavsifini hisobga oluvchi koefitsiyent.  $K_2 = 0,01 - 0,015$

Ekspluatatsion yo'qotilishlar quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$Z_\Theta = (Z_B - Z_0 - Z_\Gamma) \cdot C_\Pi$$

Bu yerda:  $C_\Pi$  - ekspluatatsion yo'qotilishlar koefisienti.

- U yupqa qatlamlar uchun  $C_\Pi = 0,08 (M = 0,8 \cdot 2 \text{ m})$ ;
- O'rtacha qalinlikdagi qatlamlar uchun  $C_\Pi = 0,12 (M = 2 \cdot 5 \text{ m})$ ;
- Qalin nishab qatlamlar uchun  $C_\Pi = 0,15 (M = 5 \cdot 15 \text{ m})$ ;
- Juda qalin va qiya qatlamlar uchun  $C_\Pi = 0,2$  ga teng ( $M = 15 \cdot 60 \text{ m}$ );

Sanoat zaxirasi va balans zahirlar orasidagi bog'liqlik, ya'ni qazib olishdagi yo'qotilishlar koefitsienti aniqligi quyidagi formula yordamida tekshiriladi:

$$C = \frac{Z_{IP}}{Z_B} \leq 1$$

**Misol:** Quyida berilgan sharoit uchun shaxtaning balansdagi va sanoat zahirasi aniqlansin.

**Berilgan:**  $S = 2000\text{m}$ ;  $H = 1000\text{m}$ ;  $m = 2,1\text{m}$ ;  $\gamma = 4,9\text{t/m}^3$ ;  $L_y = 12\text{m}$ ;  $\alpha = 32^\circ$ .

**Echilishi:**

1. SHaxta maydonining balansdagi zahiralari aniqlanadi:

$$Z_B = S \cdot H \cdot \gamma \cdot \sum m \cdot C = 2000 \cdot 1000 \cdot 4,9 \cdot 2,1 \cdot 0,9 = 18522000 \text{ t};$$

2. SHaxta maydonining sanoat zahirasi quyidagicha aniqlanadi:(t)

$$Z_{IP} = Z_B - Z_{NOT} = 18522000 - 3195386 = 15326614 \text{ (t)}$$

3. Umum shaxta nobutgarchiliklarini aniqlaymiz:

$$Z_0 = 2L_y \cdot (S + H - 2L_y) \cdot \gamma \cdot m + \kappa_1 \cdot Z_B = 2 \cdot 12(2000 + 1000 - 2 \cdot 12) \cdot 4,9 \cdot 2,1 + 0,01 \cdot 18522000 = 920172,96 \approx 9201173$$

(t)

4. Qazib olishga to`sqinlik qiluvchi geologik buzilishlarga bog`liq bo`lgan nobutgarchiliklarni quyidagi formula bilan aniqlanadi: (t)

$$Z_F = \kappa_2 \cdot Z_B = 0,01 \cdot 18522000 = 18520, \text{ (t)}$$

5. ekspluatatsion nobutgarchiliklar quyidagi formula bilan aniqlanadi: (t)

$$Z_3 = (Z_B - Z_0 - Z_F) \cdot C_{II} = (18522000 - 920173 - 18520) \cdot 0,12 = 2089992,8 \approx 2089993$$

(t)

6. Sanoat zaxirasi va balans zahirlar orasidagi bog`liqlik, ya`ni qazib olishdagি yo`qotilishlar koeffitsienti aniqligi quyidagi formula yordamida tekshiriladi:

$$C = \frac{Z_{IP}}{Z_B} \square 1 = \frac{15326614}{18522000} = 0,82$$

### Jadval №1

#### №1 amaliy mashgulotni bajarish uchun variantlar:

№	Shaxta maydoni o`lchamari		ruda qatlami qalinligi, $m_i \text{ m}$					Rudanинг zichligi, $\text{t/m}^3$
	Yotish chizig`i bo`yicha uzunligi	Yotish chuqurligi bo`yicha uzunligi	1	2	3	4	5	
1.	4000	2500	2,8	1,0	1,2	-	-	1,35
2.	5200	3000	1,5	1,1	1,4	-	-	1,4
3.	6000	3200	1,2	1,5	-	-	-	1,38
4.	4500	2800	3,8	3,5	-	-	-	1,4
5.	5500	3100	2,9	3,6	-	-	-	1,36
6.	3800	2400	4,2	5,1	6	-	-	1,37
7.	4200	2600	5	5,3	5,5	-	-	1,38
8.	4500	2300	1,2	2,1	1,1	1,5	1,2	1,4
9.	4000	2100	1,3	1,5	1	1,4	0,7	1,36
10.	7000	3500	1,3	1,4	1,2	-	-	1,38
11.	4500	1200	1,8	1,9	2,0	2,2	2,1	2,65
12.	2500	1600	1,6	1,5	2,5	2,8	-	2,6
13.	3500	1500	2,5	2,4	2,0	-	-	2,75
14.	3600	2000	2,8	3,0	3,0	4,1	1,0	2,5
15.	3800	1850	1,8	1,5	2,0	1,9	1,6	2,6
16.	5500	1900	2,5	3,5	-	-	-	2,5
17.	4000	1600	5,1	4,5	3,5	2,4	-	2,65
18.	4200	1700	1,5	1,8	2,1	-	-	2,7
19.	3200	1950	1,2	1,2	2,1	1,2	1,3	2,45
20.	2800	2500	1,8	2,2	-	-	-	2,75

## Amaliy mashg“ulot №2

*Mavzu: Rudnikda melallning ekspluatatsion zahirasini aniqlash*

**Rudani ajratib olish ko“rsatkichi** – bu rudani qazib olishda uni maydalashdan tortib toki uni yuqoriga (yer yuzasiga) olib chiqishgacha bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlarining kompleksini bajarishdan iborat. Rudnukning qurilish davrida barcha bosqichlar ketma-ket amalga oshiriladi, konni bevosita ekspluatatsiya qilish davrida esa parallel ravishda olib boriladi.

Konda rudani massivdan ajratib-maydalab olish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar bajarilish jarayoni **konni qazib olish** deyiladi. Ruda konlarini yer osti usulida qazib olish jarayonlari asosan uch bosqichdan iborat: konni ochish, tayyorlash va qazib olish ishlari.

**Konni ochish** deb, yer yuzasidan ochuvchi kapital kon lahimlarini ruda tanasining hammasiga yoki uning bir qismiga o‘tqazib, tayyorlovchi lahimlar o‘tishga imkoniyat yaratilishiga aytildi. Ochuvchi lahimlar bu: shaxta stvollari, stvol oldi lahimlar majmui va kvershlaglar, kapital ruda tushiruvchi lahimlar, shtol‘nyalar va boshqalar - qazilgan foydali qazilmalarni, ruda emas jinslarni, transport vositalarida yer ostidan yer yuzasiga chiqarish, kishilarni, uskunalarini, materiallarni ishlaydigan ish joyiga etqazish, kon lahimlarini shamollatish, shaxtadagi yer osti suvlarini chiqarish va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladi.

**Tayyorlash, yoki tayyorlash ishlari** - bu shtrekclar, vosstayushiylar, ortlar va boshqa kon lahimlarini o‘tqazib ular orqali konni ochilgan qismida, qazib olinadigan - alohida uchastkalarga, qavatlarga, bloklarga panellarga, ustunlarga ajratiladi.

Qazib olinadigan uchastka ham o‘z navbatida alohida tayyorlovchi va kesuvchi lahimlar bilan bo‘linadi. Bu lahimlar o‘z navbatida alohida qismlarga jamladan: qavat ostini, qatlamlab, kesib kiruvchi pog‘analar, kameralar, kameralar aro, panellar aro va boshqalarga bo‘linadi.

**Qazib olish** - bu qaziladigan uchastkadan rudani massivdan ajratib olib, hosil bo‘lgan bo‘shliqning turg‘unligini saqlab turishga xizmat qiladigan texnologik jarayon.

**Qazib olish tartibi** - qazib olinadigan uchastkani qazib olishda, qazilgan bo‘shliqning holati bilan harakterlanadi. Bu belgi har xil qazib olish tizmlarini qo‘llanishi umumiyligini va har xilligini to‘laroq aks ettiradi, ayniqsa qazib olish texnologiyasini va har bir qazib olish tizimining texnikaviy - iqtisodiy ko‘rsatkichlarini.

**Ochilgan** deb, konni qazib olinayotgan zahirasi, yoki uning bir qismi ochuvchi lahimlar (shaxta stvollari, kvershlaglar, shtol‘nyalar) o‘tilgan gorizontdan yuqori qismida joylashgan ruda zahirasiga aytildi.

**Tayyorlangan** deb, qazib olinadigan uchastkadagi ruda zahirasini chegarasida hamma tayyorlovchi lahimlar (qabul qilingan qazib olish tizimiga muvofiq) o‘tqazilib tayyorlashiga aytildi.

**Qazib olishga tayyor** deb, qazib olinadigan uchastkadagi ruda zahirasidan zarur bo‘lgan hamma kesuvchi lahimlar o‘tqazilib, qazib olishga imkon yaratilishiga aytildi.

**Ruda yo‘qotilishi** – bu rudani qazib olish, massivni ushlab turish to‘sinlarini qoldirish, yetkzib berish, tashish va boshqa jarayonlarda balans zahiralarning bir qismining qolib ketadigan ulushidir.

**Ruda sifatsizlanishi** – deb rudani massivdan ajratib olish, ruda tushurgichlardan tushirish va qayta yuklash jarayonlarida rudaga qoplovchi tog‘ jinslari bilan aralashishiga (suda sifatining pasayishi) aytildi.

Yo‘qotilish koeffitsiyenti (metal, foydali component bo‘yicha) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K = \frac{V_{nom} \cdot \alpha_{nom}}{\alpha_{\delta_l} \cdot B_{\delta_l}}$$

bunda  $V_{nom}$  – balans zahiralarning yoqotilgan ruda miqdori, t;

$\alpha_{nom}$  va  $\alpha_{\delta_l}$  – qazib olinish jarayonida yoqotiladigan balans zahiradagi ruda ya‘ni qazib olinayotgan zahiralari tarkibidagi foydali componentning miqdoriy ko‘rsatkichi (содержание полезного компонента), % (odatda hisoblashlarda  $\alpha_{nom} = \alpha_{\delta_l}$  qabul qilinadi);

$B_{\delta_l}$  – qazib olingan balans zahiradagi ruda miqdori, t.

Ruda sifatsizlanishi koessitsiyenti (разубоживания):

$$P = \frac{\alpha_{\delta_l} - \alpha_{doob}}{\alpha_{\delta_l}}$$

$\alpha_{doob}$  – qazib olingan rudadagi foydali komponentlarning miqdoriy ko‘rsatkichi (содержание полезного компонента в добытоу руде), %.

Ruda yo‘qotilishi (ruda bo‘yicha – rudadagi metallning miqdoriy ko‘rsatkichini hisobga olmagan holatda) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Pi = \frac{V_{nom} \cdot 100\%}{B_{\delta_l}}$$

bunda  $V_{razub}$  – ruda massasiga aralashib ketgan bo‘sh tog‘ jinsi miqdori, t yoki  $m^3$ ;

$V_{doobym}$  – qazib olingan ruda miqdori t yoki  $m^3$ ;

$$V_{doobym} = B_{\delta_l} - V_{nom} + V_{razub} = \frac{B_{\delta_l} \cdot (1-K)}{(1-r)} = \frac{B_{\delta_l} \cdot K_{uzv_l}}{(1-r)}$$

bunda  $r$  – rudaning sifatsizlanishi (разубоживания гиды), %;

Rudani yer qa‘ridan qazib olish koeffitsiyenti,  $K_{uzv_l}$ :

$$K_{uzv_l} = 1 - K$$

Ruda massasining chiqish ko‘rsatkichi:

$$\eta = \frac{V_{doobym}}{B_{\delta_l}}$$

Bo‘sh tog‘ jinslarining aralashib ketish koeffitsiyenti quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$r^1 = \frac{V_{razub} \cdot 100\%}{B_{\delta_l}} = \eta \cdot r$$

**№2 amaliy mashg“ulotni bajarish uchun variantlar**

<b>№</b>	<b><math>B_{\text{on}}, \text{t}</math></b>	<b><math>V_{\text{pom}}, \text{t}</math></b>	<b><math>a_{\text{pom}}, \%</math></b>	<b><math>a_{\text{do\c{o}}}, \%</math></b>	<b><math>r, \%</math></b>
<b>1</b>	25 000 000	1 750 000	2	1,8	13
<b>2</b>	30 000 000	2 400 000	4	3,6	6
<b>3</b>	35 000 000	3 150 000	6	5,4	10
<b>4</b>	40 000 000	4 000 000	4	3,6	11
<b>5</b>	45 000 000	4 950 000	2	1,8	8
<b>6</b>	50 000 000	6 000 000	4	3,6	9
<b>7</b>	55 000 000	7 150 000	6	5,4	7
<b>8</b>	60 000 000	8 400 000	8	7,2	6
<b>9</b>	65 000 000	9 750 000	10	9	10
<b>10</b>	70 000 000	4 900 000	11	9,9	11
<b>11</b>	75 000 000	6 000 000	3	2,7	18
<b>12</b>	80 000 000	7 200 000	5	4,5	17
<b>13</b>	85 000 000	8 500 000	7	6,3	12
<b>14</b>	90 000 000	9 900 000	9	8,1	6
<b>15</b>	95 000 000	11 400 000	7	6,3	10
<b>16</b>	100 000 000	12 000 000	5	4,5	11
<b>17</b>	105 000 000	14 700 000	3	2,7	8
<b>18</b>	110 000 000	16 500 000	5	4,5	9
<b>19</b>	115 000 000	8 050 000	7	6,3	15
<b>20</b>	120 000 000	9 600 000	13	11,7	6

### Amaliy mashgʻulot №3

**Mavzu:** Shaxtaning ishlab chiqish quvvatti va xizmat muddatini aniqlash.

**Ishning maqsadi:** talabalarga shaxtalarning ishlab chikarish quvvati va xizmat muddati haqida tushunchalar berish hamda ularni hisoblash usullarni o`rgatish.

Shaxtaning asosiy parametrlari uning ishlab chiqarish quvvati va xizmat muddati bo`lib, ko`pgina hollarda korxonaning iqtisodiy samaradorligini belgilab beruvchi ko`rsatkich hisoblanadi. Bu ko`rsatkichlar o`zaro, hamda shaxta maydoni sanoat zahiralari bilan chambarchas bog`liq.

**Shaxtaning quvvati deb** – birlik vaqt oraligʻida (sutkalik, smenalik, yillik va boshq.) qazib olingan foydali qazilma miqdoriga aytildi. SHaxta quvvati quyidagi ikki turga bo`linadi: ishlab chiqarish va loyihaviy quvvati.

**Shaxtaning loyihaviy quvvati** deb – kon korxonasi birlik vaqt oraligʻida qazib olishi lozim bo`lgan foydali qazilmaning loyihadagi miqdoriga aytildi.

**Shaxtaning ishlab chiqarish quvvati** deb – kon korxonasing sutkada (yilda) qo`yilgan hajmdagi foydali qazilmani sifat ko`rsatkichning maksimal darajada qazib olinishiga imkoniga aytildi.

**Shaxtaning xizmat muddati** – shaxta maydonida joylashgan sanoat zahirasini qazib olishga ketgan vaqt davomiyligiga aytildi.

Shaxtaning sanoat zaxirasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Z_{np} = Z_{\delta_{al}} \cdot c_{uzel}$$

Bu yerda  $Z_{\delta_{al}}$  - balnasdagи zaxiralar miqdori, mln.t;

$c_{uzel}$  - foydali qazilmani yer qa‘ridan qazib olish koeffitsiyenti (коэффициент извлечения полезного извлекаемого из недр земли);

Shaxtining yillik ish unumdorligi

$$A = \frac{Z_{np}}{T_p}$$

Bu yerda  $Z_{np}$  - shaxtaning sanoat zaxirasi, mln.t;

$T_p$  – shaxtaning ish olib boorish davri, yil;

Shaxtaning umiy ishslash davri quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$T_\phi = T_p + t_1 + t_2$$

Bu yerda  $t_1$  – shaxtaning qurilish davri (loyihaviy quvvatgacha chqish davri),

- $A \leq 0,6$  mln.t bo`lganda  $t_1 \leq 1$ ;
- $0,6 \leq A \leq 1,2$  mln.t bo`lganda  $t_1 \leq 2$ ;

-  $1,2 \leq A \leq 3,0$  mln.t bo`lganda  $t_1 \leq 3$ , va shaxtaning unumdorligi 3,0 mln.t dan yuqori hamda chuqurligi 800 m dan katta bo`lganda uning qurilish davri loyihalar bilan aniqlanadi;

$t_2$  – shaxta maydonidagi zaxiralar qazib olinishida tugatilish davri,  $t_2 = 1 \div 3$  yil;

Shaxtaning sutkalik ish unumdorligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$A_c = \frac{A}{N_{pd}}$$

Bu yerda  $N_{po}$  - bir yildagi ish kunlari soni;

Shaxtaning soatlik ish unumдорligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$A_{uac} = \frac{A_c}{T_{cm} \cdot n_{cm}}$$

Bu yerda  $T_{sm}$  – smena davomiyligi, soat;

$n_{cm}$  - sutkadagi smenalar soni.

### **№3 - amaliy mashg“ulotni bajarish uchun variantlar:**

<b>№</b>	<b><math>Z_{oasi}</math>, mln. t</b>	<b><math>c_{u36t}</math></b>	<b><math>A</math>, mln.t</b>	<b><math>N_{po}</math>, sutka</b>	<b><math>T_{sm}</math>, soat</b>	<b><math>n_{cm}</math></b>
1	500	0,9	0,5	330	8	3
2	600	0,88	0,6	325	8	2
3	700	0,86	0,5	320	8	3
4	800	0,84	0,6	315	8	2
5	900	0,82	0,5	310	8	2
6	1000	0,8	0,6	305	8	3
7	1100	0,78	0,5	300	8	2
8	1200	0,76	0,6	295	8	3
9	1300	0,74	0,5	290	8	2
10	1400	0,9	0,6	285	8	2
11	1500	0,88	0,5	280	8	3
12	1600	0,86	0,6	275	8	2
13	1700	0,84	0,5	270	8	3
14	1800	0,82	0,6	265	8	2
15	1900	0,8	0,5	260	8	2
16	2000	0,78	0,6	255	8	3
17	2100	0,76	0,5	250	8	2
18	2200	0,74	0,6	245	8	3
19	2300	0,9	0,5	240	8	2
20	2400	0,88	0,6	235	8	2

**Amaliy mashg“ulot №4**  
***Mavzu: Shaxta maydonini ochish sxemasini tanlash***

**Ishning maqsadi:** - talabalrga shaxta maydonidagi foydali qazilma zahiralarini ochisha sxemalari, ochuvchi kon lahimlarini joylashtirish bo‘yicha asosiy elementlar haqida ma‘lumotlar berish

**Shtol“nya** - gumbazsimon, trapetsiya ko‘rinishida va kam hollarda to‘g‘ri to‘rtburchakli shaklda bo‘lib, shtol‘nyaning og‘zi tamon 0,001-0,008 qiyalik bilan o‘tiladi.

Shtol‘nyaning uzunligi bir necha kilometrga etishi mumkin. Masalan: Oltin Topgan konidagi transport shtol‘nyasining uzunligi 2 km, Sadon rudnigidagi Mizur shtol‘nyasining uzunligi 4 km dan ortik, AQSHdagi Neysheal tonnel mis konidagi ochuvchi shtol‘nyaning uzunligi 7 km dan ham ko‘proq.

Shtol‘nya konni ochuvchi lahimi sifatida shaxta stvoliga nisbatan qator afzallikkarga ega, ular quyidagilar:

- 1 metr shtol‘nyani o‘tish va mustahkamlashga sariflanadigan harajatlar (yer osti suvining miqdoriga bog‘liq holda) 5-7 barobar arzon, lahimni o‘tish tezligi esa 3-5 barobar yuqori;

- rudani transport vositasida tashish oddiy va arzon, rudani shtol‘nyadan boitish fabrikasiga qadar qayta yuklamasidan keltirish mumkin, kishilar harakatlanishi va yuk tashish xavfsizroqdir;

- suvni chiqarishga sariflanadigan harajatlar ancha kam, suvni haydashga maxsus mexanizmlar talab kilinmaydi, o‘zi oqib chiqadi;

- shtol‘nya og‘ziga yaqin joyda quriladigan inshoatlar ham kam, ko‘targich qurilmasi va binosi qurish talab qilinmaydi;

- shtol‘nya mustahkamlagichini ta‘mirlash ham oson va arzon turadi.

**Shaxta stvollar** ko‘ndalang kesim yuzasi to‘g‘ri-to‘rtburchakli, doirasimon va juda kam hollarda boshqa shakllarga ega bo‘ladi. Hozirgi davrda ko‘pchilik rudniklarda shaxta stvollar doirasimon qurilmoqda.

Stvollarning ko‘ndalang kesim yuzasining o‘lchamlari ularning vazifasiga bog‘liq holda belgilanadi. Kapital stvollar odatta ruda va jinslarni ko‘tarish, kishilarni shaxtaga tushirib chiqarish, mustahkamlovchi materiallarni tushirish va shaxtani shamollatishga xizmat qiladi. Shu stvoldan shaxta suvini chiqarishga va siqilgan havo energiyasini yuborishga xizmat qiladigan metal quvirlar ham joylashtiriladi. Ba‘zan stvollar faqat ruda va jinslarni ko‘tarishga, yoki kishilarni tushirib chiqarishga, yoki faqat shamolatishgagina mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin.

Qo‘llaniladigan bosh lahimlarning turlariga ko‘ra ochish usullari quydagicha guruhlarga bo‘linadi: tik stvollar bilan, qiya stvollar bilan, shtol‘nyalar va kombinatsiyalashtirilgan usullar bilan ochiladi. Birinchi uch usulni oddiy ochish usuli guruhiga birlashtirish mumkin. Ochuvchi bosh lahimlarni: kon bo‘ylab, rуданing yotgan, yoki osilgan yondosh jinslaridan yoki shaxta maydonining chetlaridan o‘tish mumkin. Foydali qazilma puch jinslaridan yoki rudadan, ruda tanasini kesib o‘tuvchi lahimlar bilan ham ochilishi mumkin.

## Ruda konlarini ochish usullarining asosiy sxemalari.

### Oddiy usullari:

1. Kondagi ruda yotqizig‘ining osilgan va yotgan yonlaridan yoki chegaralaridan tik shaxta stvollar bilan ochish.

2. Kondagi ruda yotqizig‘ining osilgan va yotgan yonlaridan va chegaralaridan qiya shaxta stvoli bilan ochish.

3. Kondagi ruda yotqizig‘ining osilgan va yotgan yonlaridan shtol‘nya bilan ochish.

### Kombinatsiyalashtirilgan usullari:

1. Yer yuzasidan tik shaxta stvoli tik ko‘r stvolga o‘tish yo‘li bilan konni ochish.

2. Yer yuzasidan tik shaxta stvoli qiya ko‘r stvolga o‘tish yo‘li bilan ochish.

3. Yer yuzasidan qiya stvol qiya ko‘r stvolga o‘tish yo‘li bilan ochish.

4. Shtol‘nya tik ko‘r stvolga o‘tish yo‘li bilan ochish.


5. Shtol‘nya qiya ko‘r stvolga o‘tish yo‘li bilan ochish.

### **Konni tik stvollar bilan ochish.**

Foydali qazilma tanasi (qatlami) tikka yaqin joylashgan konlarni tik stvollar bilan ochishda, bosh stvol va shaxta maydonining chegaralarida joylashgan yordamchi stvollar kon jinslarining siljish ehtimoli bo‘lgan zona tashqarisiga joylashtiriladi (4.5-rasm). Bosh stvolning har-bir garizontidan ochilayotgan kondagi ruda yotqizig‘iga qadar kvershlaglar o‘tiladi, ruda tanasi bo‘ylab esa yordamchi stvollarga qadar shtreklar o‘tiladi. Rudali konni bunday ochish usuli konchilik sanoatida keng tarqalgandir. O‘zbekiston Respublikasidagi ko‘pchilik rangli va nodir metall konlari MDX davlatlaridagi konlarga o‘xshash, ruda tanasini yotgan yoniga joylashtirilgan tik va ko‘r stvollar bilan ochilgan.

Osilgan yonlardan ochuvchi tik stvollar o‘tish usuli ham qo‘llaniladi, chunki bu usulda kvershlaglarining umumiyligi uzunligi yotgan yonlardagiga nisbatan odatda ancha uzun bo‘ladi.

Bu usul ayrim holatlarda qo‘llaniladi, rudani yotgan yon tmonida suv juda ko‘p bo‘lib, ular turg‘un bo‘lmagan holatda, yoki stvol yotgan yon tomoniga joylashtirish er rel‘efi, yer yuzasi transporti qatnashi, yer yuzasi maydonida qurilish ishlarini amalga oshirishga xalaqt bergqn hollarda qo‘llaniladi.




4.5-rasm. Vertikal stvollar bilan ochish sxemasi: 1 – yuqori qavat tashish shtreki; 2 – pastki qavat tashish shtreki; 3 – tashuvchi kvershlag; 4 – vertikal stvolni konning osma tarafidagi holati; 5 – bosh stvol; 6 – yordamchi stvol.

Ba'zan shaxta maydoni qanotlaridan birida joylashgan tik stvol bilan ochiladi (4.5-rasm). Bu holatda u yordamchi stvol vazifasini bajaradi.

Konni qanot qismidan ochish usilining afzalligi bitta yordamchi stvol o'tish bilan kifoyalanish imkonи mavjudligidur.

Bu ochish usulining kamchiligi, ochish masofasi uzayadi yer osti transportining narxi yuqori bo'ladi, tayyorlanish ishlari, konni shamollatishni murakablashtiradi. Agar shaxta maydonida tugallangan qurilish mavjud bo'lsa va boshqa sabablarga ko'ra konni qanot qismidan ochishdagi kamchilikdan ko'ra uning afzalligi yuqori bo'lgan holatda bu usul qo'llaniladi.

Garizontal va salgina qiya joylashgan garizontal yo'nalishidagi o'lchamlari katta bo'lgan konlarni tik stvollar bilan ochish ikki usulda amalga oshirilishi mumkin (4.6-rasm). Birinchi holatda tik stvol ruda tanasini kesib o'tadi. Ikkinci holatda esa stvol siljis zonasini tashqarisiga joylashtiriladi, bunda o'lchamlari uzun bo'lgan kvershlaglar o'tishga to'g'ri keladi.




4.6-rasm. Konni kesib o'tuvchi tik stvollar bilan ochish sxemasi.

Ruda tanasining cho'ziqligi bo'yicha o'lchamlari katta, garizontal va salgina qiya joylashgan konlarni ochishda ruda tanasini kesib o'tuvchi tik stvollar bilan ochish usuli keng ko'lamda qo'llaniladi. Bunda chuqur bo'lмаган konlarda ochuvchi lahimlar va qoldiriladigan muhofazalovchi saqllovchi butunliklar o'lchami kata bo'lmaydi.

### Qiya stvollar bilan ochish.

Konni qiya stvollar bilan ochishda, yotgan yonidagi jinslardan kon yotqizig'iga paralel qiya stvol o'tilib, undan ruda tanasiga kvershlaglar o'tiladi (4.7-rasm). Kvershlaglarning uzunligi tik stvollar bilan ochilgandagi kvershlaglar uzunligiga nisbatan ancha qisqa bo'ladi. Agar kon yotqizig'inining og'ish burchagi qancha kichik bo'lsa va chuqurligi bo'lsa kvershlaglar uzunligi o'rtasidagi farqi shuncha sezirarli bo'ladi. Konning qanot qismidan o'tkaziladigan yordamchi stvollar ham bu holda qiya yoki tik joylashgan bo'lishi mumkin.

Kon yotqizig'i bo'ylab qiya stvollar bilan ochilganida kvershlaglar utilmaydi va stvolni o'tish tan narxi qazib olingan yo'ldosh ruda hisobiga qisman arzonlashadi. Ammo, bu usulda stvolning turg'unligini ta'minlsh uchun, muhofazalovchi saqllovchi butunliklarni stvolning har ikkala yonlarida ham qoldirilishini taqozo etadi. Qazib olish chuqurlinigining ortib borishi bilan bunday saqllovchi butunliklarning kengligi ham ortib boradi. Ruda tanasi yupqa, etarli darajada razvedka qilinmagan salgina qiya va qiya, joylashish chuqurligi kichik bo'lgan ruda tomirlarini qazib olishda konni qiya stvollar bilan ochish maqsadga muvofiq kelishi mumkin.



4.7-rasm. Konni yotqizilgan yonidan qiya stvol bilan ochish sxemasi: 1-bosh kutaruvchi stvol; 2-konning qanotida joylashgan qiya yordamchi stvol; 3-siljish zonasining chegarasi.

Qiya stvollar bilan konni ochishning asosiy kamchiligi, uning qo'llanish doirasi cheklanganligidir.


Ruda va jinslar massasini ko'tarish mashinasi yordamida skip yoki vaganotkalar jrqli amalga oshiriladi. Konni ochuvchi stvollarning og'ish burchagini bu holatda  $10^{\circ}$  dan  $30^{\circ}$  gacha bo'lган qiyalikda bo'lishi maqsadga muvofiq keladi. Konni qiya stvol bilan ochganda rudani ko'tarish uchun stvol konveyer transporti bilan jixozlangan bo'lsa uning qo'llanish doirasi anchagina kengaygan bo'lar edi.

«Erington» (Kanada) temir konida yordamchi skip-kletli stvol bilan (4.8-rasm) birga ruda ko'taradigan qiya stvol ham o'tilgan. Qiya stvol lentali konveyer tizimi bilan jixozlangan bo'lib konveyerning uzunligi 1300 metr, maydalangan rudani yer yuzasiga konveyerda chiqaradi. Konveyerning joylashgan qiyalik burchagi  $16^{\circ}$  ish unumdorligi 400 t/soatni tashkil etadi.

Pastki garizontlarda (chuqurligi 850 m) rudani pog'onali konveyer transporti tizimida ko'tarish loyhalangan bo'lib maxsus qiya stvollar (3,4,5) kon jinslarining siljish ehtimoli bo'lган zona tashqarisidan o'tilgan. Ruda tashiladigan konveir transportining umumiyligi uzunligi 4800 metr, yuk tashiladigan garizontlarda ham elektravozli transportni, keyinrok konveyer transporti bilan almashtirish nazarda tutilgan.

«Bauers Kembell» (AQSH) rudnigada Rux-ruda koni spiral simon joylashgan qiya stvol bilan ochilgan bo'lib uning og'ish burchagi  $9-10^{\circ}$  dan iborat. Spiral simon trassanining uzunligi 1420 metr bo'lib mahkam turg'un jislardan o'tilgan. U ruda tanasi atrofini 3,5 marta aylangan. Rudani kovjoyidan boyitish fabrikasining ruda bunkeriga qadar avtomobil transportida tashiydi.

Konveyer bilan tashiganda qiyalik burchagi odatda 16-20° dan yuqori emas, lekin maxsus konveyer qo'llanilsa stvolning qiyalik burchagi yuqori bo'lishi ham mumkin. Masalan: «Klareks-Sente» (AQSH) gips rudnigida kon qiya stvol bilan ochilgan bo'lib uning og'ish burchagi 30° bo'lib, lentali konveyer bilan jixozlangan. Lentaning eni 800 mm, bu turdag'i konveyerda og'ish burchagi 40° bo'lgan stvolda ham qazilmalarni tashib chiqarish mumkin. Ko'p garizontli (qavatli) konlarni qazib chiqarishda lentali konveyer transportini qo'llash iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lishi ham mumkin.



4.8-rasm. «Erinton» rudnigining ochish sxemasi: 1 - qiya stvol (1 navbat); 2 - yordamchi stvol; 3, 4, 5 - konveyerli ko'tarish tegishlicha ikkinchi, uchunchi va to'rtinchi navbati; 6 – bo'lajak drenaj garizontlari; 7 – bo'lajak qabul qiluvchi garizontlar; 8 - drenaj garizonti; 9 - qabul qiluvchm garizont.

Shuni aytish kerakki Artem nomidagi (Krivbasda) rudnigini qiya stvol bilan ekspluatatsiya qilish tajribasi shuni ko'rsatdiki chuqur garizontlardan rudani konveyer transportida ko'tarish, skipi ko'tarish usuliga nisbatan ko'p kapital va ekpluatatsiya harajatlari talab etilganligi sababli konveyer transportida rudani ko'tarish maqsadga muvofiq emasligi aniqlangan. Konveyer transportida ko'tarish 1-2 garizontli ruda konlarini ekspluatatsiya qilishda skipi ko'tarish usuliga nisbatan iqtisodiy jihatdan samaralidir.

### **Konni shtol'nyalar bilan ochish.**

Konni shtol'nyalar bilan ochish boshqa ochish usullariga nisbatan qator afzaliklarga ega, shuning uchun yer yuzasi rel'efi va konning yotqizilish sharoiti shtol'nya bilan ochishga imkon bersa, bu usul qulayligi bilan o'zining samadorligini ko'rsatadi.


Shtol'nya ruda tanasining yotqizig'iga nisbatan quydagicha joylashtirilishi mumkin: ruda tanasining cho'ziqligi bo'yicha yoki ruda tanasini cho'ziqligiga ko'ndalang.

Ruda tanasining qalinligi yubqa bo'lgan konlarni ochishida uning tanasining cho'ziqligi bo'yicha ruda bo'ylab o'tkaziladi, ruda tanasi juda qalin bo'lgan konda shtol'nya odatda ruda tanasiga parallel ravishda yondosh jinslardan o'tqazilib undan ruda tanasiga qadar kvershlag yoki ortlar (ort-zaezdlar) o'tkaziladi.

Shtol'nyani ruda tanasining osilgan yoki yotgan yonlaridan biriga joylashtirish rudaning cho'ziqligiga nisbatan ko'ndalang ochilsa tog yon bagri holatiga qarab aniqlanadi.

Konning shtol'nya joylashtirilgan yuza satxidan yuqorisida bo'lган qismini odatda bir necha qavatlarga bo'lib qazib olinadi, shuning uchun konni ochishga ikki xil usul qo'llanilishi mumkin.

Birinchi usulda har bir qavat alohida shtol'nyalar bilan ochilishi mumkin. Bu shtol'nya garizontni shamollatish, materiallar tashib keltrish, rudamas jinslarni chiqarish va kishilar harakatlanishiga xizmat qiladi. Ruda pastki garizontga ruda tushiriladigan maxsus lahim orqali tushiriladi (4.9-rasm).



4.9-rasm. Ruda tanasining cho'ziqligi bo'yicha konni ochish sxemasi:

1 - yon jinslardan o'tkazilgan kapital shtol'nya; 2 - puch jinslar agdarmasi; 3 - qavatdagi rudadan o'tilgan shtol'nya; 4 - ruda tushiriladigan lahim; 5 - kvershlag.

Ikkinci usulda eng pastki qismida bitta kapital shtol'nya o'tkaziladi, bu usulda ruda tanasining joylashish sharoitiga ko'ra har bir qavatda uzun o'lchamdagи shtol'nyalar yondosh jinslardan o'tkazilishi kerak. Shtol'nya satxidan yuqorisida joylashgan qavatlar kapital vosstayushiy yoki yer yuzasiga chiqmaydigan shamolatuvchi stvollar o'tilib, ular narvon bo'lishi va kletlar bo'limlaridan iborat bo'lishi mumkin. Yuqori qavatlardagi rudani tushirish uchun bir necha ruda tushuruvchi lahimlar o'tiladi.

Shtol'nya usulida konni ochish «Apatit» ishlab chiqarish birlashmasining rudniklarida apatita-nefilin rudalarini qazib olishda, «Rasvungarri» rudnigida kon zahirasi ko'ndalang kesim yuzasi  $36 \text{ m}^2$  uzunligi 5 km bo'lган shtol'nya bilan ochilib, rudani ruda tushuruvchi lahimlardan pastki garizontga tushiriladi. Ruda tushuruvchi lahimlarning diametri 5-6 metr, chuqurligi 130-600 metrni tashkil etadi.


Olmaliq kon metallurgiya kambinatiga qaraydigan «Oltin-topgan» koni qator shtol'nyalar bilan ochilgan bo'lib, ruda kapital transport shtol'nyaga ruda tushuruvchi lahimlar orqali tushuriladi. Uning chuqurligi 50-80 m deametri 5-6 metrni tashkil qiladi. Transport shtol'nyaning uzunligi 2 km.

Shnol'nya bilan «Sadon» polimetall koni (shtol'nyaning uzunligi 5 km ga yaqin) «El'-Sal'veador» mis koni (CHili) shtol'yaning uzunligi 5 km, «Klaymaks» molibden koni (AQSH) va O'zbekistonda «Ko'chbulloq», —Zarmitan|| va —Qoraqo'ton|| oltin konlari ham shtol'nya bilan ochilgan.

Shtol'nyalar og'zini shunday joyga joylashtirish kerakki unga bahorgi, kuzgi yomgir, sel suvlari kira olmaydigan bo'lishi, shtol'nya og'ziga yaqin sanoat maydonchasining o'lchami unga joylashtiriladigan bino inshoatlarini qurishga etarli maydonchaga, keladigan transport yo'li qulay joylashgan bo'lishi kerak. Oxirgi shartni bajarish imkonibor'lmagan holda rudani shtol'nya maydonidan po'lat arqonli qurilmada yoki konveyerlarda tashish mumkin.

### **Konni kombinatsiyalashtirilgan usulda ochish.**

Kombinatsiyalashtirib ochish usullarining mohiyati shundan iboratki, konning yuqori qismi bitta ochuvchi bosh lahim bilan ochilsa, pastki qismi esa boshqa lahim bilan ochilib rudani har ikkala ochuvchi lahimlaridan chiqarish mumkin.



4.10-rasm. Konni tik pogana simon sxema bilan ochish: 1-stvol (yer yuzasidan o'tkazilgan); 2-ko'r stvollar.

Bunday ochish usuli ruda tanasi katta chuqurlikda joylashgan bo'lsa, rudani bitta stvoldan ko'targanda berilgan qazib chiqarish quvvatini ta'minlash imkonibor'lmaganda qo'llash maqsadga muvofiq keladi.


Konning yer yuzasidan 1200 m chuqurlikgacha bo'lgan qismi tik stvol bilan ochilsa, uning pastki qismi yer yuzasiga chiqmaydigan tik yoki qiya ko'r stvollar bilan ochiladi (4.10-rasm).

Yer yuzasidan o'tilgan stvolning chuqurligi, bitta stvolda maksimal yo'il qo'yilgan ko'tarish balandligi bilan aniqlanadi. Ochishning ikkinchi pog'anasi yer yuzasiga chiqmaydigan ko'r stvol bilan odatda 600-1200 m chuqurlikgacha bo'lgan qismida amalga oshiriladi. Pog'onali ochish usuli shaxtaning ish umumдорligini oshirishdan tashqari, pastki (chuqurdagi) garizontlardagi kvershlaglar uzunligini qisqartirish imkonini yaratadi.

Pog'onali ochish usuli «Champion-Rif» oltin konida (Hindiston) qo'llanilgan bu erda tik stvol yer yuzasidan 1976 metr chuqurlikgacha o'tilib, uning pastki qismi 2 ta tik joylashtirilgan yer yuzasiga chiqmaydigan ko'r stvol bilan 3300 m bo'lgan chuqurlikgacha ochilgan. Bosh stvolda yuk ikki qavatli kletda ko'tariladi.

Kletga 50 kishi, yoki har birining sig‘imi 1.25 t bo‘lgan 4 ta vagonetka joylashtiriladi, konning osilgan yonidan bir necha yordamchi stvollar o‘tilgan.

«Mak-Intayr» (Kanada) konining rudnigi yer yuzasidan tik stvol bilan 1175 m chuqurlikdagi garizontga qadar ochilib pastki qismi yer yuzasiga chiqmaydigan 2 ta ko‘r stvollar bilan 2200 m chuqurlikgacha ochilgan (4.10-rasm). Kon tomirli ruda bo‘lib, og‘ish burchagi  $70-80^\circ$ . Uchta stvolning hammasi ham skipli va kletli ko‘tarish qurilmalari bilan jixozlangan. Qiya va salgina qiya joylashgan konning chuqur garizantlarini ochishda konning osilgan yon qismidan tik stvollar o‘tilib, rudani yotgan qismidan esa qiya stvol o‘tqazilgan (4.11-rasm).



4.11-rasm. Chuqur garizontlarni kombinatsiyalashtirib tik va qiya stvollar bilan ochish: 1 - tik stvol; 2 - qiya stvol; 3 - qiya ko‘r stvol.


Janubiy Afrika respublikasining chuqur oltin rudniklarida 2 asosiy variatlarni qo‘llash keng tarqalgan:

1. Konni qazib olish boshlanganida uning yuqori qism 600 m chuqurlikgacha tik stvollar bilan ochilib (4.11-rasm, a), ruda tanasining yotgan yonidan qiya ko‘r stvol o‘tilib mustaqil ko‘tarish qurilmasi bilan jixozlangan. Qiya ko‘r stol o‘tishning asosiy sababi kvershlaglar uzunligini qisqartirishga intilish natijasidir


2. Kon yer yuzasidan qiya stvol bilan ochilib (4.11-rasm, b), stvolning uzunligi katta o‘lchamga etganida tik stvol yordamida bir pog‘onali ko‘tarish ikki pog‘onali, qiya va tik orqali ko‘tarish sxemasi bilan almashtirgan.

Tik stvolning qiya stvol bilan kesishish sxemasi 4.12-rasmida ko‘rsatilgan. Qiya ko‘r stvolning ko‘taruvchi mashinasi, mashina kamerasiga (1) o‘rnatilgan. Rudani skipda ruda tushiruvchi lahimga (4) va bunkerga (3) keltiriladi. U joydan tik stvol skipiga (2) yuklanadi.

Tog‘li joylarda shtol‘nya satxidan pastki qismida joylashgan konni kombinatsiyalashtirilgan usulda ochish sxemasi qo‘llaniladi. Bu holda shtol‘nyaning pastki qisminini ko‘r stvol bilan ochish sxemasi qo‘llaniladi (4.13-rasm).



4.12-rasm. Tik stvolning qiya stvol bilan kesishish sxemasi.



4.13-rasm. Shtol‘nya va ko‘r stvollar bilan ochish sxemasi.

4.13-rasmda konning yuqori qismi ikkta kapital shtol‘nya bilan (1), pastki qismi ruda yotqizig‘iga tik joylashtirilgan tik ko‘r stvol bilan (2) yoki qiya stvol (3) bilan ochish sxemasi ko‘rsatilgan.

## Amaliy mashg“ulot №5

### *Mavzu: Pnevmatik perfaratorning unumdorligini hisoblash.*

**Ishdan maqsad:** Konchilik sanoatida ishlatiladigan perfaratorlarning turlari qo‘llanilish sharoitlari haqida tushunchaga ega bo‘lish hamda pnevmatik perfaratorlarning ish unumdorligini hisoblashni o‘rganish.

Ruda konlarini qazib olishda rudani maydalash ishlarida ko‘pincha burg‘ulash portlatish ishlari keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Bunda shpurlar va skvajinalar burg‘ulash dastgohlari yordamida amalga oshiriladi. Burgulash dastgohlarida asosiy ish bajarish uskunasi bu burgulash mashinasi bo‘lib hisoblanadi. Burg‘ulash mashinalari perfaratorlar va burgulash golovkalari (kallagi) kabi turlari mavjud.

Qo‘llanilish sharoitiga bog‘liq ravishda burgulash mashinalari quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Ko‘chma perfaratorlar (Пневмосиловые перфораторы (PP));
2. Teleskopik perfaratorlar (Телескопные перфораторы (PT));
3. Kolonkali perfaratorlar (Колонковые перфораторы (PK));
4. Burgulash golovkalari (Бурильные головки).

Ishlashda qo‘llaniladigan energiyaning turiga bog‘liq ravishda burg‘ulash mashinalari quyidagicha turlarga bo‘linadi:

1. Pnevmatik perfaratorlar;
2. Gidravlik perfaratorlar;
3. Elektro perfaratorlar.

Burg‘ulash mashinalarini tanlashda quyidagi asosiy faktorlar mavjud, ular:

1. Burg‘ulanayotgan zaboydagi tog‘ jinsining qattiqligi;
2. Burgulanadigan shpurlar yoki skvajinalarning eng katta chuqurligi;
3. Shpur yoki skvajinaning diametri.

Perfaratorning smenalik ish unumdorligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_{\delta} = 0,06 \cdot v \cdot T \cdot R \text{ p.m/smena}$$

Bu yerda  $v$  – perfaratorning burg‘ulash tezligi, mm/min;

$T$  – smena davomiyligi, soat;

$R$  – burg‘ulash uskunasidan (perfarator) vaqt birligidan foydalanish koeffitsiyenti,  $R = 0,4 \dots 0,75$ .

Perfaratorning haqiqiy burg‘ulash tezligini aniqlash uchun quyidagi empiric formuladan foydalanish mumkin:

$$v = \frac{13400 \cdot A \cdot n}{d^2 \cdot (10 \cdot \sigma_{\text{сж}})^{0.59}} \text{ mm/min}$$

Bunda  $A$  – zarb berish energiyasi, J;

$n$  – zarbalar chastotasi, Gers;

$d$  – shpur diametri, mm;

$\sigma_{\text{сж}}$  – tog‘ jinsining bir o‘q bo‘ylab siqilgandagi mustahkamlik chegarasi, MPa, ya‘ni

$\sigma_{\text{сж}} = 10 \cdot f$  MPa;

$f$  – tog‘ jinsining professor M.M. Protodyakonov shkalasi bo‘yicha qattiqlik koeffitsiyenti.

**Misol:** Misol uchun NKMK MKBdag'i Murumtau shaxtasi sharoitini qabul qilamiz;

Tog' jinsining professor M.M. Protodyakonov shkalasi bo'yicha qattiqlik koeffitsiyenti  $f = 16$ ;

Shpur diametri (YT 29A tipidagi perforator uchun)  $d = 43 \text{ mm}$ ;

Zarbalar chastotasi  $n = 37 \text{ Gers}$ ;

Zarb berish energiyasi  $A = 70 \text{ J}$ ;

Smena davomiyligi  $T = 7,2 \text{ soat}$ ;

Bir yildagi ish kunlari soni  $N_{p\delta} = 250 \text{ kun}$ ;

YT 29A perfaratori uchun Perfaratorning haqiqiy burg'ulash tezligini quyidagicha aniqlaymiz:

$$v = \frac{13400 \cdot A \cdot n}{d^2 \cdot (10 \cdot \sigma_{cyc})^{0.59}} = \frac{13400 \cdot 70 \cdot 37}{43^2 \cdot (10 \cdot 10 \cdot 16)^{0.59}} = 242 = 0,24 \text{ p.m/min}$$

Perfaratorning smenalik ish unumdorligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_\delta = 0,06 \cdot v \cdot T \cdot R = 0,06 \cdot 242 \cdot 7,2 \cdot 0,58 = 60,6 \text{ p.m/smena}$$

Perfaratorning yillik ish unumdorligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_{eod} = Q_\delta \cdot N_{p\delta} \cdot n_{cm} \cdot k = 60,6 \cdot 250 \cdot 3 \cdot 0,8 = 36360 \text{ p.m/yil}$$

### №3 amaliy mashgulotni bajarish uchun variantlar:

No	Perfarator markasi	Koronka (shur yoki skvajina) diametri, d, mm	Burg'ulash chuqurligi, m	Zarb berish energiyasi, A, J	Zarbalar chastotasi, n Gers	Tog' jinsining qattiqlik koeffitsiyenti f	Bir yildagi ish kunlari soni
	PP36V2	32	2	36	35	13	250
	PP50V1	36	3	50	34	14	260
	PP54V2	45	4	55	40	15	270
	PP60HV	32	2	60	40	16	280
	PP63	45	5	63	83	17	290
	PP76V	40	12	76	38	18	300
	PP80HV	46	9	76	33	14	305
	SSPB-1K	36	5	63	32	15	310
	PT-48A	52	15	47	43	16	315
	PT-63	43	5	63	30	17	320
	PP36V2	40	2	40	40	17	325
	PP50V1	36	3	50	34	18	330
	PP54V2	44	4	56	40	14	290
	PP60HV	40	2	60	40	15	300
	PP63	45	5	74	30	16	305
	PP76V	65	12	76	38	17	310
	PP80HV	46	9	76	33	18	315
	SSPB-1K	46	9	63	32	14	320
	PT-48A	85	15	47	43	15	325
	PT-63	46	5	63	30	16	330

## Amaliy mashg“ulot №6

***Mavzu: Yer osti kon ishlarida o“ziyurar burg“ulash dastgohining unumdorligini hisoblash***

**Ishdan maqsad:** Konchilik sanoatida qo‘llaniladigan o‘ziyurar burgilash dastgohlarining gidravlik perfaratotrlarning turlari qo‘llanilish sharoitlari haqida tushunchaga ega bo‘lish hamda perfaratorlarning ish unumdorligini hisoblashni o‘rganish.

Ruda konlarini qazib olishda rudani maydalash ishlarida aksariyat hollarda burg‘ulash portlatish ishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda shpurlar va skvajinalar burg‘ulash dastgohlari yordamida amalga oshiriladi. Burgulash dastgohlarida asosiy ish bajarish uskunasi bu burgulash mashinasi bo‘lib hisoblanadi. Burg‘ulash mashinalari perfaratorlar va burgulash golovkalari (kallagi) kabi turlari mavjud.

Atlas Copco, Sandvik va boshqa markalardagi o‘ziyurar burgilash dastgohlarida iste‘molchilar talablariga, kon geologiksharoitlar, shpur va skvajinalar parametrlari, tog‘ jinsi hamda qo‘llaniladigan uskunaning taxnik xususiyatlaridan kelib chiqib turli xildagi perforatorlar o‘rnatalishi mumkin.

Perfaratorning smenalik ish unumdorligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_{\delta} = 0,06 \cdot v \cdot T \cdot R \cdot k \text{ p.m/smena}$$

Bu yerda  $v$  – perfaratorning burg‘ulash tezligi, mm/min;

$T$  – smena davomiyligi, soat;

$R$  – burg‘ulash uskunasidan (perfarator) vaqt birligidan foydalanish koeffitsiyenti,  $R = 0,4 \dots 0,75$ .

$k$  – burg‘ilash dastgohidan vaqt birligida foydalanish koeffitsiyenti  $k = 0,7 \dots 0,9$ ;

Perfaratorning haqiqiy burg‘ulash tezligini aniqlash uchun quyidagi empiric formuladan foydalanish mumkin:

$$v = \frac{13400 \cdot A \cdot n}{d^2 \cdot (10 \cdot \sigma_{syc})^{0,59}} \text{ mm/min}$$

Bunda  $A$  – zarb berish energiyasi, J;

$n$  – zarbalar chastotasi, Gers;

$d$  – shpur diametri, mm;

$\sigma_{syc}$  – tog‘ jinsining bir o‘q bo‘ylab siqilgandagi mustahkamlik chegarasi, MPa, ya‘ni  $\sigma_{syc}=10 \cdot f$  MPa;

$f$  – tog‘ jinsining professor M.M. Protodyakonov shkalasi bo‘yicha qattiqlik koeffitsiyenti.

**Masala:** Misol uchun NKMK JKB Zarmitan rudnigi sharoitida amaliyotda qo‘llanilayotgan uskunalardan birini qaraymiz;

Tog‘ jinsining professor M.M. Protodyakonov shkalasi bo‘yicha qattiqlik koeffitsiyenti  $f = 18$ ;

Shpur diametri (COP 1132 Atlas Copco tipidagi perforator uchun)  $d = 51 \text{ mm}$ ;

Zarbalar chastotasi  $n = 100 \text{ Gers}$ ;

Zarb berish energiyasi  $A = 110 \text{ J}$ ;

Smena davomiyligi  $T = 7,2 \text{ soat}$ ;

Bir yildagi ish kunlari soni  $N_{pd} = 250 \text{ kun}$ ;

COP 1132 Atlas Copco perfaratori uchun haqiqiy burg‘ulash tezligini quyidagicha aniqlaymiz:

$$v = \frac{13400 \cdot A \cdot n}{d^2 \cdot (10 \cdot \sigma_{cyc})^{0.59}} = \frac{13400 \cdot 110 \cdot 100}{51^2 \cdot (10 \cdot 10 \cdot 18)^{0.59}} = 680 \text{ p.m/min}$$

Perfaratorning smenalik ish unumdorligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_{\delta} = 0,06 \cdot v \cdot T \cdot R \cdot k = 0,06 \cdot 680 \cdot 7,2 \cdot 0,7 \cdot 0,85 = 175 \text{ p.m/smena}$$

Perfaratorning yillik ish unumdorligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_{zod} = Q_{\delta} \cdot N_{pd} \cdot n_{cm} \cdot k = 175 \cdot 250 \cdot 3 \cdot 0,8 = 105000 \text{ p.m/yil}$$

**№6 amaliy mashgulotni bajarish uchun variantlar:**

Nº	Perfarator markasi	Tog‘ jinsining qattiqligi ,f	Koronka (shur yoki skvajina) diametri, d, mm	Zarb berish energiyasi, A, J	Zarbalar chastotasi, n Gers	Smena davomiyligi, T, soat	Bir yildagi ish kunlari soni
1.	SOR 1238ME	16	33 ' 89	240	60	7,2	250
2.	SOR 1240	17	40 ' 102	170 ' 190	52	7,12	260
3.	SOR 1532	16	33 ' 51	250	65	7,2	270
4.	SOR 1638	15	33 ' 76	267	60	7,2	280
5.	SOR 1638HD	14	38 ' 64	267	60	7	290
6.	SOR 1640	13	51 ' 89	260 ' 270	60	7,2	300
7.	SOR 1838HD	12	38 ' 64	330	60	7,1	305
8.	SOR 1838ME	14	38 ' 89	330	60	7	310
9.	SOR 1838MUX	15	38 ' 89	330 ' 360	42 ' 60	7,2	315
10.	SOR 1840	16	76 ' 115	330 ' 360	42 ' 50	7,2	320
11.	SOR 2160	12	89 ' 127	350	36	7	325
12.	SOR 2238	14	51 ' 76	300	73	7,12	330
13.	SOR 2238HD	13	38 ' 64	300	73	7,1	290
14.	COP2550UX	15	76 ' 115	570	42 ' 55	7,2	300
15.	COP 2560	14	89 ' 127	416	44	7,12	305
16.	COP 3038	17	43 ' 64	294	102	7	310
17.	SOR 3060MUX	15	76 ' 115	546 ' 640	47 ' 55	7,2	315
18.	COP 4050	16	89 ' 165	590 ' 630	35 ' 55	7,12	320
19.	COP 4050MEX	13	89 ' 127	590 ' 630	53 ' 62	7	325
20.	COP 4050MUX	15	89 ' 127	590 ' 630	53 ' 62	7,1	330
21.	HLX5 (Sandvik)	14	43 ' 64	330	40 ' 60	7,12	250
22.	HE119 и HE122	13	22 ' 45	50 ' 67	40 ' 60	7,2	260
23.	HL300	15	43 ' 64	133	40 ' 60	7	270
24.	HL510 и HL560	16	32 ' 89	267 ' 350	40 ' 60	7,2	280
25.	HL600 и HL600S	15	48 ' 102	275	40 ' 60	7,1	290
26.	HL700 и HL700LH	14	64 ' 115	325 ' 350	40 ' 60	7,2	300
27.	HL1000 / HL1000S	13	89 ' 152	417	40 ' 60	7	305
28.	HL1500/HL1500 LH	15	89 ' 152	500	40 ' 60	7,12	310
29.	DF 415	16	32 ' 35	80 ' 90	40 ' 60	7,1	315
30.	DF 425	13	36 ' 41	110 ' 120	40 ' 60	7,2	320

## Amaliy mashg“ulot №7

### *Mavzu: Pnevmatik yuklagichlarninig unumdorligini hisoblash*

Bugungi kunda konchilik sanoati korxonalarida turli xildagi pnevmatik yuklagichlar va o‘ziyurar yuklovchi yetkazib beruvchi mashinalar qo‘llaniladi. Ular qo‘llanilish sharoiti va tashish joyiga bog‘liq ravishda turli xil nomlanadi (yuklovchi-yetkazib beruvchi mashinalar, yuklovchi-tashuvchi mashinalar – PDM, PTM).

#### **1. Pnevmatik yuklagichlarninig ish unumdorligini hisoblash:**

Amaliy mashg‘ulotni bajarish uchun PPH-2 (PPN-2) tipdagи pnevmatik yuklagichlarninig ish unumdorligini hisoblaymiz:

Kovsh hajmi, m <sup>3</sup>	0,32
Dvigatelining quvvati, kVt	26,5
Yuklash fronti, m	2,5
Gabarit o‘lchamlari, mm:	
- eni (ishchi turadigan maydoncha bilan birga)	1320
- ishchi blandligi	2350
Massasi, t	4,7
O‘rtacha tashish masofasi, l m,	21
Yuk bilan o‘rtacha harakatlanish tezligi $v_{er}$ , m/s	1
Yuksiz o‘rtacha harakatlanish tezligi $v_{por}$ , m/s	1,5

Tog‘ jinsining maydalanish koeffitsiyenti:

$$k_p = 0,16\sqrt{f} + 1,34 = 0,16 \cdot \sqrt{12} = 0,16 \cdot 3,5 + 1,34 = 1,9.$$

Pnevmatik yuklagichlarninig ish unumdorligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_s = \frac{3600 \cdot V_k \cdot k_h \cdot k_{ucn}}{T_u \cdot k_p} \text{ m}^3/\text{soat}$$

Bunda:  $V_k$  – PPN-2 ning kovshi hajmi  $V_k = 0,32 \text{ m}^3$ ;

$k_h$  – kovshni tog‘ jinsi bilsn to‘ldirish koeffitsiyanti  $k_h = 0,7 \cdot 0,9$ ;

$k_{usp}$  – yuklagichdan vaqt birligidan foydalanish koeffitsiyenti  $k_{usp} = 0,7 \cdot 0,9$ ;

$T_u$  – bitta sikl davomiyligi, sek;

$$T_u = t_{haep} + t_{ep} + t_{pa3e} + t_{nop}$$

Bunda  $t_{haer}$  – yuklagichning kovshni to‘ldirish davomiyligi  $t_{haer} = 5 \text{ sek}$ ;

$t_{er}$  – to‘la kovsh bilan harakatlanish vaqt (vagonetkagacha):

$$t_{er} = \frac{l}{v_{er}} = \frac{21}{1} = 21 \text{ sek};$$

$t_{razz}$  – kovshni bo‘shatish davomiyligi (vagonetkaga)  $t_{razz} = 5 \text{ sek}$ :

$t_{por}$  – bo‘sh kovsh bilan harakatlanish vaqt (zaboygacha):

$$t_{por} = \frac{l}{v_{por}} = \frac{21}{1,5} = 14 \text{ sek};$$

Bitta sikl davomiyligi:

$$T_u = t_{haep} + t_{ep} + t_{pa3e} + t_{nop} = 5 + 21 + 5 + 14 = 45 \text{ sek};$$

Pnevmatik yuklagichlarning ish unumdorligi:

$$Q_3 = \frac{3600 \cdot V_k \cdot k_h \cdot k_{ucn}}{T_u \cdot k_p} = \frac{3600 \cdot 0,32 \cdot 0,85}{45 \cdot 1,9} \cdot 0,9 = 10,3 \text{ m}^3/\text{soat}$$

Pnevmatik yuklagichlarnig smenalik ish unumdorligi:

$$Q_{cm} = T_{cm} \cdot Q_3 = 10,3 \cdot 7,2 = 74,2 \text{ m}^3/\text{smena};$$

Pnevmatik yuklagichlarnig yillik ish unumdorligi:

$$Q_{co\delta} = N_{cm} \cdot Q_{cm} = N_{p\delta} \cdot n \cdot Q_{cm} = 305 \cdot 3 \cdot 74,2 = 67893 = 67,9 \text{ ming m}^3/\text{yil};$$

### **№7 amaliy mashgulotni bajarish uchun variantlar:**

Nº	$V_k, m^3$	$f$	$t_{haer}, sek$	$t_{razz}, sek$	$v_{er}, m/s$	$v_{por}, m/s$	$l, m$
1	0,3	11	3	4	1,2	1,2	11
2	0,35	12	4	5	1,25	1,3	12
3	0,4	13	5	3	1,3	1,4	13
4	0,45	14	3	4	1,35	1,5	14
5	0,5	15	4	5	1,4	1,6	15
6	0,55	16	5	6	1,45	1,7	16
7	0,6	17	6	4	1,5	1,8	17
8	0,65	18	4	5	1,55	1,9	18
9	0,7	19	3	4	1,6	2	19
10	0,75	20	4	5	1,65	1,2	20
11	0,8	11	5	3	1,7	1,3	21
12	0,85	12	3	4	1,75	1,4	22
13	0,9	13	4	5	1,2	1,5	23
14	0,95	14	5	6	1,25	1,6	24
15	1	15	6	4	1,3	1,7	25
16	1,05	16	4	5	1,35	1,8	26
17	1,1	17	3	4	1,4	1,9	27
18	1,15	18	4	5	1,45	2	28
19	1,2	19	5	3	1,5	1,2	29
20	1,25	20	3	4	1,55	1,3	30
21	1,3	11	4	5	1,6	1,4	31
22	1,35	12	5	6	1,65	1,5	32
23	1,4	13	6	4	1,7	1,6	33
24	1,45	14	4	5	1,75	1,7	34
25	1,5	15	5	5	1,8	1,8	35

## Amaliy mashg“ulot №8

### *Mavzu: O‘ziyurar yuklovchi yetkazib beruvchi mashinalar unumdorligini hisoblash*

O‘ziyurar yuklovchi - yetkazib beruvchi va yuklovchi - tashuvchi mashinaning smenalik ish unumdorligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$H_n = \frac{(T - t_{n_3} - t_u) \cdot V_k \cdot K_3}{(t_o + t_e) \cdot k_{om} \cdot K_p} \text{ m}^3/\text{min}$$

Bunda  $T$  – smena davomiyligi  $T = 7,2$  soat = 432 min;

$t_{pz}$  – smena davomida mashina turiga bog‘liq bo‘lgan tayyorlovchi-tugatuvchi operatsiyalar davomiyligi  $t_{pz} = 30 + 70$ ;

$V_k$  – mashina kovshining hajmi,  $\text{m}^3$ ;

$t_v$  – yordamchi operatsiyalarni amalga oshirish uchun ketadigan vaqt, har bir reys uchunt $v$  = 0,8 + 3 min/reys;

$t_u$  – ishchining shaxsiy vaqt,  $t_u = 10$  min;

$t_v$  – vagonetkalarni almashtirish, joyini o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni bajarishga ketadigan vaqt,  $t_v = 3,3 + 6,9$  мин/  $\text{m}^3$ .

$k_{om}$  – dam olish koeffitsiyenti  $k_{om} = 1,05$ ;

$K_r$  – tog‘ jinsining maydalanish koeffitsiyenti,  $K_r = 1,3 \cdot 1,8$ ;

$t_o$  – asosiy operatsiyalarni bajarishga ketadigan vaqt;

$$t_o = \frac{2 \cdot L}{v_c} + t_n + t_p,$$

Bunda  $L$  – tashish masofasi, m;

$v_s$  – tashish vaqtidagi o‘rtacha tezlik,  $v_s = 75 + 80$  m/min;

$t_r$  – kovshni bo‘shatish vaqt,  $t_r = 1$  мин;

$t_p$  – avtosamosval kuzovini o‘ziyurar yuklovchi – yetkazib beruvchi (tashuvchi) mashina yordamida to‘ldirish uchun ketadigan vaqt:

$$t_n = \frac{V \cdot K_3 \cdot t_u}{V_k \cdot K_{3,k}}$$

Bunda  $V$  va  $V_k$  – o‘z navbatida avtosamosval kuzovi va yuklovchi mashina kovshining hajmi,  $\text{m}^3$ ,  $V = 3 + 5 \cdot V_k$ ;

$K_z$  va  $K_{z,k}$  – kuzov va kovshning to‘ldirilish koeffitsiyenti  $K_z = 0,9$ ,  $K_{z,k} = 0,75$ ;

$t_u$  – kovshni to‘ldirib olish tsikli davomiyligi  $t_u = 0,8$  min.

#### **Masala:**

Amaliy mashg‘ulotni bajarish uchun ST-2D tipdagи o‘ziyurar yuklovchi ish unumdorligini hisoblaymiz:

Kovsh hajmi, $\text{m}^3$	2,0
Dvigatelining quvvati, $\text{kVt}$	63
Gabarit o‘lchamlari, mm:	
- eni (ishchi turadigan maydoncha bilan birga)	1555
- ishchi blandligi	6880
- balandligi	2,086
Massasi, t	11,54
O‘rtacha tashish masofasi, $L$ , m,	300
O‘rtacha harakatlanish tezligi $v_c$ , m/min	75
Yuksiz o‘rtacha harakatlanish tezligi $v_{por}$ , m/s	1,5

### **Yechilishi:**

Bitta reysda asosiy operatsiyalarga ketadigan vaqt:

$$t_o = \frac{2 \cdot L}{v_c} + t_n + t_p = \frac{2 \cdot 300}{75} + 1,2 + 1 = 10,2 \text{ min;}$$

ST2D yuklovchi yetkazib beruvchi mashinaning smenalik ish unum dorligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$H_n = \frac{(T - t_{n_3} - t_a) \cdot V_k \cdot K_s}{(t_o + t_e) \cdot k_{om} \cdot K_p} = \frac{(432 - 30 - 10) \cdot 2 \cdot 0,75}{(10,2 + 0,8) \cdot 1,05 \cdot 1,3} = 39,2 \text{ m}^3/\text{smena}$$

### **№8 amaliy mashgulotni bajarish uchun variantlar:**

№	L, м	V, м <sup>3</sup>	V <sub>k</sub> , м <sup>3</sup>	t <sub>r</sub> , мин	t <sub>u</sub> , мин
1	250	0,5	5	0,5	0,3
2	300	0,75	5,5	0,6	0,35
3	350	1	6	0,7	0,4
4	400	1,25	6,5	0,8	0,45
5	450	1,5	7	0,9	0,5
6	500	1,75	7,5	1	0,55
7	550	2	8	1,1	0,6
8	600	2,25	8,5	1,2	0,65
9	650	2,5	9	1,3	0,7
10	700	2,75	9,5	1,4	0,75
11	750	3	10	1,5	0,8
12	800	3,25	10,5	1	0,85
13	850	3,5	11	1,1	0,9
14	900	3,75	11,5	1,2	0,95
15	950	4	12	1,3	1
16	1000	4,25	12,5	1,4	1,05
17	1050	4,5	13	1,5	1,1
18	1100	4,75	13,5	1	1,15
19	1150	5	14	1,1	1,2
20	1200	5,25	14,5	1,2	1,25
21	1250	5,5	15	1,3	1,3
22	1300	5,75	15,5	1,4	1,35
23	1350	6	16	1,5	1,4
24	1400	6,25	16,5	1,5	1,45
25	1450	6,5	17	1,5	1,5

## Amaliy mashg“ulot №9

### *Mavzu: Rudnikda lokomotiv transporti unumdorligini hisoblash*

**Ishning maqsadi:** - talabalarga foydali qazilmani qazib oligandan keyin ularni ko‘tarish laximlarigacha yetkazib berish va yer yuzigacha olib chiqish haqida ma`lumotlar berish. Temir yo`l transporti ish unumdorliklarini hisoblashni o‘rgatish.

Yer osti kon ishlarida ko‘p turdagи transport turlaridan foydalilanadi. Bu trasnsportlarga misol qilib temir yo`l transporti, avtomobil transporti, konveyer transporti, sim-argonli yo`l, skreperlar va boshqalarni aytish mumkin.

#### **Temir yo`l transporti ish unumdorligini hisoblash.**

Temir yo`l transporti ish unumdorligi badyali ko‘tarish (бадъевоу родъем) qurilmasining ish unumdorligidan 1,25 marta, kletli ko‘tarish (клетевоу родъем) qurilmasi ish unumdorligidan 1,5 marta yuqori bo`lishi kerak.

Lokomotivning ish unumdorligini hisoblash uchun bizga idishlarning umumiylajmi  $V$ , harakatlanish yo`li uzunligi  $L$  va tsikl davomiyligi  $T_u$  ni bilish zarur.

Temir yo`l transporti ish unumdorligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Q = \frac{3600 \cdot V \cdot \gamma \cdot k}{T_u}, \text{ t/soat}$$

Bu erda  $V$ -idishlar (vagonetkalar)ning umumiylajmi:

$$V = n_{vae} \cdot V_{vae}, \quad \text{m}^3$$

$k$ -idishlarning (vagonetkalarning) to`ldirilish koeffitsienti ( $k=0.9$  deb qabul qilamiz);

$T_u$  - tsikl davomiyligi, sek;

$n_{vae}$  - vagonetkalar soni;

$V_{vae}$  - vagonetka hajmi,  $\text{m}^3$ .

$\gamma$  -rudanining ziyaligi,  $\text{t/m}^3$

Bitta tsikl davomiyligi quyidagicha aniqlanadi:

$$T_u = \frac{2 \cdot L}{v_{cp}} + n_{vae} \cdot (t_{man} + t_{ep} + t_{nop}), \text{ sek}$$

Bu yerda  $L$  - tashish masofasi, m;

$v_{cp}$  - lokomotivning o`rtacha harakatlanish tezligi,  $0.8 \cdot 0.9 \cdot v_{max}$ ,  $\text{m/sek}$ ;

$t_{man}$  - manyovr jarayonlariga ketadigan vaqt, ( $t_{man} = 30$  sek).

$t_{zp} = 10$  sek – bitta vagonetkani rudatushirkich lyuki yordamida to`ldirishga ketadigan vaqt.

$t_{nop}=10$  sek – bitta vagonetkani bo`shatishga ketadigan vaqt.

Lokomotivning inventar parki:

$$N_{uhb} = \frac{A_{uu}}{Q \cdot N_{p\partial} \cdot T_{cm} \cdot n_{cm}} \cdot \frac{N_{kal}}{N_{p\partial}}$$

**Berilgan:** Shaxtaning ish unumdorligi

Shaxtaning yillik ish unumdorligi  $A_{sh}=3\ 000\ 000$  t;

Bir yildagi ish kunlari soni  $N_{ro} = 300$  kun;

Tashish yo`li uzunligi  $L = 3000$  m;

Vagonetka hajmi  $V_{vag}=4$  m<sup>3</sup>;

Lokomotivdagagi vagonetkalar soni  $n_{vag} = 6$ ;

Rudanining zichligi  $\gamma = 2,6$  t/m<sup>3</sup>;

Lokomotivning maksimal tezligi  $v_{max} = 36$  km/soat,  $v_{sr} = 36 \cdot 0,8 = 10 \cdot 0,8 = 8$  m/sek.

**Yechilishi:**

Idishlar (vagonetkalar)ning umumiyligi hajmi:

$$V = n_{bae} \cdot V_{bae} = 6 \cdot 4 = 24 \text{ m}^3,$$

Bitta tsikl davomiyligi quyidagiicha aniqlanadi:

$$T_u = \frac{\underline{2}L}{v_{cp}} + n_{bae} \cdot (t_{man} + t_{zp} + t_{nop}) = \left| \frac{\underline{2}3000}{10 \cdot 0.8} + 6 \cdot (30 + 10 + 10) \right| = 1050 \text{ sek},$$

Lokomotiv transporti ish unumdorligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Q = \frac{3600 \cdot V \cdot \gamma \cdot k}{T_u} = \frac{3600 \cdot 24 \cdot 2,6 \cdot 0,9}{1050} = 193 \text{ t/soat}$$

Lokomotivning inventar parki:

$$N_{uhb} = \frac{A_{uu}}{Q \cdot N_{p\partial} \cdot T_{cm} \cdot n_{cm}} \cdot \frac{N_{kal}}{N_{p\partial}} = \frac{3000000}{193 \cdot 300 \cdot 3 \cdot 6} \cdot \frac{365}{300} = 3,5 \approx 4 \text{ ta sostav.}$$

**№9 amaliy mashgulotni bajarish uchun variantlar:**

Nº	$A_{uu}$ , t/yil	$N_{rd}$ , kun	$L$ , km	$V_{vae}$ , m <sup>3</sup>	$n_{vae}$	$\gamma$ , t/m <sup>3</sup>	$v_{max}$ , km/soat
1	3000000	320	4	4	5	2,5	36
2	3200000	330	5	3,5	4	2,6	45
3	3100000	290	5,2	3	6	2,7	38
4	2800000	300	6	5	5	2,5	36
5	3900000	310	7	3,5	6	2,6	39
6	3150000	280	6	4,5	5	2,5	35
7	2500000	250	4	2,5	4	2,5	36
8	2600000	275	5	2,5	5	2,4	39
9	2700000	290	5,5	3	4	2,45	32
10	3000000	270	6	4	5	2,3	36
11	3300000	280	5	3	4	2,35	36
12	3500000	290	6	3,5	5	1,35	30
13	3600000	300	5	2,5	5	1,4	36
14	4000000	290	5,5	2,5	6	1,35	38
15	3800000	310	4	3,5	5	1,7	36
16	3500000	300	5,6	2,6	5	1,8	40
17	4200000	300	5,3	2,5	6	1,35	36
18	3300000	290	4,5	3,5	5	1,9	39
19	3150000	270	4,2	3,5	4	1,85	36
20	4500000	300	3,5	2,5	5	1,35	36

**Amaliy mashg“ulot №10**  
**Mavzu: Rudnikda o“ziyurar yuklovchi tashish mashinalari unumdorligini hisoblash**

**Ishning maqsadi:** - talabalarga foydali qazilmani qazib oligandan keyin ularni ko‘tarish laximlarigacha yetkazib berish va yer yuzigacha olib chiqish haqida ma‘lumotlar berish. O‘ziyurar avtomobil transporti ish unumdorliklarini hisoblashni o‘rgatish.

Shaxta avtosamosvalining smenalik ish unumdorligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Q_{cm} = V_{kyz} \cdot k_3 \cdot k \cdot n \text{ m}^3/\text{smena}$$

bunda  $V_{kuz}$  – avtosamosval kuzovining hajmi,  $\text{m}^3$ ;

$k_z$  – avtosamosval kuzovining to‘ldirilish koeffitsiyenti  $k_z = 0,8 \dots 0,95$ ;

$k$  – avtosamosvaldan vaqt birligida foydalanish koeffitsiyenti;

$n$  – bir smenadagi reyslar soni;

Bir smenadagi reyslar soni quyidagicha aniqlanadi:

$$n = \frac{T_{cm}}{T_u} \text{ reys.}$$

Bunda  $T_{sm}$  – smena davomiyligi,  $T_{sm} = 7,2$  soat = 432 min;

$T_u$  – bitta tsikl davomiyligi, min;

Bitta tsikl davomiyligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$T_u = t_{o'jcuo} + t_{noz} + t_{man} + t_{epyjic} + t_{nop} + t_{pas}$$

Bunda:  $t_{o'jcuo}$  – yuklashni kutish vaqt, o‘rtacha  $t_{o'jcuo} = 3 \div 5$  min deb qabul qilamiz;

$t_{noz}$  – tog‘ jinsini VДРУ-4TM tipidagi yuklagich yordamida yuklash davomiyligi avtosamosval kuzovi hajmiga bog‘liq ravishda,  $t_{noz} = 3 \div 5$  min;

$t_{man}$  – manyovr operatsiyalarini bajarishga ketadigan vaqt  $t_{man} = 1$  min;

$t_{epyjic}$  – yukli avtosamosvalning bo‘shatish joyigacvha harakatlanib borishga ketadigan vaqt, min;

$t_{nop}$  – bo‘sh avtosamosvalning yuklanish joyigacvha harakatlanib borishga ketadigan vaqt, min;

$t_{pas}$  – tog‘ jinsini boshatishga ketadigan vaqt,  $t_{pas} = 0,5$  min;

Yukli avtosamosvalning bo‘shatish joyigacvha harakatlanib borishga ketadigan vaqt:

$$t_{epyjic} = \frac{L}{v_{epyjic}^{cp}}$$

Bunda:  $L$  – tashish masofasi, km;

$v_{epyjic}^{cp}$  – yukli avtosamosvalning bo‘shatish joyigacvha harakatlanib borishga ketadigan vaqtidagi o‘rtacha tezlik,  $v_{epyjic}^{cp} = 8 \div 10$  km/soat;

bo'sh avtosamosvalning yuklanish joyigacvha harakatlanib borishga ketadigan vaqt:

$$t_{\text{nop}} = \frac{L}{v_{\text{nop}}^{\text{cp}}}$$

Bunda:  $v_{\text{nop}}^{\text{cp}}$  - bo'sh avtosamosvalning yuklanish joyigacvha harakatlanib borishga ketadigan vaqtidagi o'rtacha tezlik,  $v_{\text{nop}}^{\text{cp}} = 10 \div 15$  km/soat;

Avtosamosvalning yillik ish unumdorligi:

$$Q_{\text{soot}} = Q_{\text{cm}} \cdot N_{\text{pd}} \cdot n_{\text{cm}}$$

Bunda:  $N_{\text{pd}}$  – bir yildagi ish kunlari soni;

$p_{\text{sm}}$  – bir sutkadagi smenalar soni,  $p_{\text{sm}} = 3$ ;

Avtosamosvallarning ishchi parki quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N_{\text{napk}}^{\text{paob}} = \frac{\prod_{\text{pyodnik}}}{Q_{\text{soot}}}$$

Bunda:  $P_{\text{rudnik}}$  – rudnikning yillik ish unumdorligi,  $\text{m}^3$ ;

Avtosamosvallarning inventar parki quyidagi formula orqali aniqlanadi:

Bunda:  $n_{\text{pe3}}$  – rezerv avtosamosval koeffitsiyenti,  $n_{\text{pe3}} = 1,1 \div 1,4$  yoki  $n_{\text{pe3}} = \frac{N_{\text{kaz}}}{N_{\text{pd}}}$ ;

Agar rudnikning yillik ish unumdorligi tonnada beriladigan bo'lsa quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\Pi_{\text{pyodnik}} = \frac{\prod_{\text{tonnna}}}{\gamma}$$

Bunda:  $\Pi_{\text{pyodnik}}^{\text{tonnna}}$  – rudnikning tonnadagi yillik ish unumdorligi;

$\gamma$  – tog' jingining hajmiy og'irligi,  $\text{t/m}^3$ ;

#### №10 amaliy mashgulotni bajarish uchun variantlar:

№	$P_{\text{rudnik}} \text{m}^3$	$L, \text{km}$	$N_{\text{pd}}, \text{kun}$	$V_{\text{kuz}} \text{m}^3$	$k$
1	500 000	0,6	300	5	0,71
2	525 000	0,7	305	6	0,73
3	550 000	0,8	310	7	0,74
4	575 000	0,9	315	8	0,76
5	600 000	1	320	10	0,77
6	625 000	1,1	325	12	0,79
7	650 000	1,2	330	15	0,80
8	675 000	1,3	335	20	0,82
9	700 000	1,4	340	5	0,83
10	725 000	1,5	345	6	0,85
11	750 000	1,6	350	7	0,86
12	775 000	1,7	300	8	0,88
13	800 000	1,8	305	10	0,89
14	825 000	1,9	310	12	0,91
15	850 000	2	315	15	0,92
16	875 000	2,1	320	20	0,94
17	900 000	2,2	325	5	0,95
18	925 000	2,3	330	6	0,97
19	950 000	2,4	335	7	0,98
20	975 000	2,5	340	8	1,00

## Amaliy mashg“ulot № 11

**Mavzu: Loyihaviy quvvatni bajarish uchun kerakli uskunalar sonini aniqlash.**

Shaxta maydonining ma`lum zahirasiga ko`ra shaxtaning yillik ishlab chiqarish quvvatini tanlash jarayonida asosiy kon qurilmalarining sonini aniqlash mumkin.

### **1. SHaxta avtosamosvallarining zaruriy qiymatini aniqlash**

Tashuvchi qurilmalarning zaruriy qiymatini (ishchi park) quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$N = \frac{A_{uu}^{\tilde{uu}}}{Q_{aem.cam}}$$

Bu erda,

$A_{uu}^{\tilde{uu}}$  - shaxtaning kon massasi bo`yicha yillik ishlab chiqarish quvvati, t.

$Q_{aem.cam}$  - avtosamosvalning yillik ishlab chiqarish quvvati, t/god;

Avtosamosvalning yillik ishlab chiqarish quvvati:

$$Q_{uu} = Q_{cm} \cdot N_{uk} \cdot n_{cm} \cdot \gamma$$

Bu erda:

$Q_{cm}$  - avtosamosvalning bir smenadagi ishlab chiqarish quvvati, m<sup>3</sup>;

$N_{uk}$  - yillik ish kunlari soni;

$p_{sm}$  - bir sutkadagi smenalar soni,  $p_{sm} = 3$ ;

$\gamma$  - tog` jinsi(ruda)ning hajmiy massasi, t/m<sup>3</sup>;

Avtosamosvalning bir smenadagi ishlab chiqarish quvvati:

$$Q_{cm} = V_{kyz} \cdot k_3 \cdot k \cdot n$$

Bu erda:

$V_{kuz}$  - kuzov sig`imi, m<sup>3</sup>;

$k_z$  - avtosamosval kuzovining to`ldirish koeffitsienti  $k_z = 0,8 \dots 0,95$ ;

$k$  - avtosamosvalning vaqt bo`yicha foydalanish koeffitsienti  $k = 0,7 \dots 0,9$ ;

$n$  - bir smenadagi qatnovlar soni;

Shaxta avtosamosvallarining inventar parki quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$N_{uh6} = N \cdot k_{pe3}$$

$k_{rez}$  - qurilmalarning rezerv koeffitsienti,  $k_{rez} = 1,1 \dots 1,3$ ;

### ***Yuklab - etkazuvchi mashinalarining zaruriy qiymatini aniqlash:***

Yuklab - yetkazuvchi mashinalarining zaruriy qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$N = \frac{A_{uu}^{\tilde{uu}}}{Q_{IOEM}}$$

Bu yerda:  $A_{uu}^{\tilde{uu}}$  - shaxtaning kon massasi bo`yicha yillik ishlab chiqarish quvvati, t;

$Q_{IOEM}$  - yuklab-etkazuvchi mashinalarning yillik ishlab chiqarish quvvati, t/god;

Bitta yuklab-etkazuvchi mashinaning yillik ishlab chiqarish quvvati:

$$Q_{\text{ittil}} = Q_{cm} \cdot N_{uk} \cdot n_{cm} \cdot \gamma$$

Bu yerda:  $Q_{cm}$  - YUEMning bir smenadagi ishlab chiqarish quvvati, m<sup>3</sup>;

$N_{uk}$  – yillik ish kunlari soni;

$p_{sm}$  – bir sutkadagi smenalar soni,  $p_{sm} = 3$ ;

$\gamma$  - tog' jinsi(ruda)ning hajmiy massasi, t/m<sup>3</sup>;

YUEMning bir smenadagi ishlab chiqarish quvvati:

$$Q_{cm} = V_{kovsh} \cdot k_{kovsh}^{k_{kovsh}} \cdot k \cdot n_{IOEM}$$

gde  $V_{kovsh}$  – kovsh sig‘imi, m<sup>3</sup>;

$k_z$  – YUEMning kovsh to`ldirish koeffitsienti,  $k_z^{kovsh} = 0,75 \dots 0,9$ ;

$k$  – YUEMning vakt bo`yicha foydalanish koeffitsienti  $k = 0,7 \dots 0,9$ ;

$p_{IOEM}$  – bir smenadagi qatnovlar soni;

Yuklab-etkazuvchi mashinalarning inventar parki quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$N_{uhb} = N \cdot k_{pez}^{IOEM}$$

$k_{pez}^{IOEM}$  – qurilmaning rezerv koeffitsienti,  $k_{pez}^{IOEM} = 1,1 \dots 1,5$ ;

### 11-Amaliy ishni bajarish uchun variantlar

Nº	$A_{uu}$ , t	$V_{kuiz}$ , m <sup>3</sup>	$V_{kovsh}$ , m <sup>3</sup>	$\gamma$ , t/m <sup>3</sup>	$N_{uk}$ kun	$p$ , reys/smena	$P_{IOEM}$ , reys/smena
1	200 000	7	0.5	1.35	240	5	10
2	300 000	8	1	1.4	245	6	12
3	400 000	9	1.5	1.45	250	7	14
4	500 000	10	2	1.5	255	8	16
5	600 000	12	2.5	1.55	260	9	18
6	700 000	14	3	1.6	265	10	20
7	800 000	15	3.5	1.65	270	11	22
8	900 000	16	4	1.7	275	12	24
9	1 000 000	18	4.5	1.75	280	13	26
10	1 100 000	20	5	1.8	285	14	28
11	1 200 000	7	0.5	1.85	290	15	30
12	1 300 000	8	1	1.9	295	5	14
13	1 400 000	9	1.5	1.95	300	6	16
14	1 500 000	10	2	2	305	7	18
15	1 600 000	12	2.5	2.05	310	8	20
16	1 700 000	14	3	2.1	315	9	22
17	1 800 000	15	3.5	2.15	320	10	24
18	1 900 000	16	4	2.2	325	11	26
19	2 000 000	18	4.5	2.25	330	12	28
20	2 100 000	20	5	2.3	335	13	30

## Amaliy mashg“ulot №12

### **Mavzu: Gorizontal va qiya kon lahimlarning ko“ndalang kesimi yuzalarini aniqlash**

**Ishning maqsadi:** - talabalarga gorizontal va qiya kon lahimlarning ko‘ndalang kesimi yuzalarini aniqlashni hisoblashni o‘rgatish.

Er osti inshootlarini loixasini tuzishda er osti kon laximlarini shakli va ko‘ndalang kesimi yuzalarini tanlash,

-ularni qamrab oluvchi tog\_ jinslarini fizik-mexanik xususiyatlari,

-kon bosimi ta‘siri namoyoni,

-laximning qo\_llanilishi va xizmat qilish muddati xavsizlik qoidalariga binoan,

-laximlarda ishlatalidigan material va musaxkamlagichlar turi qurilish normalari(me’yorlari) va loixalash qoidalariga talablarini qondirishi,

-shu qatorda ishlab chiqarish qoidalari va kon ishlarini olib borish tejamliligida-dir.

Ishlab chiqarish amaliyoti natijalariga asosan arkasimon, gumbazsimon (qubba-svodchatly), trapetsiyasimon shaklidagi kon laximlari keng tarqalgan. Kam xollarda aylanasimon,taqasimon,to‘g‘riburchakli va boshqa ko‘rinishdagi shakillardir.

**Trapetsiyasimon laximlarning shaklini tanlash** odatda kon bosimi asosan, ko‘proq laximning shift qismidan va kamroq laximning yon tomonidan ta‘sir etganda o\_tiladi. Trapetsiya shaklidagi, yog\_och mustaxkamlagichlar bilan jixozlangan er osi gorizontal kon laximlari, xizmat qilish muddati uzoq bo\_lmagan laximlarda(2-3yildan oshmaydigan laximlar uchun, 5-6 yilgacha maxsus yog\_ochlarda ) keng tarqalgan.

**Trapetsiyasimon laximlarning (ko‘ndalang kesim yuzalari, eni, balandligi)** ni xisoblash, laximning qo\_llanilishidan, laximda xarakatlanuvchi texnikalarning (mashi-nalarning) asosiy o\_lchamlaridan, odamlarning xarakatlanish usullaridan , laximdan xavo xarakatlanish miqdoridan va **grafoanalitik** usul bilan aniqlanadi.

**Misol:** Bir izli temir yo,,l laximlarining to,,g,,ri qismlari uchun trapetsiya shaklidagi yog,,och mustaxkamlagichlar bilan jixozlangan er osi gorizontal kon laximlarini ko‘ndalang kesimi yuzasini xisoblash.

**1) Grafigini, ya“ni shaklini shartli ravishda chizib olamiz va laximning mustaxkamlagich bo,,yicha minimal ichki eni (v svetu)ni aniqlaymiz.**

Xavsizlik qoidalariga asosan relsda xarakatlanuvchi transport voitalari uchun yog\_och mustaxkamlachlar bilan mustaxkamlangan laximlar, xarakatlanuvchi sostav bilan mustax-kamlachlar orasidagi masofa **t=250 mm** dan kam bo\_lmasligi kerak. Piyodalar bemalol xar-akatlanadigan maxsus jixozlar jixozlar bilan jixozlangan yulak eni **p=700mm** dan kam bo\_lmasligi kerak, yulak yoki ballast qatami dan 1800 mm balandlikda.

### Osilgan kontakt simlarining balandligi:

- faqat tog\_ jinslarini tashuvchi laximlarda 1800 mm dan kam
- shtrek va kvershlaglarda 2000 mm dan kam
- stvol oldi dalalarda 2200 mm dan kam bo\_ lmasligi kerak
- kontakt simlari bilan mustaxkamlachlar orasidagi masofa  $i=200 \text{ mm}$  dan kam bo\_ lmasligi kerak,
- ikki izli temir yo\_lli laximlarda sostavlar orasidagi masofa  $r=200 \text{ mm}$  dan kam bo\_ lmasligi kerak.

Laxim nomi

SHtrek

Ballast qalinligi (temir yo‘l shpallari tagiga yotqiziladigan qum yoki shag‘al);  $h_{bl}=100\text{mm}$

SHpal qalinligi

$h_{shp}=130\text{mm}$

R24 markadagi rels balandligi

$h_r=107\text{mm}$

YOg\_ och mustaxkamlagichning diametri

$d=200\text{mm}$

YOg\_ och mustaxkamlagichning qiyaligi

$\alpha=80^\circ$


Qoplovchi yog\_ och qalinligi

$d'=50\text{mm}$

Mustaxkamlagichning cho\_kishi

100mm

### **12.1 rasm YOg\_och mustaxkamlagichli trapetsiyasimon shaklidagi laximning ko\_ndalang kesimi.**



**12.1 rasm**

Yog\_ och mustaxkamlagichlar bilan jixozlangan laximlarda, mustaxkamlagichlarning cho\_kish zaxirasini inobatga olish juda muximdir. CHunki mustaxkamlagichlarni xizmat davrini butkul o\_tashda, ta‘mirlash ishlarini talab etmaydi.

**Tog\_, jinslarini tashish uchun biz:** 4KA(temir yo\_1 izi 600mm) kontaktli elektrovozini va VГ-1.3 vagonetkasini tanladik va quida texnik o\_lchamlari keltirilgan jadvallardan(2.1-2.2) xarakatlanuvchi sostavning eng kattasini o\_lchamlarini olamiz.

Xisob kitob ishlarini olib borish uchun 4KA(temir yo\_1 izi 600mm) elektrovozini qabul qildik va  $A=1050\text{mm}$ ;  $h=1515\text{mm}$  ga ega bo\_lgan o\_lchamlari orqali xisoblaymiz.

Reqlarni o\_rnatish uchun R24 relsini tanladik (relsni tanlash vagonetkaning xajmiga bog\_liq agar vagonetka  $2\text{m}^3$ dan katta bo\_lsa R33ni tanlanadi)

R18 markadagi rels balandligi  $90\text{mm}$

R24 markadagi rels balandligi  $107\text{mm}$

R33 markadagi rels balandligi  $128\text{mm}$

**2) Analitik usulda qolgan o\_lchamlarini va ko\_ndalang kesim yuzasini aniqlaymiz.**

Quida keltirilgan formulalardan foydalangan xolda laximning ko\_ndalang kesimi yuzasini xisoblaymiz.

1) Laximning ostki qismidan (pochvsi) to relsning yuqori qismigacha bo\_lgan masofa

$$h_v = h_a + h_b = h_{bl} + h_{shp} + h_r = 100 + 130 + 107 = 337\text{mm}.$$

2) Ballast qatlamining qalinligi

$$h_b = h_{bl} + (2/3 \cdot h_{shp}) = 100 + (2/3 \cdot 130) = 186.7\text{mm}.$$

3) Ballast qatlaidan to relsning yuqori qismigacha bo\_lgan masofa

$$h_a = h_v - h_b = 337 - 186.7 = 150.3\text{mm}.$$

4) Rel s yuqori qismidan to laximninig baland qismidagi mustaxkamlagichning ostigacha bo\_lgan masofa

$$h_1 = h_{kp} + i = 1800 + 200 = 2000\text{mm}.$$

5) Rel s yuqori qismidan to laximninig baland qismidagi mustaxkamlagichning ostigacha bo\_lgan masofa(mustaxkamlagichning cho\_kishini inobatga olgan xolda )

$$h_1 = h_1 + 100 = 2000 + 100 = 2100\text{mm}.$$

6) Ballastdan to laximninig baland qismidagi mustaxkamlagichning ostigacha bo\_lgan masofa

$$h_2 = h_1 + h_a = 2000 + 150.3 = 2150.3\text{mm}.$$

7) Ballastdan to laximninig baland qismidagi mustaxkamlagichning ostigacha bo\_lgan masofa

(mustaxkamlagichning cho\_kishini inobatga olgan xolda)

$$h_2 = h_2 + 100 = 2150.3 + 100 = 2250.3\text{mm}.$$

8) Laximning ostki qismidan (pochvsi) to laximninig baland qismidagi mustaxkamlagichning ostigacha bo\_lgan masofa

$$h_3 = h_1 + h_v = 2000 + 337 = 2337\text{mm}.$$

9) Laximning ostki qismidan (pochvsi) to laximninig baland qismidagi mustaxkamlagichning ostigacha bo\_lgan masofa(mustaxkamlagichning cho\_kishini inobatga olgan xolda )

$$h_3 = h_3 + 100 = 2337 + 100 = 2437\text{mm}.$$

10) Loixaviy laxim o\_tish balandligi(vysota vcherne), qoplovchi yog\_och bilan o\_tiladigan joylarda

$$h_4 = h_3 + d + d' = 2337 + 200 + 50 = 2587\text{mm}.$$

11) Loixaviy laxim o\_tish balandligi(высота вчерне), qoplovchi yog\_och bilan o\_tiladigan joylarda (mustaxkamlagichning cho kishini inobatga olgan xolda )

$$h = h + d + d = 2437 + 200 + 50 = 2687 \text{ mm.}$$

12) Xarakatlanuvchi sostavning bor bo\_yi barobarida odamlarning xarakatlanish yo\_lagi o\_lchami

$$n' = n + [1800 - (h + h_a)] \cdot ctg\alpha = 700 + [1800 - (1515 + 150.3)] \cdot ctg80^\circ = 723.8 \text{ mm.}$$

13) Xarakatlanuvchi sostavning bor bo\_yi barobarida , mustaxkamlagichlarning ichki tomoni bo\_yicha bir izli temir yo\_1 laximining eni

$$B = m + A + n' = 250 + 1050 + 723.8 = 2023.8 \text{ mm.}$$

14) Xarakatlanuvchi sostavning bor bo\_yi barobarida , mustaxkamlagichlarning ichki tomoni bo\_yicha ikki izli temir yo\_1 laximining eni

$$B = m + 2 \cdot A + r + n' = 250 + 2 \cdot 1050 + 200 + 723.8 = 3273.8 \text{ mm.}$$

15) Mustaxkamlagichlarning ichki tomoni bo\_yicha laxim shift qismining eni

$$l_1 = B - 2 \cdot (h_1 - h) \cdot ctg\alpha = 2023.8 - 2 \cdot (2000 - 1515) \cdot ctg80^\circ = 1852.8 \text{ mm.}$$

16) Mustaxkamlagichlarning ichki tomoni bo\_yicha laximning osti eni (ballast qatlami tekisligidagi)

$$l_2 = B + 2 \cdot (h + h_a) \cdot ctg\alpha = 2023.8 + 2 \cdot (1515 + 150.3) \cdot ctg80^\circ = 2611 \text{ mm.}$$

17) Mustaxkamlagichlarning tashqi tomoni bo\_yicha laxim shift qismining eni

$$l_3 = l_1 + 2 \cdot (d + d') = 1852.8 + 2 \cdot (200 + 50) = 2352.8 \text{ mm.}$$

18) Mustaxkamlagichlarning tashqi tomoni bo\_yicha laximning osti eni

$$l_4 = B + \frac{2[\cos\alpha(h + h_B) + d + 50]}{\sin\alpha} = \\ = 2023.8 + (2 \cdot [\cos80^\circ(1515 + 337) + 200 + 50]) / \sin80^\circ = 3185 \text{ mm.}$$

19) Mustaxkamlagichlarning ichki tomoni bo\_yicha laximning ko\_ndalang kesimi yuzasi

$$S_{SV} = 0.5 \cdot (l_1 + l_2) \cdot h_2 = 0.5 \cdot (1852.8 + 2611) \cdot 2150.3 = 4.8 \text{ m}^2$$

20) Mustaxkamlagichlarning tashqi tomoni bo\_yicha laximning ko\_ndalang kesimi yuzasi

$$S_{VCH} = 0.5 \cdot (l_3 + l_4) \cdot h_4' = 0.5 \cdot (2352.8 + 3185) \cdot 2687 = 7.4 \text{ m}^2.$$

21) Laximning perimetri

$$R = l_1 + l_2 + 2h_2 / \sin\alpha = 1852.8 + 2611 + 2 \cdot 2150.3 / \sin80^\circ = 8.8 \text{ m.}$$

## Elektrovozlarning texnik xarakteristikasi

Jadval 1

Ko_ rsatgichlari	Elektrovozlar turi							
	4KA	4KA	7KRM1	7KRM1	K10	K10	K14M	KT14
Temir yo_ lizi orasi, mm	600	750,900	600,	750, 900	600	750, 900	750,900	750,900
Xarakatlanish tezligi, vaqt me'yorida, km/chas	5,5	5,5	12,2	12,2	12,2	12,2	11,5	11,5
Tortish kuchi vaqt me'yorida, kN	12	12	16,8	16,8	19	19	27	23,5
Elektrovdvigatel quvvati, kVt	12x2	12x2	33x2	33x2	33x2	33x2	45x2	45x2
Elektrovoz ramasi buyicha uzunligi, mm	3300	3300	4200	4200	4520	4520	4930	5800
Elektrovoz ramasi buyicha eni, mm	1050	1350	1050	1350	1050	1350	1360	1350
Elektrovoz kabinasi buyicha balandligi, mm	1515	1515	1500	1500	1650	1650	1650	1550
Massasi, kg	4	4	7,2	7,2	10	10	14	14

## Vagonetkalarning xarakteristikasi

Jadval 2

Ko_ rsatgichlari	Vagonetka turi									
	VG 1,3	VG 1,4	VG 1,6	VG 2,0	VG 2,5	VG 3,3	VG 4,5A	VG 10A	VB 2,5	VB 4,0A
Vagonetka xajmi, m <sup>3</sup>	1,3	1,4	1,6	2	2,5	3,3	4,5	10	2,5	4
YUk ko_tarish qobiliyati, t	3	3	3	5	6	6	13,5	30	6,25	12
Temir yo_ lizi orasi, mm	600	600	600	750; 900	750; 900	750; 900	750; 900	750; 900	750; 900	750
Uzunligi, mm	2000	2400	2700	3070	2760	3410	4100	7300	3600	4740
Bo_yi, mm	1300	1230	1200	1200	1300	1300	1550	1600	1550	1550
Eni, mm	850	850	850	1250	1240	1320	1350	1800	1350	1350
Massasi, kg	625	660	690	1510	1130	1260	3920	8825	2275	4715

## 12-Amaliy ishni bajarish uchun variantlar

Nº	Laxim nomi	Elektrovoz turi	Rels markasi	Mustaxkamlagich ustunlarining qiyaligiga	YOg_och mustaxkamlag ich diametri d,mm	SHpal qalinligi h <sub>shp,mm</sub>	SHpal ostidagi ballast yoqizig_i qalinligi h <sub>bl,mm</sub>
1	SHtrek	4KA (g_ildirak izi eni 600mm)	R18	80	160	120	100
2	SHtolnya	7KRM1 (g_ildirak izi eni 600mm)	R24	81	180	125	105
3	Kvershlag	K10 (g_ildirak izi eni 900mm)	R33	82	200	130	110
4	SHtolnya	K14M (g_ildirak izi eni 900mm)	R33	83	240	120	115
5	Kvershlag	KT14 (g_ildirak izi eni 900mm)	R24	84	260	125	120
6	SHtrek	K14M (g_ildirak izi eni 750mm)	R24	85	160	130	125
7	SHtolnya	4KA (g_ildirak izi eni 750mm)	R33	80	180	120	130
8	Kvershlag	7KRM1 (g_ildirak izi eni 600mm)	R18	81	200	125	135
9	SHtrek	4KA (g_ildirak izi eni 600mm)	R24	82	240	130	140
10	Kvershlag	K14M (g_ildirak izi eni 900mm)	R33	83	260	120	145
11	SHtolnya	7KRM1 (g_ildirak izi eni 600mm)	R24	84	200	125	150
12	Kvershlag	KT14 (g_ildirak izi eni 750mm)	R33	85	160	130	100
13	SHtrek	4KA (g_ildirak izi eni 600mm)	R18	80	180	120	105
14	SHtolnya	K10 (g_ildirak izi eni 600mm)	R24	81	200	125	110
15	SHtolnya	7KRM1 (g_ildirak izi eni 900mm)	R33	82	240	130	115
16	Kvershlag	4KA (g_ildirak izi eni 600mm)	R18	83	260	120	120
17	SHtrek	7KRM1 (g_ildirak izi eni 600mm)	R24	84	160	125	125
18	SHtolnya	K10 (g_ildirak izi eni 900mm)	R33	85	180	130	130
19	Kvershlag	K14M (g_ildirak izi eni 900mm)	R33	80	200	120	135
20	SHtrek	KT14 (g_ildirak izi eni 750mm)	R24	81	240	125	140
21	Kvershlag	K14M (g_ildirak izi eni 900mm)	R24	82	260	130	145
22	SHtolnya	4KA (g_ildirak izi eni 900mm)	R33	83	200	120	150
23	Kvershlag	7KRM1 (g_ildirak izi eni 600mm)	R18	84	260	125	105
24	SHtrek	4KA (g_ildirak izi eni 750mm)	R24	85	160	130	110
25	SHtolnya	7KRM1 (g_ildirak izi eni 900mm)	R33	80	180	120	115
26	SHtolnya	KT14 (g_ildirak izi eni 750mm)	R24	81	200	125	120
27	Kvershlag	7KRM1 (g_ildirak izi eni 750mm)	R33	82	240	130	125
28	SHtrek	4KA (g_ildirak izi eni 900mm)	R18	83	260	120	130
29	SHtolnya	K10 (g_ildirak izi eni 600mm)	R24	84	200	125	120
30	SHtrek	K10 (g_ildirak izi eni 900mm)	R33	85	240	130	125

## Amaliy mashg“ulot №13

**Mavzu:** Vertikal kon lahimlarning ko“ndalang kesimi yuzalarini aniqlash.

**Ishning maqsadi:** - talabalarga vertikal kon lahimlarning ko‘ndalang kesimi yuzalarini aniqlashni hisoblashni o‘rgatish.


Stvolning kesim yuzalarani aniqlash uning qo\_llanilishi bilan bog\_liq. Foydali qazilmalarni ko\_tarish uchun mo\_ljallangan stvollarining kesim yuzalari qazib olinaligan qazilmaning loyihaviy quvvati va qazib olish chuqurligiga bog\_liq.

Yordamchi stvollarining kesim yuzalari tushuriladigan va yuqoriga ko\_tariladigan uskunalarining o\_lchami va er ostida ishlaydigan ishchilarining ya‘ni klet o\_lchamiga bog\_liq holda bo\_ladi.

Shamollatish stvollarining o\_lchami esa, er osti kon lahimlarini shamollatish uchun yuboriladigan havo miqdoriga bog\_liq bo\_ladi. Shaxta stvollarining kesim yuzasi maydonlari ushbu shaxta stvollarining ishlab chiqarish quvvati oshishi bilan kengaytiriladi.

Ko\_tarish stvollarinng o\_lchamlari ko\_tarish idishlari hamda ular orasidagi tirqish orqali, stvol rasstreli (tirkak) va mustahkamlagichning asosiy o\_lchamlari orqali aniqlanadi. Hozirgi kunda foydali qazilmalarni er yuzasiga ko\_tarish ishlari skipclar va kletlar orqali amalga oshiriladi.

Foydali qazilmani ko\_tarish uchun mo\_ljallangan skipping sig\_imi quyidagicha aniqlanadi. Skipning 1 soat ( $A_{ch}$ )lik yuk ko\_tarish quvvati uning quyidagi ko\_rsatkichlar bilan bog\_liq;  $N_{st}$  – stvolning chuqurligi va ko\_ratishning davomiyligi -  $T$ ,



Rasm 13.1 Svol diametrini grafik usulda aniqlash.

M i s o l: Skipli stvolning mustaxkamlagichni ichki tomoni bo\_yicha diametri va ko\_ndalang kesim yuzasini dastlabki ma'lumotlar asosida aniqlash: shaxtaning soatlik ishlab chiqarish quvvati  $A=4000\text{t}$  ko\_mir, ko\_tarish balandligi  $H=366\text{m}$ , bir yildagi ko\_taruvchi ish kunlar soni  $N=300$ , bir sutkadagi ko\_tarish vaqtি  $t=15\text{ch}$ , ko\_tarish zaxira koefitsenti( ko\_mirda  $R_r=1,5$  , ruda sanoatida  $R_r=1,15 \cdot 1,25$ ). Stvol mustaxkamlagichi - monolit beton, stvolda norvon bo\_limi bilan xam jixozlash ko\_zda tutilgan.

E ch i sh:

1) Ko\_tarish uskunasining soatlik unumdorligi quidagi formula bilan topiladi.

$$A_{ch}=R_r \cdot A / t = R_r A_g / N \cdot t = 1,5 \cdot 1200000 / 300 \cdot 15 = 400 \quad (\text{t/soat}).$$

Bir martalik ko\_tarishning davomiyligi

$$T = 4\sqrt{H},$$

Bu erda  $N$ -ko\_ratish balandligi.

$$H = H_{ct} + h_n$$

$N_{st}$ — shaxta stvolining chuqurligi, m;  $h_p$ — stvol o\_rasi ustidagi qabul qilish maydonchasining balandligi, m.

2) Skipning samarali yuk ko\_tarishi quvvati,

Ko\_mir shaxtalari uchun  $Q=((4 \cdot \sqrt{H+0}) \cdot Ach) / 3600 = ((4 \cdot \sqrt{366+10}) \cdot 400) / 3600 = 9.61\text{t}$   
ruda shax shaxtalari uchun  $Q=0,0057 \cdot 4\sqrt{H} \cdot Ach$

$\theta$ -ko\_tarish idishlarining to\_ldirishga va bo\_shatishga ketadigan vaqt, (s)

Skipning sig\_imi  $5\text{m}^3$  gacha bo\_lganda  $\theta=7\text{s}$  ga, Skipning sig\_imi  $5\text{m}^3$ dan yuqori bo\_lsa idishning xajmi qancha bo\_lsa o\_sha xajmga teng deb olamiz  $\text{m}^3$  bo\_yicha.

Olingan natijalar asosida sig\_imi  $11\text{m}^3$ ga, ya'ni  $10\text{t}$  og\_irlikdagи ko\_mirni sig\_diruvchi S-9NM markali standart skipni 13.1 jadvaldan olamiz.

### 13.1-jadval

Skip turi	Skip sig_imi, $\text{m}^3$	O_lchamlari,mm		Massasi,kg
		Eni	Uzunligi	
S-6NM	5	1700	1920	10230
S-7NM	9,5	1540	1780	10920
S-12NM	9,5	1540	1780	13000
S-14NM	9	1700	1920	12100
<b>S-9NM</b>	<b>11</b>	<b>1540</b>	<b>1780</b>	<b>11700</b>
S-16NM	11	1540	1780	12550
S-18NM	11	1700	1920	11140
S-11NM	11	1740	1980	13200
S-20NM	11	1740	1980	13000
S-22NM	15	1700	1920	13880
S-13NM	15	1740	1980	14860

Xavfsizlik qoidalariga asosan skip qismlari o‘rtasidagi juda tor tirkishlarni olamiz.

Stvolni mustaxkamlash uchun 13.2 jadvalga asosan mustaxkamlovchi jixozlarni tanlaymiz: eni 124mm ga teng №27b dvutavrdan olingan rasstellarni, balandligi 138mm ga teng R38 relsdan olingan yunaltiruvchilarni(provodnik), yunaltiruvchini dvutavrga joylashtitish uchun dvutavrdan 5mm lik uyiq qilamiz. Kabellarni, suv,havo quvrlarini, norvon bo\_limini jixozlash uchun 600mm enga ega bo\_lgan norvonni joylashtirish uchun segment balandlikgi 1.5m enga bo\_lgan yuza ajratamiz.

13.2-jadval

Profil	Profil balandligi, mm	Kesim yuzasi, sm <sup>2</sup>	Eni, mm	1m dagi og_irligi, kg
<b>D v u t a v r</b>				
№12	120	17,8	74	14
№14	140	21,5	80	16,9
№16	160	26,5	88	20,5
№18	180	30,6	94	24,1
№20a	200	35,5	100	27,9
№20b	200	39,5	102	31,1
№22a	220	42	110	33
№22b	220	46,4	112	36,4
№24a	240	47,7	116	37,4
№24b	240	52,6	118	41,2
№27a	270	54,6	122	42,8
<b>№27b</b>	<b>270</b>	<b>60</b>	<b>124</b>	<b>47,1</b>
№30a	300	61,2	126	48
№30b	300	67,2	128	52,7
№30s	300	73,4	130	57,4
<b>R e l s</b>				
R18	90	23,1	80	18
R24	107	32,7	92	24
R33	128	42,8	110	33,5
<b>R38</b>	<b>138</b>	<b>49,1</b>	<b>114</b>	<b>38,4</b>
R43	140	55,64	114	43,57

Skipning chiqib turadigan qismi bilan mustaxkamlagich orasidagi tirkish 150mm.

Yo\_naltiruvchi o\_rnatilmagan rasstrel bilan skip orasidagi tirkish 150mm.

Stvolning ko\_ndalang kesimi yuzasini aniqlash uchun grafik ususulda masshtab bo\_yicha qog\_ozga rasstellarni va qurilmalarni (ko\_tarish idishlari, kabellarni, suv, havo quvrlarini, norvonni) minimal masofalarni inobatga olgan xolda joylashtiramiz. Keyin markaziy rastrel yo\_nalishi bo\_yicha segment balandligini 1.5m olamiz. Mustaxkamlagichga joylashgan nuqta birinchi va ikkita nuqtani skipning burchaklaridan 150mm qolrgan masofadan izlaymiz. Aniqlangan uchta nuqtadan aylana chizamiz va diametrini o\_lchaymiz D=5.5m teng (mustaxkamlagichning ichi bo\_yicha).

3) Stvolning mustaxkamlagichning ichi bo\_yicha yuzasi.

$$S_{sv} = \pi \cdot D^2 / 4 = 3,14 \cdot 5,5^2 / 4 = 23,75 \text{ m}^2.$$

4) Beton mustaxkamlagichning qaliligi  $T_b = 300 \text{ mm}$  qilib, stvolning mustaxkamlagichning tashqi tomoni bo\_yicha yuzasi.

$$S_{vch} = \pi \cdot (D + 2 \cdot T_b)^2 / 4 = 3,14 \cdot (5,5 + 2 \cdot 0,3)^2 / 4 = 29,21 \text{ m}^2.$$

№13 Amaliy ish variantlari

№	Skip turi	Beton mustaxkamlagichning qaliligi $T_b$	Rels. markasi	Dvutavr. markasi	№	Skip turi	Beton mustaxkamlagichning qaliligi $T_b$	Rels. markasi	Dvutavr. markasi
1	S-6NM $\ominus$	300 $\text{mm}$	R-18 $\text{mm}$	№12 $\text{o}$	16	S-16NM $\ominus$	300 $\text{mm}$	R-38 $\text{mm}$	№12 $\text{o}$
2	S-7NM $\ominus$	325 $\text{mm}$	R-24 $\text{mm}$	№14 $\text{o}$	17	S-18NM $\ominus$	325 $\text{mm}$	R-43 $\text{mm}$	№14 $\text{o}$
3	S-12NM $\ominus$	350 $\text{mm}$	R-33 $\text{mm}$	№16 $\text{o}$	18	S-11NM $\ominus$	350 $\text{mm}$	R-33 $\text{mm}$	№16 $\text{o}$
4	S-14NM $\ominus$	380 $\text{mm}$	R-33 $\text{mm}$	№18 $\text{o}$	19	S-20NM $\ominus$	380 $\text{mm}$	R-18 $\text{mm}$	№18 $\text{o}$
5	S-9NM $\ominus$	400 $\text{mm}$	R-38 $\text{mm}$	№20 $\text{o}$	20	S-22NM $\ominus$	400 $\text{mm}$	R-24 $\text{mm}$	№20 $\text{o}$
6	S-16NM $\ominus$	350 $\text{mm}$	R-43 $\text{mm}$	№20 $\text{b}$	21	S-13NM $\ominus$	350 $\text{mm}$	R-33 $\text{mm}$	№20 $\text{b}$
7	S-18NM $\ominus$	400 $\text{mm}$	R-33 $\text{mm}$	№22 $\text{o}$	22	S-9NM $\ominus$	400 $\text{mm}$	R-24 $\text{mm}$	№22 $\text{o}$
8	S-11NM $\ominus$	450 $\text{mm}$	R-18 $\text{mm}$	№22 $\text{b}$	23	S-16NM $\ominus$	450 $\text{mm}$	R-33 $\text{mm}$	№22 $\text{b}$
9	S-20NM $\ominus$	300 $\text{mm}$	R-24 $\text{mm}$	№24 $\text{o}$	24	S-18NM $\ominus$	300 $\text{mm}$	R-38 $\text{mm}$	№24 $\text{o}$
10	S-22NM $\ominus$	325 $\text{mm}$	R-33 $\text{mm}$	№24 $\text{b}$	25	S-11NM $\ominus$	325 $\text{mm}$	R-43 $\text{mm}$	№24 $\text{b}$
11	S-13NM $\ominus$	350 $\text{mm}$	R-24 $\text{mm}$	№27 $\text{o}$	26	S-12NM $\ominus$	350 $\text{mm}$	R-33 $\text{mm}$	№27 $\text{o}$
12	S-9NM $\ominus$	380 $\text{mm}$	R-33 $\text{mm}$	№27 $\text{b}$	27	S-6NM $\ominus$	380 $\text{mm}$	R-18 $\text{mm}$	№27 $\text{b}$
13	S-16NM $\ominus$	400 $\text{mm}$	R-38 $\text{mm}$	№30 $\text{o}$	28	S-7NM $\ominus$	400 $\text{mm}$	R-24 $\text{mm}$	№30 $\text{o}$
14	S-18NM $\ominus$	350 $\text{mm}$	R-43 $\text{mm}$	№30 $\text{b}$	29	S-12NM $\ominus$	350 $\text{mm}$	R-33 $\text{mm}$	№30 $\text{b}$
15	S-11NM $\ominus$	400 $\text{mm}$	R-33 $\text{mm}$	№30 $\text{s}$	30	S-14NM $\ominus$	400 $\text{mm}$	R-33 $\text{mm}$	№30 $\text{s}$

## Amaliy mashg“ulot №14

**Mavzu:** Tik stvollarni o‘tishda burg‘ulash portlatish ishlari (BPI) parametrlarini hisoblash

**Ishning maqsadi** Burg‘ulash qurulmasini tanlash va uning ish unumdorligini aniqlash, shupurlarni burg‘ulash, portlovchi modda bilan to‘lirish va portlash vaqtini aniqlash.

Burg‘ulash qurulmasini tanlash qurilish me‘yorlari va qoidalariga asosan amalga oshiriladi. Qattiqlik koeffitsienti  $f < 14$  bo‘lgan tog‘ jinslarida shupurlarni burg‘ulash uchun asosan mexanizatsiyalashgan burg‘ulash,  $f > 14$  bo‘lgan hollarda esa qo‘l perfaratorlari qo‘llaniladi.

Tayyorlash-tugatish ishlarni hisobga olgan holda qo‘l perfaratorlari bilan shupurlarni burg‘ulash unumdorligi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{\delta} = \frac{50\varphi n_n k_d k_n k_{\sigma}}{(4.5 + f)} ; \text{ m/soat}$$

bu erda  $\varphi$  - perforatorlarning bir vaqtda ishlash koeffitsienti,  $\varphi=0,8-0,9$ ;  
 $n_n$  - ishlayotgan perfaratorlar soni:

$$n_n = \frac{S_{np}}{S_{yo}}$$

$S_{ud}$  - har bir perfaratorga to‘g‘ri keladigan kovjoy yuzasi;

Tez o‘tishda  $S_{ud}=1,5-2m^3$  teng;

$S_{pr}$ -kovjoy (zaboy) yuzasi.

$k_{\sigma}$  - stvolga yig‘ilayotgan suvni hisobga oluvchi koeffitsient.

Suv yig‘ilishi; m <sup>3</sup> /soat	6	6-13	13-20
$k_{\sigma}$	1	0,9	0,8

$k_d$  - shpur diametrini hisobga oluvchi koeffitsient,  $k_d = 36/d_{sh}$ ;

$d_{sh}$  – shpur diametri, mm;

$k_n$  – perfarator turini hisobga oluvchi koeffitsient;

PR-24LS turidagi perfaratorlar uchun  $k_n = 1.2$  teng;

PR-30LS, PR-30LB turidagi perfaratorlar uchun  $k_n = 1$  teng.

Tog‘ jinslarini qattiqligi va shpur diametrini oshishi bilan burg‘ulash unumdorligi pasayadi.

Burg‘ulash qurulmalari bilan shupurlarni burg‘ulash unumdorligi quyidagi formula bilan topiladi:

$$Q = \frac{60\varphi n k_n v_m}{1 + v_m \sum t_{\sigma}} ; \text{ m/soat.}$$

Bu erda  $\varphi$  - burg‘ulash mashinalarini bir vaqtda ishlash koeffitsienti,  $\varphi = 0,7-0,9$ ,

$k_n$  - qurilmalarni tayyorlash koeffitsienti,  $k_n = 0,8-0,9$ ;

$n$  - qurulmadagi burg‘ulash mashinalari soni;

$\Sigma t_v$ -1m shpurni burg‘ulashdagi yordamchi ishlar koronkalarni almashtirish, shtanganing orqaga harakati, zaboyda qurulmani qayta o`rnatish va boshqalar)ga sarflangan vaqt. SHpur uzunligi 3-4 m va  $f < 10$  bo`lganda

$\sum t_v = 1-1,5$  daqiqa,  $f > 10$  bo`lganda esa  $\sum t_v = 1,5-2$  teng;

$V_m$ - burg‘ulashning mexaniq tezligi:

$f$	6	7-9	10-14	14’20
$V_m . m/min$	0,8-1,4	0,7-0,8	0,5-0,7	0,15-0,35

Diametri 40-43mm bo`lgan shpurlarni burg‘ulashda burg‘ulash tezligi 20-25% ga oshadi.

SHpurlarni burg‘ulashning umumiy davomiyligi:

$$T_6 = \frac{N}{\varphi \cdot n} \left( \frac{l_w}{v_{ch}} + t_{ecn} \right)$$

Bu erda  $N$  - shpurlar soni ;  $l_w$  - shpurlar chuqurligi;  $Q_b$  - shpurlarni burg‘ulash unumdarligi, m/daqiqa;

Shpurlarni burg‘ulashning o`rtacha tezligi 1- jadvalda keltirilgan.

Jadval 1.

<b>Tog“ jinsi qattiqligi, f</b>	<b>SHpurlarni burg“ulashning o`rtacha tezligi, m/daqiqa</b>		
	<b>PR-30LS</b>	<b>PR-24LS</b>	<b>BUKS-1M</b>
<b>3-6</b>	<b>0.3-0.34</b>	<b>0.38-0.42</b>	<b>1.2-1.8</b>
<b>7-10</b>	<b>0.18-0.21</b>	<b>0.23-0.26</b>	<b>0.7-1.1</b>
<b>12-16</b>	<b>0.09-0.11</b>	<b>0.11-0.13</b>	<b>0.45-0.65</b>

SHpurlarni portlatuvchi yoki portlatish ishlarida qatnashishga ruxsati bor o`quvchilar portlovchi modda bilan to`ldiradilar, hamda ularni soni xar 7-10 m<sup>2</sup> bir kishi ( tez to`ldirishda 4-6m<sup>3</sup> ga ) hisobida aniqlanadi.

45mm diametrli bitta shpurni patronli portlovchi modda va maydalangan tog‘ jinslari bilan to`ldirish, elektr tarmog‘ini ulash va uni tekshirishga ketgan vaqt:

$$\tau_3 = 4 + 1,1 \cdot l_w, \text{ daqiqa}$$

SHpurlarni portlovchi modda bilan to`ldirish davomiyligi:

$$T_3 = \frac{N}{\alpha_3 M_3} \tau_3$$

bu erda  $\alpha_3$  - shpurlarni portlovchi modda bilan to`ldiruvchi, o`tuvchilarining o`rtacha sonini hisobga oluvchi koefitsient,  $\alpha_3 = 0,8$ ;

$M_3$  - shpurlarni portlovchi modda bilan to`ldirishda ishtirok etuvchi o`tuvchilar soni (o`rtacha hisobda zaboynig har 7-10 m<sup>2</sup> ga bir kishi hisobida aniqlanadi);

Barcha tayyorlov – tugatish ishlarini hisobga olgan holda burg‘ulash portlatish ishlarining to`liq davomiyligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$T_{BBP} = T_6 + T_3 + t_{n,3}; \text{ soat}$$

bu erda;  $t_{n,3}$  - tayyorlash – tugatish ishlariga ishlariga ketgan vaqt. Burg‘ulash qurulmalari uchun 40-60 daqiqa;

Qo`l perforatorlari uchun 25-30 daqiqa.

**Misol:** Quyidagi sharoitda stvolni o`tishda barcha tayyorlash-tugatish ishlarini hisobga olgan holda burg`ulash shpurlarini tanlanib burg`ulash portlatish ishlarining to`liq davomiyligini aniqlash.

**Berilgan:** Stvolning chukurligi 400 m, mustahkamlatichning ichki tomoni bo`yicha stvolning diametri 6 m, mustahkamlagichning qalinligi 400 mm, shpurlarpningi chuqurligi 4,5 m, shpurlar soni 50 ta,  $f=6$ .

### Echilishi:

Tog` jinsini qattiqligi  $f<14$ ni hisobga olgan holda BUKS-1M burg`ulash qurilmasini tanlab olamiz. Burg`ulashning o`rtacha tezligini berilgan jadval asosida tanlab olamiz: slanetslar uchun  $v_{cp} = 1,5 \text{ m/dak}$ , peschaniqlar uchun  $esav_{cp} = 0,9 \text{ m/dak}$ . Burg`ulash qurilmasisidagi burg`ulash mashina sonini 2ta va ularning bir vaqtida ishlash koeffitsenti  $\varphi = 0,75$  deb qabul qilamiz. Bitta shpur uchun yordamchi ishlar davomiyligi 4,25 daqiqa, shpurlarni to`lidiruvchi o`tuvchilar (proxodchik) sonini  $M_z = 4$ ta deb qabul qilamiz. SHpurlarni portlovchi modda bilan to`lidiruvchi o`tuvchilarning o`rtacha soni hisobga oluvchi koeffitsient  $\alpha_3 = 0,8$ , shpur chuqurligi  $l_u = 4,5 \text{ m}$ .

Bitta shpurni to`lidirish uchun ketadigan vaqtini hisoblaymiz:

$$\tau_3 = 4 + 1,1 \cdot l_u = 4 + 1,1 \cdot 4,5 = 8,95 \approx 9, \text{ daqiqa.}$$

Tayyorlash – tugatish ishlarini 60 daqiqa deb qabul qilamiz.

U holda shpurlarni burg`ulash davomiyligi:

Slanetslarda:

$$T_\delta = \frac{N}{\varphi \cdot n} \left( \frac{l_u}{v_{ch}} + t_{ecn} \right) = \frac{50}{0,75 \cdot 2} \left( \frac{4,5}{1,5} + 4,25 \right) = 4,2 \text{ soat;}$$

Peschaniqlarda:

$$T_\delta = \frac{N}{\varphi \cdot n} \left( \frac{l_u}{v_{ch}} + t_{ecn} \right) = \frac{50}{0,75} \left( \frac{4,5}{0,9} + 4,25 \right) = 5,2 \text{ soat;}$$

Slanets va peschaniqlarda shpurlarni portlovchi modda bilan to`ldirish:

$$T_3 = \frac{N}{\alpha_3 \cdot M_3} \tau_3 = \frac{50}{0,8 \cdot 4} \cdot 9 = 2,3 \text{ soat;}$$

Burg`ulash portlatish ishlaridagi barcha tayyorlash – tugatish ishlarining to`liq davomiyligini quyidagicha hisoblaymiz:

$$T_{BBP} = T_\delta + T_3 + t_{n,3} = 4 + 2,3 + 1 = 7,3 \text{ soat;}$$

Peschaniqlar uchun:

$$T_{BBP} = T_\delta + T_3 + t_{n,3} = 5,2 + 2,3 + 1 = 8,5 \text{ soat.}$$

**14-Amaliy ishni bajarish uchun variantlar**

<b>Variant №</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>8</b>	<b>9</b>	<b>10</b>
Stvol chuqurligi, m	400	900	800	800	500	350	300	450	500	650
Mustahkamlatichning ichki tomoni bo`yicha stvolning diametri, m	4.5	6	7	5.5	6.5	5	7	6	4.5	4.8
Mustahkamlagichning qalinligi, mm	400	400	400	300	350	300	400	350	300	400
SHpur chuqurligi, m	4.5	3	4	2	2.8	3.7	2.5	2.2	3.5	4.6
SHpurlar soni	40	50	55	45	40	40	45	53	58	46
Tog` jinsining qattiqligi: slanets: peschanik:	4	-	6	-	5	-	4.8	-	6	-
Burg`ulash uskunasining turi	PR- 30JIS	PR- 30JIS	БУКС- 1М	PR- 30JIS	PR- 24JIS	PR- 24JIS	БУКС- 1М	PR- 24JIS	БУКС- 1М	PR- 30JIS
Stvolga yig`iladigan suv hajmi, m <sup>3</sup> soat.	6	8	10	6	13	15	18	20	13	9

## Amaliy mashg“ulot №15

**Mavzu:** Gorizontal va qiya kon lahimlarini o`tishda burg‘ulash portlatish ishlari (BPI) parametrlarini hisoblash.

**Ishning maqsadi:** talabalarga gorizontal kon lahimlarini o`tishdagi burg‘ulash portlatish ishlari, portlovchi moddalar va burg‘ulash portlatish ishlari pasportini tuzishga boshlang ‘ich ma`lumotlarni o`rgatish.

Gorizontal kon laxmlarini o`tishda burg‘ulash portlatish ishlari asosiy bosqich hisoblanadi. Burg‘ulash portlatish ishlari —Burg‘ulash portlatish ishlarida yagona xavfsizlik qoidalari (EPB) va boshqa qoidalariga rioya qilgan holda olib boriladi.

Burg‘ulash portlatish ishlarini olib borish uchun uchastka noziri tomonida —BPI pasportini belgilangan me`yorlar asosida tuziladi va undan keyin korxonaning bosh muxandisi tomonidan tasdiqlanadi.

—Burg‘ulash portlatish ishlari pasporti quyidagi ketma-ketlik asosida ishlab chiqiladi;

1. Portlovchi modda turi aniqlanadi va asoslanadi, inertsatsiyalash turi va inertsatsiyalash vositalari, portlovich moddaning solishtirma sarfi hisoblanadi yoki qabul qilinadi, shpurlar soni aniqlanadi, o`yuvchi shpur turini tanlash, shpurlarning umumiyligi, portlovchi moddaning umumiyligi sarfi, har bir shpurdagi portlovi modda miqdori va boshq.

2. Portlatish setkalarini ketma-ketligini hisoblash.

3. Burg‘ulash portlatish ishlari texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlari hisoblash.

4. Burg‘ulash portlatish ishlari olib borishda xavfsizlik tadbirlari va kov joy (zaboy)ning shamollatish sxemesi tuziladi.

Gorizontal kon lahimlarini o`tishda portlovchi modda patronlari (portlovchi modda turi) va burg‘ulash koronkalarini tashlash aniq kon-texnik sharoitlar uchun portlatish ishlari texnologiyasidan tomonidan qabul qilgan usullardan foydalanib qabul qilinadi.

Shpurdagi patronlar sonini topish quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$n = \frac{L \cdot \varphi}{l}$$

Bu erda  $L$  – shpur uzunligi, m;

$l$  – portlovchi modda patroni uzunligi, m;

$\varphi$  - shpurlarni to`ldirish koeffitsienti;

SHpur chuqurligini quyidagi formula orqali aniqlaymiz:

$$L = n \cdot l / \varphi, \text{ m}$$

Uyuvchi shpurlar chuqurligini 20% kuprok qabul qilamiz:

$$L_{cp} = L \cdot 1.2, \text{ m}$$

SHpurlarni umumiyligi soni quyidagicha aniqlanadi:

$$N = 12.7 \cdot q \cdot k \cdot S_{np} / \varphi \cdot d^2 \cdot \rho$$

bu erda  $S_{np}$  - lahimning ko`ndalang yuzasi,  $m^2$ ;

$q$  – portlovchi moddaning solishtirma sarfi,  $kg/m^3$ ;

$d$  – portlovchi modda patronining diametri,  $mm$ ;

$k$  - SHpurlardan foydalanish koeffitsienti;  $k=0.8$

$p$  – porlovchi moddaning gravimetrik zinchlik ( ammonit 6 jv):

$$p=1-1.2 \text{ g/sm}^3$$

Yordamchi shpurlar soni quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{ec} = 0.34(N - n_{ep})$$

Bu erda  $N$  – shpurlarning umumiy soni;

$n_{ep}$  - o`yuvchi shpurlar soni;

CHegarovchi shpurlar soni:

$$N_{ok} = 0.66(N - n_{ep})$$

Bir marta portlatigan kon massasi hajmini aniqlash quyidagicha amalga oshiriladi:

$$V_{3ax} = S \cdot L$$

*Bir marta portlatishga sarflanadigan portlavchi modda miqdori quyidagi formula orqali hisoblanadi:*

$$Q_{3ax} = q \cdot k \cdot V_{3ax}$$

Uyuvchi shpurlarga sarflanadigan portlovchi modda miqdorini aniqlash:

$$Q_{ep} = 1,2 \cdot Q_{3ax} / N$$

Xar bir qabul qilingan portlovich modda patronini og‘irligini hisobga olagan holda o`yuvchi shpurlardagi patronlar soni aniqlanadi:

$$n_{nam(ep)} = Q_{3ax} / m_{nam}$$

*bu erda  $m_{nam}$  - qabul kilingan portlovchi modda patronining og‘irligi, kg.*

*Qolgan shpurlarni har biridagi portlovchi modda miqdorini ainqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:*

$$Q = (Q_{3ax} - Q_{ep} \cdot n_{ep}) / (N - n_{ep})$$

*Qolgan (chegaralovchi va yordamchi) shpurlardagi patronlar soni quyidagicha aniqlanadi:*

$$n_{nam} = Q / m_{nam}$$

Bir tsikldagi shpurometr uzunligini aniqlash formulasisi:

$$L_{uu} = L_{ep} \cdot n_{ep} + L \cdot N_{ecn} + L \cdot N_{ok}$$

**Misol:** Burg‘ulash portlatish ishlarini parametrlarini hisoblash uchun tavfsifnomalar va spravochniklardan foydalangan holda quyidagilarni qabul qilamiz:

### Berilgan:

1. Kon lahimining yuzasi -  $S_{pr}=30,5 \text{ m}^2$ ;

2. Portlovchi modda (PM) – ammonit AP-5JV;

3. elektrodetanator – eDKZ;

4. PM solishtirma sarfi  $q=2.45 \text{ kg/m}^3$ ;

5. SHpurninng uzunligi  $l = 1.8m$ ;

6. Bir vaqtida ishlayotgan perfaratorlar soni 4 ta va 2ta zahirada;

7. Burg‘ulash koronkasining diametri  $46 \text{ mm}$ ;

8. PM patroninig diametri  $d=40 \text{ mm}$ ;

9. Uyuvchi shpurlar soni  $n_{vr}=12$  dona ;
10. Uyuvchi shpurlar orasidagi masofa  $0,5\text{ m}$ ;
11. SHpurlarni to`ldirish koeffitsienti  $\varphi=0,5$ ;
12. PM patroninig uzunligi  $l = 0.22\text{ m}$ .

**Yechilishi:**

Shpurdagi patronlar sonini topamiz:

$$n = \frac{L \cdot \varphi}{l} = \frac{1.8 \cdot 0.5}{0.22} = 4.09$$

Portlovchi modda patronlar soni 4 ta deb qabul qilamiz va shpur chuqurligini aniqlaymiz:

$$L = n \cdot l / \varphi = 4 \cdot 0.22 / 0.5 = 1.7 \text{ m}$$

Uyuvchi shpurlar chuqurligini 20% ko`proq qabul qilamiz:

$$L_{cp} = L \cdot 1.2 = 1.7 \cdot 1.2 = 2.4, \text{ m}$$

SHpurlarni umumiy sonini aniqlaymiz:

$$N = 12.7 \cdot q \cdot k \cdot S_{np} / \varphi \cdot d^2 \cdot \rho = 12.7 \cdot 2.4 \cdot 0.8 \cdot 30.5 / (0.5 \cdot 16 \cdot 1.1) = 84.5 \approx 85$$

YOrdamchi shpurlar sonini aniqlaymiz:

$$N_{ec} = 0.34(N - n_{ep}) = 0.34(85 - 12) = 24.8 \approx 25$$

CHegarovchi shpurlar sonini quyidagicha aniqlaymiz:

$$N_{ok} = 0.66(N - n_{ep}) = 0.66 \cdot (85 - 12) = 48.1 = 48$$

Bir marta portlatigan kon massasi hajmini aniqlab olamiz:

$$V_{sax} = S_{np} \cdot L = 30.5 \cdot 1.7 = 51.8$$

Bir marta portlatishga sarflanadigan portlavchi modda mikdori:

$$Q_{sax} = q \cdot k \cdot V_{sax} = 2.4 \cdot 0.8 \cdot 51.8 = 99.4, \text{ kg}$$

Uyuvchi shpurga sarflanadigan portlovchi modda miqdorini aniqlaymiz

$$Q_{ep} = 1.2 \cdot Q_{sax} / N = 1.2 \cdot 99.4 / 85 = 1.4, \text{ kg}$$

Qabul qilingan portlovchi modda (Ammonit -6JV)ning bitta patronni og`irligi 0,25 kg ga teng bo`lgan holda o`yuvchi shpurlardagi patronlar sonini aniqlaymiz

$$n_{nam(ep)} = Q_{sax} / m_{nam} = 1.4 / 0.25 = 5.6 \approx 6$$

*Qolgan shpurlarning har biridagi portlovchi modda miqdorini aniqlaymiz:*

$$Q = (Q_{sax} - Q_{ep} \cdot n_{ep}) / (N - n_{ep}) = (99.4 - 1.4 \cdot 1.2) / (85 - 12) = 1.3 \text{ kg}$$

*Qolgan (chegarovchi va yordamchi) shpurlardagi patronlar soni quyidagicha aniqlanadi:*

$$n_{nam} = Q / m_{nam} = 1.3 / 0.25 = 5.2 \approx 5$$

Bir tsikldagi shpurometr uzunligini quyidagicha aniqlaymiz:

$$L_{uuM} = L_{ep} \cdot n_{ep} + L \cdot N_{ecn} + L \cdot N_{ok} = 2 \cdot 12 + 1.7 \cdot 25 + 1.7 \cdot 48 = 148.1 \text{ m.}$$

**15-amaliy mashg“ulotni bajarish uchun variantlar:**

Variantlar	Kon lahiminинг ко‘ндаланг кесими yuzasi m <sup>2</sup>	Qattiqlik koeffitsiyenti, f	Shaxtaning gaz bo‘yicha kategoriyasi	Yotish burchagi	Magistral va oraliq tarmoqlar uzunligi, m	1m o‘tkazgichning qarshiligi, Om	Bir vaqtdayishlaydigan kolonkali elektr burg‘ulash uskunalarini soni.	PM patroni diametri, mm	O‘yuvchi shpurlar shakli
1	10,8	6	III	nishab	80	0,025	2	36	ponasimon
2	9,8	8	III	gorizontal	100	0,025	3	32	ponasimon
3	10	6	II	nishab	90	0,025	4	36	ponasimon
4	11	8	I	nishab	80	0,025	5	36	ponasimon
5	12	10	II	qiya	85	0,025	2	32	ponasimon
6	10,5	12	III	nishab	90	0,025	4	36	ponasimon
7	10,8	12	III	nishab	110	0,025	2	32	ponasimon
8	11	11	I	qiya	112	0,025	4	32	ponasimon
9	12	9	II	nishab	120	0,025	4	32	ponasimon
10	9,8	6	II	gorizontal	90	0,025	2	32	ponasimon

## Amaliy mashg“ulot №16

### **Mavzu: Shaxtada lava uzunligi va qavat balandligini aniqlasah**

**Ishning maqsadi:** Talabalarga shaxtaning asosiy parametrlari hisoblangan lava uzunligi va qavat balandligini aniqlash usullarini va hisoblash masalalarini tushuntirishdan iborat.

Rejalahtirilgan ko\_mirni qazib olish va shaxtaning bir me‘yorda ishlashini ta‘minlash uchun xarakatdagi va zaxiradagi ma‘lum maydonga ega bo\_lgan kovjoy bulishi zarur.

**Xarakatdagi kovjoy** deganda – sutga davomida tulik smenalarda ishlayotgan kovjoy tushiniladi .

**Zaxiradagi xarakatdagi kovjoy** deganda esa – sutka davomida tulik smenalarda ishlayotgan ,ya‘ni xarakatdagi kovjoy ishdan chikganda yoki majburiy to\_xtab turgan vakktida rejadagi ko\_mirni qazib olish uchun ishlatiladigan kovjoylar tushiniladi.

YUpka va o\_rtacha qalinlikga ega bo\_lgan nishab va kiya katlamlar .

#### **Berilgan:**

1.  $A_{sh,g} = 2000000 \text{ T yillik n/g kuvvati.}$
2.  $m_1 = 08 \text{ m} ; m_2 = \text{ko_mir katلامи qalinligi} .$
3.  $\gamma = 1,32 \text{ t/m}^3 \text{ ko_mirni zichligi.}$
4.  $\alpha = 15^\circ \text{ katlamining yotish burchagi.}$
5.  $R = 0,63 \text{ m, kombayinning kamrash kengligi.}$
6.  $n_s = 6 \text{ smenadagi sikllar soni.}$
7.  $n_e = 3 \text{ smenalar soni.}$
8.  $l_1 = 180 \text{ m. Lavaning uzunligi.}$
9.  $h_s = 15 \text{ m. Etajlar orasidagi selik ulchami .}$
10.  $n_{p1}^1 = 2 \text{ bir vaktda ishlayotgan katlamlar soni.}$
11.  $k_{1d}^1 = 0,90 \text{ ko_mirni qazib olish koefitsenti.}$
12.  $S = 0,95 \div 0,97 \text{ kovjoydan ko_mirni ajratib olish koef.}$

#### **Echilishi:**

Xarakatdagi kovjoyning sutkadagi siljishi:

$$V_{d,sut} = r n_s = 0,63 \cdot 6 = 3,78 \text{ m},$$

Kovjoyning yillik siljishini aniklaymiz:

$$V_d = N \cdot v_{d,sut} k = 300 \cdot 3,78 \cdot 0,9 = 1020 \text{ m.}$$

Bu erda: N- bir yildagi sutkalar soni.

$K = 0,85 \div 0,95$  – kovjoyning bir me‘yorda ishlashiga ta‘sir etuvchi tog\_- geologgi sharoitni hisobga oluvchi koeffitsienti.

Bir vaktda ishlayotgan katlamlarning umumiyl ishlab chiqarish kuvvati:

$$\Sigma r^l = \Sigma m \gamma = (0,8+1,2) \cdot 1,32 = 2,6t.$$

bu erda :  $\Sigma m$  – bir vaktda ishlayotgan katlamlarning umumiyl qalinligi.

$S = 0,96$  – kovjordan ko\_mirni ajratib olish koefsenti.

Xarakatdagi kovjoy uzunligi:

$$H_d = \frac{\frac{A}{v_d} \cdot k \cdot k^1}{\Sigma p^1 \cdot C} = \frac{2000000 \cdot 1 \cdot 0,9}{1020 \cdot 2,64 \cdot 0,96} = 696 \text{ m.}$$

Shxta buyicha:

$$\sum h_d = n_l^l \cdot h_d = 2 \cdot 696 = 1392 \text{ m.}$$

Shaxta buyiga xarakatdagi kovjoylarning umumiy soni:

$$\sum n_{nld} = \frac{\sum h_l}{l} = \frac{1398}{180} = 7,7 \approx 8 \text{ kovjoy.}$$

**Shaxta buyicha xarakatdagi kovjoyning kilinadigan umumiy uzunligi:**

$$\sum h_d^l = \sum n_{nld} \cdot l = 8 \cdot 180 = 1440 \text{ m.}$$

**Etajning balandligi:**

$$H_{et.(sr)} = n_l l + \sum h_s + \sum h_{sh}.$$

Bu erda :  $n_l$ - yotish chizigi buyicha bir-birining tagida joylashgan etajdagi lavalar soni.

$\sum h_s$ - kavatlar orasidagi koldiriladigan sikllarning umumiy balandligi .

$\sum h_{sh}$ - shtrek va prosekning umumiy eni (bu xolda 7 m.).

*Bundan:*

$$H_{et.(sr)} = n_l l + \sum h_s + \sum h_{sh} = 1 \cdot 180 + 15 + 7 = 202 \text{ m.}$$

**Yupka va o,rtacha qalinlikga ega bo,lgan nishab va kiya katamlarda kovjoylar uzunligi va etaj balandligini aniklash.**

**Kovjoyning xarakatdagi uzunligi:**

$$h_{\Delta} = \frac{1500000 \cdot 1 \cdot 0,93}{830 \cdot 2,8 \cdot 0,95} = 632 \text{ m.}$$

Bu erda :  $A_{sh,g}$ - shaxtaning yillik ishlab chikarish kuvvati.

$K_{och}$ - kovjoyning ko\_mirni qazib olish xisobga oluvchi koeffitsienti  $0,92 \div 1$ .

$K_d^1$ - umushaxta buiga xarakatdagi kovjoydan ko\_mirni kazib olishni xisobga oluvchi koeffitsient.

Qulay sharoitlar uchun  $k^1_d = 0,92 \div 0,94$  .

Nokulay tog\_-geologik sharoitlar uchun  $k_d^1 = 0,86 \div 0,90$  .

$V_d$ - shaxta buyiga xarakatdagi kovjoylarning yillik siljishi .

$\Sigma r^1$ - bir vaktda qazib olinayotgan katamlarning umumiy kuvvati.

S- kovjoyning ko\_mirni ajratib olish koef:

$$S = 0,95 \div 0,97.$$

*Bundan:*

$$v_d = N v_{sut} k = N r n_s k.$$

Buerda : N- yildagi ish kunlari soni ( $N=300$  kun).

r- bir siklda kovjoydan qazib olinadigan katlam kengligi

$n_s$ - bir sutkadagi sikllar soni.

k- lovaning bir tekisda ishlashiga ta'sir etuvchi tog-geologi sharoitni xisobga oluvchi koef.  $K=0,85 \div 0,95$ :

$$\sum p' = 0,98 + 1,82 = 2,8 \text{ t/m}^2.$$

Bu erda:  $\Sigma m^1$ - bir vaktda qazib olinayotgan katamlarning

Umumiy qalinligi:

$\gamma$  - ko\_mirni o\_rtacha zichligi  $\text{t/m}^2$ .

Shaxta buyiga xarakatdagi kovjoy uzunligi:

$$\sum h_{\Delta} = 600 + 600 = 1200 \text{ m.}$$

Bu erda:

$N_{nl}^1$  - bir vaktda qazib olinayotgan katlamlar soni.

**Shaxta buyiga xarakatdagi lovalarning umumiyl soni:**

$$n_{\text{ш.д1}} = \frac{632}{150} = 4,2;$$

Bu erda:  $l_l$ - lovaning balandligi.

**Kavat yoki yarusning balandligi:**

$$H_{et.(sr)} = n_l l + \sum h_s + \sum h_{sh} = 4,2 * 150 + 120 + 7 = 857 \text{ m.}$$

Bu erda :  $n_l$ - kavatdagi bir –birining tagida joylashgan .

Lavalarning soni.

$\sum h_s$ - kavatlar orasidagi koldirilgan silikning umumiyl balandligi .

$\sum h_{sh}$  – etajdagi shtreklar va prosesslaorning umumiyl eni.

### **№ 16 Amaliy mashg„ulot uchun variantlar:**

№	m <sub>n</sub> , m					A <sub>shg</sub> , t/yil	$\gamma$ , t/m <sup>3</sup>	$\alpha$ , grad	s	n <sub>c</sub>	R
	m <sub>1</sub>	m <sub>2</sub>	m <sub>3</sub>	m <sub>4</sub>	m <sub>5</sub>						
1.	1	1,2	1,3	1	0,7	2000000	1,32	15	0,91	3	0,63
2.	0,5	1,1	1,2	1	0,7	2400000	1,35	20	0,92	3	0,63
3.	0,7	0,8	0,3	2	0,9	2100000	1,4	17	0,93	3	0,63
4.	0,8	0,9	1	1,1	1,2	3000000	1,36	15	0,92	3	0,63
5.	0,9	1	1,2	1	1,3	3200000	1,35	16	0,94	3	0,63
6.	0,7	0,9	1,1	1,2	1,2	3100000	1,36	13	0,91	3	0,63
7.	0,8	0,8	0,8	0,8	0,8	2800000	1,4	15	0,95	3	0,63
8.	0,7	0,7	1,2	1,2	1,3	2500000	1,34	10	0,93	3	0,63
9.	0,8	0,9	1,3	1,3	1,3	2350000	1,35	12	0,92	3	0,63
10.	0,9	0,9	0,9	1,2	1,5	3300000	1,4	10	0,91	3	0,63
11.	0,9	1,3	1,4	1,4	1,2	3600000	1,37	8	0,94	3	1
12.	0,9	0,8	1,2	1,2	1,2	3700000	1,35	14	0,92	3	1
13.	1	1	1,1	1,2	0,8	2750000	1,38	15	0,93	3	1
14.	1	1,1	1,2	1,2	1,2	1800000	1,35	12	0,91	3	1
15.	1,1	1,1	1,1	1,2	1,2	2200000	1,4	13	0,92	3	1
16.	1	1,1	1,2	1,3	1,2	3200000	1,35	15	0,92	3	1
17.	1,1	1,2	1,2	1,1	1,2	2850000	1,4	13	0,93	3	1
18.	1	1,1	1,3	1,3	1,2	3600000	1,35	12	0,92	3	1
19.	1,1	1,1	1,1	1,2	1,2	2500000	1,36	18	0,9	3	1
20.	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	2400000	1,35	10	0,93	3	1

**Mavzu: Umumshaxta shamaollatish korsatkichlarini hisoblash.**

Shaxtaga kerak bulgan havoni hisoblash uchun lahimlar nomi, vazifasi va ko‘ndalang kesim yuzasi (3-bulimda keltirilgan) ko`rsatilgan shamollatish sxemasi (loyiha qilinayotgan lahimlar tarmog‘i) bo`lishi kerak.

**Shaxtaga umumiylar havo sarfini hisoblash metodikasi**

Havo sarfini hisoblash zaboylar bo`yicha amalga oshirilgan holda, har bir iste` molchi uchun havo hisobi inobatga olinishi kerak. Talab qilinadigan havo sarfi hisoboti standart kullanmalar asosida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlovchi lahmlarni shamollatish uchun havo sarfi.
2. Qazish lahmlarini shamollatish uchun havo sarfi.
3. Ayrim kon lahmlari va umumshaxta kameralarini shamollatish uchun havo sarfi.
4. Raschet vnutrennix utechek vozduxa.
5. Umumshaxta havo sarfi.

Umumshaxta havo sarfini hisoblashda XQ (YAXQ) talablariga ko`ra VMP o`rnatilgan kon lahmiga havoning 70 %ini o`tkazib beradi.

Qazish ishlarini shamollatishda havo sarfi o`z ichiga qazish zaboyi va qazish uchastkasi (blok) havo sarfini oladi.

Odamlar soni bo`yicha havo sarfi  $Q_{o_3}^{\prime \prime}$  ni hisoblash quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:

$$Q_{o_3}^{\prime \prime} = 6 \cdot N_O \text{ m}^3/\text{min};$$

Bunda  $N_O$  -zaboya bir vakning uzida bulishi mumkin bulgan ishchilarnig maksimal soni (Norma bo`yicha bitta ishchi nafas olishi uchun  $6 \text{ m}^3/\text{min}$  dan kam bo`lmagan havo yetkazib berilishi kerak).

Zaxarli gazlar bo`yicha havo sarfi  $Q_{o_3}^{\prime \prime}$  ni hisoblash kuyidagi formulada keltirilgan:

$$Q_{o_3}^{\prime \prime} = \frac{I_e}{C_{don} - C_o} \cdot 100$$

gde  $I_e$  – qazish zaboyining absolyut sergazligi,  $\text{m}^3/\text{min}$ ;

$S_{don}$  va  $S_o$  – metan kontsentratsiyasi, oqimga chiqishdagi va kirishdagi, %;  $S_o = 0$  deb qabul qilamiz.

Ichki yonuv dvigatellari (IYOD) dan chiqayotgan gazlarga ko`ra havo sarfini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniлади:

$$Q_{o_3}^{I\acute{E}\acute{D}} = n \cdot G_{cc} \cdot N_{I\acute{E}\acute{D}}, \text{ m}^3/\text{min};$$

bunda  $G_{cc}$  – bitta IYOD uchun havoning solishtirma sarfi: 1 ot kuchi uchun  $5 \text{ m}^3/\text{min}$  ga teng deb olamiz yoki  $1 \text{ kVt}$  uchun  $6,8 \text{ m}^3/\text{min}$  ga teng deb olamiz.

$N_{I\acute{E}\acute{D}}$  – bir vaqtning o`zida IYOD bilan ishlovchi mashinalarning umumiylarini, 1 ot kuchi yoki  $\text{kVt}$ ;

$n$  – bir vaqtning uzida IYOD bilan ishlovchi mashinalarni hisobga olish koeffitsienti, (bitta mashina bo`lganda  $n=1$ ; ikkita mashina bo`lganda  $n=0,85$ ; uchta va undan ko`p mashina bo`lganda  $n=0,6$ ).

Portlash gazlari orqali havo sarfi  $Q_{o.3}^{IM}$  ni hisoblash:

$$Q_{o.3}^{IM} = \frac{34}{T} \sqrt{B_\kappa \cdot V_{o4}} , \text{ m}^3/\text{min};$$

bunda  $T$  – lahmni shamollatish vaqt, min; XKga ko`ra qabul qilingan  $T = 30$  min;

$B_\kappa$  – bir vaqtning o‘zida portlatiladigan portlovchi modda (PM) miqdori, kg;  $V_{o4}$  – qazish lahmining shamollatish uchun etalon miqdordagi havo hajmi,  $\text{m}^3$ ;

$$V_{o4} = m_{e,np.} \cdot b_{max} \cdot l_{o4} , \text{ m}^3;$$

bunda  $b_{max}$  – zaboy old bushlig‘ining maksimal kengligi, m; kon lahmlarini mustaxkamlash pasporti va lahm shipiga ko`ra aniqlanadi.

Kamerasimon qazish lahmlari uchun:

$$Q_{o.3}^{IM} = \frac{27,5}{T} \sqrt[3]{B_\kappa \cdot V_{o4}^2} , \text{ m}^3/\text{min}.$$

Yuqoridagi formulalardagi qiymatlarga ko`ra maksimal qiymatni tanlaymiz:

$$Q_{p.o.3} = \max \left\{ Q_{o.3}^i \right\}$$

Sungra,  $Q_{r.o.z.}$  ning qiymati lahmlardagi havo tezligining ehtimoliy qiymatlari bilan tekshiriladi. (Hisoblab topilgan qiymat XYAK yoki XK bo`yicha belgilangan minimal va maksimal qiymatlardan oshmasligi kerak):

